

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



“OVQATLANISH FIZIOLOGIYASI”

fanidan

O‘QUV-USLUBIY MAJMUASI

| | |
|---------------------------|--|
| Bilim sohasi: | 700000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari |
| Ta’lim sohasi: | 720000 - Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60720100 - Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) |

Guliston 2024

«Ovqatlanish fiziologiyasi» fanidan o‘quv-uslubiy majmua. -Guliston, 2023.
-220 b.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua 60720100 - Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. O‘quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti tomonidan 2023-yil 30-avgustda tasdiqlangan Oqatlanish fiziologiyasi o‘quv dasturi talablari asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar:

A.O.Uzaydullayev - GulDU “Oziq-ovqat texnologiyalari” kafedrasini mudiri, t.f.f.d., PhD, v.b. dotsent.

S.K.Kuzibekov - GulDU “Oziq-ovqat texnologiyalari” kafedrasini dotsenti, t.f.f.d., PhD, v.b. dotsent.

A.A.Nurmuxamedov - GulDU “Oziq-ovqat texnologiyalari” kafedrasini o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

D.X.Maxmudova - TKTI OOMT kafedrasini dotsenti, t.f.f.d., PhD.

K.K.Sattarov - ICHT fakulteti dekani, t.f.d., dots.

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua OO‘MTVning 2017-yil 1-mart 107-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim o‘quv rejalari fanlarining yangi o‘quv majmualarini tayyorlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma” asosida yaratilgan.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Ishlab chiqarish texnologiyalari fakulteti “Oziq-ovqat texnologiyalari” kafedrasining 2024-yil ___-avgustdagi ___-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan.

O‘quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti O‘quv-uslubiy Kengashi tomonidan ko‘rib chiqilgan va o‘quv jarayonida qo‘llashga tavsiya etilgan. (2024-yil ___-avgust, №__ bayonnoma).

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| Kirish..... | 4 |
| O‘quv materiallari (ma’ruza mavzulari va mazmuni, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar)..... | 6 |
| Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari..... | 149 |
| Glossariy..... | 151 |
| Ilovalar: | |
| O‘quv dasturi..... | 156 |
| Syllabus..... | 160 |
| Tarqatma materiallar..... | 166 |
| Testlar..... | 181 |

KIRISH

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida islohotlar negizini shakllantirish hamda istiqbolli yo'nalishlarni aniqlab olish uchun qabul qilingan me'yoriy hujjatlar orasida "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-sonli 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning tarrafiyot strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni alohida ahamiyatga ega.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlarini o'sishi, umumiy ovqatlanish va savdo korxonalarini oziq-ovqat mahsulotlari sifatini malakali sanitariya (ekspertlar) nazoratidan o'tkazib turishni talab etadi. Sanitariya xizmatining yuqori malakali xodimlarini, jumladan, to'g'ri ovqatlanishning tashkil etilishi ustidan kundalik nazorat olib boruvchi shifokor yordamchilarini, idoralarga qarashli umumiy ovqatlanish korxonalarining sanitariya xodimlarini tayyorlash zaruriyati ana shunga bog'liq.

Ovqatlanish fiziologiyasi aholi iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining, bular tabiiy mahsulotlar bo'ladimi, yangidan ishlab chiqilgan sun'iy mahsulotlar bo'ladimi, baribir, ximiyaviy tarkibini, biologik qiymatini va sifatini o'rganadi. Oziq-ovqat mahsulotlaridan yanada yaxshiroq foydalanish va sifatsiz mahsulotlarning aholi salomatligiga zarar yetkazishiga yo'l qo'ymaslik uchun ana shunday qilish zarur. Ovqat moddalarining ilmiy jihatdan asoslangan fiziologik normalari va ovqat ratsionlari mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlovchi xalq-xo'jaligi sohalarini rivojlantirish rejalarini tuzishga imkon beradi.

Ovqatlanish to'g'risidagi fanining eng muhim vazifasi yurak-qon tomirlar kasalliklari bilan infeksiyon kasalliklar, shuningdek, xavfli o'smalarning oldini olish va sonini kamaytirishda ovqatning qanday rol o'ynashini o'rganishdir. Bu fan ovqatga aloqador kamchiliklardan kelib chiqadigan kasalliklarni: toksikoinfeksiyalar, gipovitaminozlar, avitaminozlar, ratsionda mineral moddalar etishmasligiga aloqador endemik kasalliklarni o'rganadi va bularning oldini olish chora-tadbirlarini asoslab beradi.

Ovqatlanish fiziologiyasi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishda qo'shiladigan turli moddalarni: bo'yoqlar, xushbo'y beradigan moddalar, emulgatorlar, oqartiradigan va boshqa moddalarni, shuningdek, oziq-ovqat ekinlari hosildorligini va chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish uchun qishloq xo'jaligida ishlatiladigan pestitsidlarni qo'llanishning qoidalarini ishlab chiqadi va bularning yo'l qo'ysa bo'ladigan miqdorini belgilab beradi.

Fanni o'qitishdan maqsad - organizmni ozuqaviy moddalarga bo'lgan ehtiyojini

aniqlash, ya'ni bu oziqaviy moddalar hayotiy jarayonlar, hujayralar va to'qimalarni kimyoviy tuzilmasini to'xtovsiz yangilanib borishi hamda murakkab fiziologik sistemalar ishlashi uchun energiya manbai bo'lib xizmat qilishini o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi - Ta'lim va tarbiya sohasidagi chuqur islohotlarni amalga oshirish - yuqori malakali kadrlarni, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda barcha ta'lim muassasalari oldiga murakkab, ko'p qirrali va mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar qo'yiladi. Talaba:

- O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xom ashyo turlari sifatini va uning ahamiyati bo'yicha mustaqil fikr bildira olishini;

- ishlatiladigan asosiy va qo'shimcha xom ashyo va ta'm beruvchi qo'shimchalar tavsif bera olishini;

- ularning turiga ko'ra kimyoviy tarkibini tushuntirib bera olishini; sochiluvchan xom ashyolar xossalarini ta'riflay olishini;

- mahsulotlar sifatini meyorlashning ahamiyatini ta'riflay olishini hamda ularni ko'rsatkichlarini mustaqil ravishda aniqlay olishini haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi***;

- talaba oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish qo'llaniladigan xom ashyo va ta'm beruvchi qo'shimchalarni tahlil qilish;

- ananaviy va noan'anaviy xom ashyolar sifat ko'rsatkichlarini va iqtisodiy asoslangan holda to'g'ri tanlash, xom ashyolarni to'g'ri tanlash bo'yicha amaliy ***ko'nikmalariga ega bo'lishi***;

- talaba ishlab chiqarishda qo'llaniladigan asosiy va qo'shimcha xom ashyolarni tahlil qilish;

- ularni texnologiyada samarali ishlatish;

- asosiy va qo'shimcha xom ashyo turiga qarab texnologik rejimlarning optimal ko'rsatkichlari va ish rejimlarini belgilash ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.

O'quv materiallari

(ma'ruza mavzulari va mazmuni, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar)

1-MA'RUZA: ODAM FIZIOLOGIYASI ASOSLARI

Reja:

1. Sog'lom ovqatlanish haqida tushuncha
2. Oqilona ovqatlanish fanining yo'nalishlari.
3. Ovqat hazm qilish organlari.
4. Ovqat hazm qilish jarayonlari.

Tayanch so'z va iboralar: makro-, mikroelementlar, ovqatlanish epidemiyalogiyasi. oqsil, yog', uglevodlar, alimantar kasalliklarni diagnostikalash metabolizmi, biotransformatsiyasi, vitaminlar-antioksidantlar, silen, pektin, ayrim yog'li kompozitsiyalar, turli nutrientlar.

Darsning o'quv maqsadi: Ovqatning hazm bo'lishi haqida tushuncha. Neyrogumoral tizim uchun ovqatlanish omillarining ahamiyati. Ovqatlanishning yurak-qon tomir tizimiga ta'siri. Ovqatlanishning ovqatning hazm qilish sistemasiga ta'siri. Ovqatlanishning nafas olish sistemasiga ta'sirini o'rganish.

Sog'lom ovqatlanish haqida tushuncha

Aholini ratsional ovqatlanishida umumiy ovqatlanishning roli kattadir. Aholini umumiy ovqatlanish tizimida ilmiy asoslangan me'yorlar asosida turli-tuman va ratsional ovqatlanish sohasidagi ehtiyojini qondirishi kerak. Unda inson organizmiga kerakli miqdorda oqsil, yog', uglevodlar kabi asosiy va makro-, mikroelementlar hamda kerakli darajada vitaminlarni hisobga olingan holda pazandachilik mahsulotlarini tavsiya etishi mumkin. Buni ilmiy texnika taraqqiyoti talablari asosida amalga oshirishda umumiy ovaqatlanish korxonlari uchun mutaxassislar tayyorlovchi o'quv mussasalarining ahamiyati benihoya kattadir.

Davlatimizning sog'lom ovqatlanish bo'yicha tutgan siyosati kompleks choralardan iborat bo'lib, u aholini turli guruxlarini oqilona ovqatlanishi bo'yicha bo'lgan talabini qondirishga va bu yulda aholining urf-odatlarini nazarda tutib, iqtisodiy axvolini o'rganib, tibbiyot fanining ovqatlanishga bo'lgan talabiga asoslangan xolda amalga oshirishdan iborat. Aholining sog'lomligini belgilab beruvchi eng asosiy omillaridan biri-bu ularning ovqatlanishidir. To'g'ri ovqatlanish bolalarning o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Turli xil kassaliklarning oldini oladi. Insonlarning umri uzayadi. Mehnat qobiliyati ko'tariladi va nixoyat, atrof muxit

sharoitlariga mos xolda unga ko'nikishga yordam beradi.

Ovqatlanishni to'g'ri tashkil qilish bilan maxsus «ovqatlanish fiziologiyasi fani» (наука о питании) nomli fan shug'ullanadi. Bu fanning ko'zga kuringan yunalishlarining asosiylari quyidagilar: - maromli va oqilona ovqatlanishni tashkil etish; Ovqatlanish bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni profilaktika qilish; oziq-ovqat xom ashyosi va ovqat mahsulotlarini nazorat qiluvchi tizimlarini kengaytirish va kuchaytirish; aholini sog'lom ovqatlanish bo'yicha bilim darajasini ko'tarish.

Har bir inson oqilona ovqatlanish haqida, ovqat mahsulotlarini tashkil etgan moddalar haqida va ularni sog'lom yoki nosog'lom organizmga ta'siri haqidagi zarur bo'lgan tushunchalarga ega bo'lishi kerak. Bu tushunchalar insonda ovqatlanish madaniyatini yaratadi. Bu madaniyat jamiyat miqyosidagi lozim bo'lgan madaniyatning asoslaridan biridir. Oqilona ovqatlanishning tamoillarini buzilishi albatta organizmda biron bir kasallikni keltirib chiqaradi. Shu bilan inson umrini qisqartiradi va uni to'liqligini yuqotadi. Masalan: semirish kasalligi, ovqat tarkibida almashtirib bo'lmaydigan moddalarning xronik xolati etishmasligi va h.k. Shu qatorga yana biz oziq-ovqat xom ashyosi va tayyor mahsulotlarni turli xil yot bo'lgan kimyoviy va biologik hususiyatlarga ega bo'lgan moddalari bilan ifloslanishi ni ham kiritishimiz lozim. Shu sababida davlat nazorati tomonidan ovqat mahsulotlari bo'yicha xavfsiz va «sog'lom ovqat» ishlab chiqarish masalasiga qattiq qarashlari lozimdir.

Bu masala, ya'ni, aholini oqilona va maromli ovqatlanishi yo'lidagi «sog'lom ovqat» bilan ta'minlash choralari albatta davlat miqyosidagi muammo bo'lishi shart va davlat tomonidan zudlik bilan aholini sog'lomlashtirish chora tadbirlari ishlab chiqilishi va uni amalda tadbiiq qilinishi bugungi kunning o'ta dolzarb masalalaridan biri bo'lmog'i darkordir.

Zamonaviy ovqatlanish fani o'z ichiga juda ko'p fundamental va amaliy fanlarni olgan bo'lib, u jamiyatni rivojlanishi bilan aholining urf odatlari, ovqatlanish madaniyati va shunga o'xshash yunalishlarni rivojlanishi bilan tavsiflanadi.



1-rasm. Sog'lom ovqatlanish.

Ovqatlanish fiziologiyasining asoschisi, rus olimi akademik I.P.Pavlov (1849-1936) ning shartli reflekslar haqidagi ta'limoti ovqatlanish fiziologiyasida katta ahamiyatga ega. U organizmning tashqi ta'sirotda javob reaksiyasini refleks deb ataydi, ya'ni shartli reflekslarni vujudga keltiruvchi va qo'zg'atuvchi asosiy omillarga kishining ovqatlanish sharoiti, taomning tarkibi, sifati, tashqi ko'rinish lari, ta'mi kabi ko'rsatkichlari kiradi.

Ovqatlanish sharti qanchalik pokiza, ozoda, ma'lum darajada bezatilgan va odam ruhiy tetik bo'lsa, shartli reflekslar yaxshi ishlab, ovqatni ishtaha bilan iste'mol qilishga yordam beradi. Taom qanchalik mazali, sifatlil va kishini jalb qiluvchi bo'lsa u odam organizmida so'lak, ichak bezlarini qitiqlab, ulardan me'da suvlarini ko'proq chiqaradi va ovqatni to'la o'zlashishiga yordam beradi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining to'yimli qiymati, ularni inson organizmida to'la oksidlanishi natijasida chiqargan issiqlik energiyasiga bog'liq bo'ladi.

Bir gramm yog' kishi organizmida 9,3 kilokalloriya, bir gramm oqsil va uglevod esa 4,1 kkal issiqlik chiqaradi. Issiqlik miqdori to'yimli moddalarning o'zlashish darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, sut oqsilining o'zlashish darajasi 98% bo'lsa, qo'ziqorin oqsili esa 25% o'zlashadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining to'yimlilik tarkibidagi moddalarning miqdori va o'zlashish darajasiga bog'liq bo'ladi. Turli taomlarni va oziqa mahsulotlarini to'yimlilik darajasini aniqlash uchun tarkibidagi to'yimlilik moddalar (oqsil, yog', uglevod) ning miqdorini, shu moddalar yonganda beradigan issiqlik koeffitsientiga (4,1; 9,3; 4,1) ko'paytirib aniqlanadi.

Masalan: 100 ml sigir sutini to'yimlilikini aniqlash uchun avval uni tarkibidagi to'yimlik moddalarning miqdori (kimyoviy tarkibi) aniqlanadi:

| | | |
|----------------|------------|-----------|
| 100 ml sutda - | 4% oqsil | 4 gr |
| | 4% yog' | yoki 4 gr |
| | 3% uglevod | 3 gr |

so'ngra, har bir moddani, uning issiqlik koeffitsientiga ko'paytiramiz:

| | | | | | |
|---------|------|---|-----|---|----------------|
| oqsil | 4 gr | x | 4,1 | = | 16,4 |
| yog' | 4 gr | x | 9,3 | = | 37,2 |
| uglevod | 3 gr | x | 4,1 | = | 12,3 |
| JAMI | | | | | 65,9 = 66 kkal |

demak 100 ml sut iste'mol qilinsa 66 kkal issiqlik hosil bo'ladi.

Inson yoshiga va ish faoliyatiga ko'ra kuniga ma'lum miqdorda energiya sarflaydi va bu energiyani oziqa orqali uzluksiz to'ldirib turishi kerak.

Kundalik ovqatni muayyan bir vaqtda iste'mol qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki organizm shu vaqtda shartli reflekslar ta'sirida meda suvlarini chiqara boshlaydi va ovqatni hazm bo'lish darajasi oshadi.

Taomning o'zlashishi va to'liq hazm bo'lishi ko'pchilik tashqi omillarga ham

bog‘liq bo‘ladi. Ovqatlanish sharoiti qanchalik ozoda va dilkashlik bilan o‘tsa, shunchalik to‘liq hazm bo‘ladi.

Odatda issiq taomlarni harorati 60-70 °C atrofida, salqin taomlarni esa 15-17 °C atrofida iste‘mol qilish tavsiya etiladi.

Ovqatlarni o‘zlashish miqdori, shuningdek, odamni yoshiga, taomni tarkibiga ham bog‘liq bo‘ladi. Katta yoshdagilar yog‘liq taomlarni kamroq, yosh bolalar oqsilga va vitaminlarga boy bo‘lgan taomlarni ko‘proq iste‘mol qilish tavsiya etiladi.

Ovqatlanish paytida turli ziravor va dorivor (tuz, sirka, murch, qalampir, rayhon, ukrop, kashnich)lardan foydalanish ham asosiy oziqa moddalarning o‘zlashish darajaini oshiradi.

Insonni har kungi me‘yoriy hayot faoliyatida taom tanavul etish oddiy hol hisoblanadi. Insonni sog‘lig‘ini va mehnat qobiliyatini saqlash, kasalliklarga qarshi kurashishda, me‘yoriy o‘sish va organizmni rivojlanishida to‘g‘ri ovqatlanish asosiy shartlardan bo‘lib hisoblanadi.

Ovqatlanish esa asosiy energiya manbai bo‘lib, organizmda yangi to‘qima va xo‘jayralardan foydalanish materialidir.

Oqilona ovqatlanish fanining o‘z yo‘nalishlari bor:

1. Ovqatlanish epidemiologiyasi. Bu yunalishda aholning haqiqiy ovqatlanishi o‘rganiladi. Ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlanish darajasi o‘rganiladi. Ovqatlanishni oqilona tashkil etish chora tadbirlari o‘rganiladi va natijada aholini sotsial va iqtisodiy rivojlanishidagi katta bir yo‘nalishga asos solinadi.

2. Oziq- ovqat xom ashyosi va ovqat mahsulotlarini sifatli bo‘lishini ta‘minlash. Ovqat mahsulotlarining sifati ma‘lumki, ikkita kata ko‘rsatkich bilan aniqlaniladi - xavfsizligi va oziqaviy qiymati.

3. Ovqatlanish bioximiyasi va fiziologiyasi sohasida fundamental izlanishlarini kuchaytirish. Bu yo‘nalishni rivojlantirishda ovqat metabolizmi, biotransformatsiyasi, undagi xavfli va keng tarqalgan kontaminantlarning ta‘sir qilish mexanizmi, ovqat allergiyasining sabablarini, ayrim ovqat moddalarini va ularning komplekslarini farmakologiyasini ilmiy jihatdan o‘rganishda asosiy o‘rin tutadi. Hususan bunda vitaminlar-antioksidantlar, silen, pektin, ayrim yog‘li kompozitsiyalar, turli nutrientlar (organizmga xos bo‘lmagan rezistentlikni kuchaytiruvchi, yani, tashqi muhitni noqulayliklarga chidamlilik hosil qiluvchi, hamda, keng tarqalgan kasaliklarni rivojlanishini oldini oluvchi) bor.

4. Aholini ovqatlanishini o‘rganuvchi metodologiyani mukamallashtirish. Bu borada turli tez aniqlab beruvchi uslublarni yaratish nazarda tutiladi:

- Ovqatdagi kontaminantlarni topish, aniqlab borish ish (identifikatsiya) va miqdoriy jihatlarni aniqlash;
- Ovqat mahsulotidagi qalbakilikni (falsifikatsiya) aniqlash;
- Ovqat mahsulotini oziqaviy qiymati va kimyoviy tarkibini taxlil qilib berish;

- Xaqqoniy ovqatlanishni, ovqat mahsulotini tutgan o'rnini to'g'ri baholash;
- Alimentar kasalliklarni diagnostikalash va davolash. Alimentar kasalliklar-ovqat bilan bog'liq kasalliklar.

5. Ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini mavjudlarini takomillashtirish, hamda, yangi texnologiyalar yaratish. Bu borada ovqat mahsulotlari tarkibining gigienasi, ularning retsepturasi, texnologiyasi va qo'llaniladigan qurilmalar ko'zda tutiladi.

Bular amalga oshirilgan holda biz xavfsiz, yuqori oziqaviy qiymatga ega bo'lgan shirin mahsulot olishga va zamonaviy talab darajasida uni qadoklashga erishamiz.

Nutrientlar - (или эссенциальные веществ): -8 ta almashtirilmaydigan aminokislotalar, 3 yoki 4-ta to'yinmagan yog' kislotalari, bir qancha mineral moddalar (F, Se, I, Fe va boshqalar) va bir qancha vitaminlar.

Ovqat hazm bo'lishi deganda ovqat mahsulotini inson organizmida to'liq parchalanishi tushuniladi. Ya'ni, mahsulot tarkibiga kirgai oziqaviy moddalarni organizmning turli qismlarida turli shaklgacha parchalanishi, so'ngra ularni qonga so'rilishi va organizmda bu moddalarni oksidlanishi nazarda tutiladi. Keyingi bosqichda oksidlanishga uchragan moddalar maxsus jarayonlar natijasida va fermentlar ishtirokida qaytadan lozim bo'lgan ozuqa moddalariga aylanadi va organizm birligini yaratadi. Bu jarayonni qisqacha assimlyasiya va dissimlyasiya jarayoi deb ataladi.

Yoki o'zgacha bu jarayonni resintez va sintez deb ham ataladi.

Jarayonning ma'lum qismi oshqozon ichak apparatlarida amalga oshadi. Ikkinchi qismi hujayra miqyosida amalga oshadi. Ushbu jarayonni to'liq ko'z oldimizga keltirishimiz uchun qisqacha ovqat xazm qilish apparati ustida to'xtalib o'tamiz.

Ovqat hazm qilish apparati og'iz bo'shlig'idan boshlanib, anal (chiqarish) teshigi bilan tugaydi. Ovqat hazm qilish apparatining turli qismlarida ovqat mahsulotlari turlicha o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Og'iz bo'shlig'idan mexanik jarayon amalga oshadi, ya'ni, ovqat mahsulotlari maydalaniladi va u og'iz bo'shlig'idagi so'lak bezlaridan ajralgan shira bilan to'yinadi, hamda, u bir muncha bo'kadi. Mexanik tarzda parchalangan ovqat mahsulotlari xalqum orqali qizil o'ngachga o'tadi.

Qizil o'ngachda ovqat bo'tqasi bir muncha vaqt ushlanib turadi. Bu davrda ovqat yana ham ko'proq bo'kib, ma'lum toifadagi massaga aylanadi. Qizil o'ngachning devorlarini maxsus harakati tufayli ovqat bo'tqasi asta sekin pastga siljiydi va ma'lum xalqasimon teshikdan o'tib, oshqozonga tushadi. Ovqat bo'tqasi oshqozonda ovqat xiliga qarab bir necha minutdan bir necha soatgacha ushlanib turiladi.

Ovqat bo'tqasi tushganda oshqozon devorlaridagi shilliq qavatning funksiyasi tezlashadi va oshqozonning ichki bo'shlig'ida oshqozon shirasi yig'iladi. Shira asosan oshqozon devorlaridagi maxsus bezlarni ish faoliyati natijasida ajraladi va u oshqozon shirasi deb ataladi. Oshqozon shirasi kislotali muxidga ega (pH=5,5).

Oshqozonning ichki bo'shlig'ida ovqat bo'tqasi ham bo'kadi, ham mexanik o'zgarishga duchor bo'ladi. Bo'tqa oshqozon shirasiga to'yingan vaqtda u bir xil tezlik bilan bir xil muhitli bo'tqaga tezda aylanmaydi. Bu narsa oshqozon perestaltikasini (harakatini) yuzaga keltiradi va uni davomiyligiga sabab bo'ladi.

Oshqozon ko'rinishini xaltachasimon bo'lib, uning ikkita uchi bor. Birinchisi qizil o'ngachga ulangan, mahsulotni tushadigan qismi, ikkinchi uchi-ovqatning chiqib ketadigan uchi. Har ikkala uchida maxsus xalqasimon tuzilishiga ega bo'lib, bu qismlari ovqat oshqozonda o'zgarishga uchrayotgan vaqtda xalqachalar qisqaradi va ikkala uchi bekilib koladi. Natijada yopiq bo'shliq hosil bo'ladi. Bo'shliq ichida xuddi shu davrda bo'tqaning turli qismidagi muhit turlicha bo'ladi. Sababi yuqorida aytilganidek, bo'tqaning butun massasi bir xil ko'rsatkichdagi kislotalikga erisholmasligidadir. Natijada, oshqozon devorlarini turli qismida turlicha qisqarish yuzaga keladi va oshqozon yuzasi bo'ylab xarakat boshlanadi. Xarakat natijasida ovqat bo'tqasi oshqozon ichida aralashadi. Oqibatda, bo'tqaning har bir zarrachasining oshqozon shirasi va undagi fermentlar bilan to'yinadi. Jarayon uzoq davom etadi. Ma'lum vaqt o'tgach, oshqozon shirasining funksiyasi susaya boshlaydi. Xuddi shu vaqtda oshqozon ichidagi bo'tqa muhiti bir xillashadi va bo'tqa oshqozonning chiqish qismidagi devorini qutblaydi. Devorni ichki va tashqi qismidagi (oshqozon, ichak) muhit tenglashishi natijasida xalqa asta sekin bo'shashib teshik ochila boshlaydi va ovqatning bo'tqasi ichchakka o'tadi. O'tish jarayoni ham ma'lum bir davrning talab qiladi.

Sababi. Baribir bo'tqaning ichki qismidagi muhit bir muncha boshqacha bo'ladi. U devorga o'z ta'sirini ko'rsatadi va natijada yana xalqa bekiladi. Mana shu tarzda anchagina suyuq holga kelgan bir jinsli massa asta sekin ichak ichiga o'ta boshlaydi. Ichakning boshlang'ich qismini (oshqozon bilan tutash qismi) 12-barmoqli ichak deyiladi. Ovqat bo'tqasi o't pufagidan kelgan o't moddasi bilan boyiydi va u yerda turli parchalanish reaksiyalari ketadi. Ovqat bo'tqasi asta sekin 12-barmoqli ichakdan ingichka ichakka o'tadi. Ingichka ichakda ham bo'tqaning turli xil fermentlar ta'siridagi o'zgarishni kuzatamiz. Turli xil biokimyoviy jarayonlar natijasida o'zgarishga uchragan ovqat bo'tqasi ichakda anchagina vaqt saqlaniladi. Unda jarayonlar natijasida ajralgan oziqa moddalarini qonga so'rilish holati boshlanadi va butun ingichka ichak bo'ylab jigar tomon oziqa moddalari to'liq so'rilish darajasini o'taydi. Ovqat bo'tqasining qolgan qismini asta sekin yo'g'on ichak tomon xarakatlanadi va hamma bo'tqa yo'g'on ichakka o'tadi. Yo'g'on ichakda ovqat bo'tqasi suvsizlanadi, ya'ni, ichak devorlaridan bo'tqadagi suv so'riladi va quyuvlashgan bo'tqa maxsus harakat natijasida yo'g'on ichakdan chiqariladi. Mana shu zaylda is'temol qilingan ovqat mahsuloti ovqat hazm qilish apparatida harakatlanadi.

Bu harakat davomida ovqat hazm qilish apparatining har bir uchastkasida turli xil

biokimyoviy o'zgarishlar yuzaga keladi. Ya'ni mahsulot tarkibidagi oqsil, yog' va uglevod moddalari apparatning turli qismida fermentlar ta'sirida parchalanadi va ichak tomon xarakatlanadi. Bu o'zgarishlarni biz umumiy holda assemilyasiya jarayoni deb ataymiz.

Fiziologik ovqatlanish fanining yo'nalishlari.

Oziq-ovqat muammosi inson hayotidagi eng asosiy muammolardan biri bo'lib hisoblangan va doimo bu muammoni hal qilish xalq xo'jaligida va xattoki davlat miqyosida asosiy vazifa deb qaraladi. Yer yuzida aholi soni har haftada 1 mln 200 ming kishiga ko'payadi. Demak, aholi sonining ko'payishi o'z navbatida ularni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muammolarini yuzaga keltiradi. Sayyoramizdagi aholi soniga to'g'ri keladigan va ularni 1 sutkalik talabini qondiradigan ovqat mahsuloti o'rtacha 4 mln tonnani tashkil etadi.

Aholi sonini oshishi bilan oziq-ovqat yetishtirish miqdori o'rtasidagi farq aholini to'liq oziq-ovqat bilan ta'minlanishiga imkoniyat yarata olmaydi. Hozirgi kunda oziq-ovqat tanqisligi yer yuzi bo'yicha 60 mln tonnani tashkil etadi. Ayniqsa oqsil tutgan va vitamin tutgan mahsulotlar tanqisligini birinchi o'ringa qo'yish mumkin. Shuning uchun ham oziq-ovqat bazasini kengaytirishda turli xil ilmiy yondashuvga suyanish kerak. Buning uchun yuqori ozuqaviy qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar va xom ashyolarni, hamda, noan'anaviy oziq-ovqat mahsulotlarini aholi ratsioniga kiritish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini aholi ratsioniga kiritish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini hosildorligini ko'tarish asosiy chora-tadbirlardan biridir.

Ayniqsa, oziq-ovqat sanoatida biotexnologiya uslublarini yo'lga qo'yish, chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish muhim omillaridan biridir. Baliq zotini yaxshilash, dengiz mahsulotlarini ko'plab iste'mol qilinadigan oziq-ovqat qatoriga kirish, dunyo okeani mahsulotlarini iste'mol qilishga tayyorlash ham oziq-ovqat bilan ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Yana asosiy omillardan biri -kimyoviy sintezlash orqali oziq-ovqat mahsulotlarini oziqaviy qiymatini ko'tarishdan iboratdir. Bu usulda oqsil va vitamin bilan boyitilib, yangi assortimentlar ishlab chiqariladi.

Va yana bir omillaridan biri, biotexnologiya uslubini qo'llashdan iborat. Bu uslubdan foydalanilganda ayrim oziq-ovqat komponenti tariqasida mikroorganizmlar ishlatiladi. Oziq-ovqat tanqisligidagi oqsil va vitamin difitsitini asosan shu uslub orqali bartaraf etish eng qulay va arzon chora tadbirlaridan biridir. Avvalo, mikroorganizmlar o'zining tez ko'payuvchanligi bilan o'zga organizmlarga farqlanadi. Masalan, mikroorganizmlar qishloq xo'jalik hayvonlariga nisbatan ming marta tez, o'simliklarga nisbatan 500 marta tez ko'payadi. Tirik mavjudodlar ichida mikroorganizmlardek oqsil va vitamin massasini tez ko'paytirib beruvchi bironta organizmni uchratmaymiz. O'z tanasidagi oqsilni ikki marta ko'payishi uchun yirik qoramolga besh yil darkor. Cho'chkalar uchun to'rt yil, jo'jalar uchun bir oy,

o'simliklar uchun bir-to'rt hafta, bakteriyalar va achitqilar uchun bir-olti soat vaqt kerak bo'ladi.

Shu bilan birga mikroorganizmlarni o'stirish uchun qo'llaniladigan oziqa muhiti juda arzon. Ularni o'stirish uchun turli xil kimyoviy birikmalar, tabiiy gaz, neft, oziq-ovqat va kimyo sanoatining chiqindilari, kraxmal, gidrolizatlar va shu kabi arzon muhitlar ishlatiladi. Mikroorganizmlar o'zining kimyoviy tarkibi bilan o'simlik va hayvonlardan hech qanday farq qilmaydi. Ammo ularni ko'paytirish va ulardan maqsadga muvofiq moddalar olish maqsadida genetik yo'l bilan izlanishlar olib borilishi uchun juda qulay ob'ekt hisoblanadi. Oqilona ovqatlanishni ta'minlashda qo'llaniladigan maxsus iboralar turkimi mavjud. Ovqatlanishni tashkil qilishda xalqaro miqyosda quyidagi iboralar va aniqlashlardan foydalaniladi.

1. Oziq-ovqat xom ashyosi - o'simlik, hayvonot, mikroob hamda mineral kelib chiqishlaridan tashkil topgan ob'ektlar, oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun qo'llaniladigan;

2. Oziq-ovqat mahsulotlari - oziq-ovqat xom ashyosidan tayyorlangan va tabiiy yoki qayta ishlangan holda ishlatiladigan mahsulot. Mahsulot quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- Jamoa iste'mol qilinishiga mo'ljalangan mahsulotlar. Ular an'anaviy texnologiya asosida ishlab chiqariladi va aholining asosiy guruhi uchun iste'mol qilishga tavsiya etiladi.

- Parxezbop va parxez-profilaktik mahsulotlar. Bu guruhga vitaminlashtirilgan kam yog'li (yog'i 33% ga kamaytirilgan) kam kalloriyali (100 gr da 40 kkal dan kam), dag'al oziqa moddalari bilan boy etilgan, qand miqdori kamaytirilgan, xalestin, osh tuzi miqdori kamaytirilgan va shu kabilar.

- Bolalarga mo'ljalangan ovqatlar-bu uch yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljalangan bo'lib, sog'lom va kasal bolalar uchun tayyorlangan maxsus ovqat mahsulotlaridir.

3. Oziq-ovqat mahsulotlarini sifati oziq-ovqatning yalpi xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, oziq-ovqatning organoleptik tavsifini izohlash qobiliyatiga ega bo'lishi organizmning oziq-ovqat mahsulotlariga talabini belgilashi, inson salomatligi uchun xavfsizligi, undan foydalanilganda va saqlashda talabga javob berishni o'z ichiga oladi.

4. Ovqat mahsulotlarining sifatiga bo'lgan mediko-biologik talablar. Xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotini oziqaviy va inson organizmi uchun xavfsizligini belgilovchi kompleks ko'rsatkichlar.

5. Oziq-ovqat mahsulotlarining zararsizligi (toksin me'yoriy chegarada iste'mol qilinganda organizmga zarar yetkazmasligi va ularning tarkibida konserogen va mutagen moddalarning bo'lmasligi va ularni organizmga ta'sir ko'rsatmasligi.

6. Oziqaviy qiymati. Oziq-ovqatning to'liq foydali hususiyatlarini o'zida

mujassamlashtirgan bo‘lib, o‘z ichiga organizmni fiziologik me‘yor bo‘yicha asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlanishini, energetik va organoleptik hususiyatlarini oladi. Asosan, me‘yor darajasida ovqatlanishda shu ovqat tarkibidagi moddalar tarkibi bilan tavsiflanadi.

7. Biologik qiymati. Biologik qiymat deganda biz oziq-ovqat tarkibidagi oziqaviy oqsilni sifatini belgilovchi iborani tushunamiz. Oziq-ovqat tarkibidagi aminokislotalarni organizm oqsilini sintezlanish uchun kerak bo‘lgan aminokislotalar tarkibiga mosligi nazarda tutiladi.

8. Energetik qiymat. Organizmni fiziologik funksiyalarini qondirish uchun iste‘mol qilingan ovqatdan ajralgan energiya miqdori, kkal.

9. Biologik samaradorlik. Ovqat mahsulotlarini yog‘ kompeptlari bo‘yicha sifat ko‘rsatkichi. U o‘z ichida yog‘ tarkibidagi to‘yinmagan yog‘ kislotalari (almashtirib bo‘lmaydigan)ni tutadi.

10. Ovqat mahsulotlari oziq-ovqat xom ashyosini klasifikatsiyalash. O‘zining nomiga va retsepturasiga mos bo‘lmagan qalbaki ovqat mahsulotlari oziq-ovqat xom ashyosini tayyorlash va tarqatish.

11. Ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat xom ashyosini me‘yoriy hujjatlar asosida shu mahsulotning aniq turiga mos ekanligini aniqlash.

12. Saqlash muddati (tarqatish muddati) oraliq vaqtni bildirib turadi. Shu vaqt davomida oziq-ovqat xom ashyosining va ovqat mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlarini maxsus standartda yoki me‘yoriy hujjatda qayd qilingan talablarga o‘zgarmagan holda javob berishi kerak.

13. Qadoqlovchi va qo‘shimcha materiallar. Mahsulotni yaratishdagi texnologik jarayonda mahsulotni tashishda, saqlashda, va uni tarqatish davomida oziq-ovqat mahsuloti bilan bevosita kontaktda bo‘ladi.

14. Fiziologik talab-tabiat tamonidan belgilangan ijobiy kattalik bo‘lib, uni tavsiya etib yoki chegaralab bo‘lmaydi. U inson aql zakovati bog‘liq emas.

15. Iste‘mol qilish uchun tavsiya etilgan talab chegarasi. Bunda yuqoridagining aksi bo‘lib, aqliy yondoshiladi va fiziologik talabni o‘rgangandan so‘ng qabul qilinadi. Tavsiya etiladigan talab chegarasini belgilashda shaxsning bevosita fiziologik hususiyatlarini o‘rgangan holda belgilanadi.

FAOVOS (dunyo bo‘yicha sog‘liqni saqlash tashkiloti)ning aniqlashi bo‘yicha tavsiya etilgan ovqat miqdori deyarli har qanday sog‘lom organizm uchun etarli hisoblanadi.

16. Kundalik ratsionini oziqaviy to‘yimlilik. Bugungi kunning talabi bo‘yicha eng ko‘p tarqalgan ratsionning to‘yimlilik qiymati 2000-2500 kkal deb qabul qilingan. Bu qiymat 1 ta kishini 1 kunda o‘rtacha sarf qiladigan energetik qiymatiga teng. Bu iste‘mol qilinadigan ratsionda ovqat mahsulotining biologik qiymati birmuncha past. Sababi, ushbu ratsion issiqlik ishlov berish orqali

tayyorlangan taomlar, konservalangan mahsulotlar va uzoq muddat saqlangan xom ashyodan tashkil topgan va ular tarkibida oqsil va vitamin miqdori kamayib ketgan. Shuning uchun yetishmagan nutrientlarni to‘liq yetkazish maqsadida «ratsionning oziqaviy to‘yimlili» iborasi qabul qilingan va u 1000 kkal energiya beruvchi mahsulot tarkibidagi almashtirib bo‘lmaydigan oziq-ovqat moddalari bilan o‘lchanadi.

Ovqat hazm qilish organlari.

Ovqat hazm qilish murkkab fiziologik jarayon bo‘lib, bundan oziq moddalar fizik va kimyoviy o‘zgarishlar natijasida oddiy birikmali moddalargacha parchalanadi va organizmga so‘riladi.


Ovqat og‘iz bo‘shlig‘ida tishlar yordamida maydalanib yutilishi, ovqat hazm qilish organlarda harakatlanishi, hazm bo‘lmagan ovqatlarni tashqariga chiqarib yuborishi fizik o‘zgarish deb ataladi.

Fermentlar ta‘sirida ovqat tarkibidagi oqsillarning-aminokislotalargacha, yog‘larning-glitserin va yog‘ kislotalargacha, uglevodlarning-monosaxaridlarigacha, parchalanishiga kimyoviy o‘zgarishlar deb ataladi.

Bu oddiy birikmali va suvda yaxshi eruvchi moddalar ichak devorlari orqali qon va limfa tomirlariga so‘riladi.

Suv va mineral tuzlar o‘zgarimasdan qonga o‘tadi.

Ovqat hazm qilish sistemasi og‘iz bo‘shlig‘idan boshlanib, anal teshigida tugaydi. Ular og‘iz bo‘shlig‘i, xalqum, qizilo‘ngach, oshqozon, o‘n ikki barmoq ichak, ingichka va yo‘g‘on ichaklar hamda oshqozon osti bezi va jigar kabi organlardan tashkil topgan.



- 1-So‘lak bezlari
- 2-qizilo‘ngach
- 3-oshqozon
- 4- 12-barmoq ichagi
- 5-jigar
- 6-o‘t pufagi
- 7-oshqozon osti bezi
- 8-ingichka ichak
- 9-yo‘g‘on ichak
- 10-ko‘richak
- 11-to‘g‘ri ichak
- 12-anal teshigi

2-rasm. Ovqat hazm qilish organlari.

Og‘iz bo‘shlig‘ida ovqat hazm qilish.

Og‘iz bo‘shlig‘iga tushgan ovqat tishlar yordamida maydalanib, so‘lak bilan ho‘llanadi. Ovqatlarni yaxshi hazm bo‘lishida ularni yaxshilab chaynashishi muhim ahamiyatga ega.

Og'iz bo'shlig'iga ovqat tushgandan so'ng uch juft ya'ni til osti, jag' osti va quloq oldi bezlarining kanalchalari ochiladi va og'iz bo'shlig'idagi ovqatni ho'llaydi. Ovqat tarkibidagi tuzli, achchiq, nordon moddalar so'lakni ko'p miqdorda ajralishiga ta'sir ko'rsatadi.

So'lak tarkibi 99,4-99,5 % suvdan, ovqatni qizilo'ngachga oson o'tishini ta'minlovchi yuqori ilashimli modda-mutsindan, fermentlar va bir qancha mineral moddalardan iborat. Bundan tashqari og'iz bo'shlig'iga tushgan mikroblarni eritib yuboradigan lizotsim oqsili ham bor.

Og'iz bo'shlig'ida ovqat yaxshilab chaynalganda so'lak tarkibidagi ptialin fermenti uglevodlarni parchalashi mumkin. Shuning uchun non og'izda ko'proq chaynalsa, shirin maza bo'ladi.

Ovqat yutilganda xalqum nafas yo'llarini berkitadi va uning qizilo'ngachga o'tkazadi. Qizilo'ngach devorlarining qisqarishi natijasida ovqat oshqozonga o'tadi. Suyuq ovqatlar qizilo'ngachdan oshqozonga 1-2 daqiqada quyuqroq ovqatlar 8-9 daqiqada o'tadi.



3 - rasm. Og'iz bo'shlig'ida ovqat hazm qilish

Ovqat hazm qilish jarayonlari.

Oshqozon 4 qismdan: kirish, tub, tana va pilorik (chiqish) qismlardan iborat. Katta odamlarda oshqozon hajmi o'rtacha 2,5 litr bo'ladi. Oshqozonning ichki shilliq pardasi ostida juda ko'p - 14 millionga yaqin mayda bezlar bo'lib, bu bezlardan bir kunda 2-2,5 litr me'da shirasi ya'ni ular pepsin, lipaza fermentlarini va xlorid kislota ajratadi.

Pepsin ovqat tarkibidagi oqsillarni, lipoza yog'larni parchalaydi. Xlorid kislota esa pepsin fermentining faolligini oshiradi.

Me'da shirasi tarkibidagi lipaza fermenti faqat emulgatsiyalangan yog'larnigina glitsirin va yog' kislotalarigacha parchalaydi.

Oshqozona uglevodlarni parchalovchi fermentlar yo'q. Shuning uchun uglevodlarlar oshqozondan 2-3 soatda, oqsilli ovqatlar 3-4 soatda, yog'li ovqatlar 5-6 soatda chiqib ketadi.

Oshqozondan chiqish yo'li xalqali mushaklardan iborat sfinter bilan berk

bo'ladi. Qancha ovqat massasi me'da shirasini o'ziga shimib olsa sfinkter bo'shashib, chiqish yo'li ochiladi va ovqat o'n ikki barmoq ichakka o'tadi.

O'n ikki barmoq ichak ingichka ichakning boshlang'ich qismi bo'lib, uzunligi o'n ikkita barmoq eniga teng (25-30 sm) bo'ladi. Shuning uchun o'n ikki barmoq ichak deb ataladi. Bu ichak oshqozon osti bezidan shira va jigarning o't suyuqligi quyilib turadi.

Oshqozon osti bezi suyuqligining tarkibida oqsilni parchalaydigan tripsin, yog'larni parchalaydigan lipaza va uglevodlarni parchalaydigan amilaza fermentlari bo'ladi. Bundan tashqari oshqozon osti bezida insulin garmonini ishlab chiqaruvchi hujayra bo'lib u qonga o'tadi. Bu garmon uglevod almashinuvini boshqaradi.

Insulin ishlab chiqarilmasa qand kasalligini keltirib chiqaradi. Katta yoshdagi odamlarda bir sutkada 12 barmoq ichakka 0,5-0,8 litr oshqozon osti bezi suyuqligi quyiladi.

Jigar ko'p suyuqligini ishlab chiqaradi, bu suyuqlik o't pufagida to'planib maxsus kanalcha orqali o'n ikki barmoq ichakka quyilib turadi.

O't suyuqligi-bu tilla rang sariq suyuqlik bo'lib, bir sutkada 0,5-1,2 litrgacha ishlatiladi. Uning tarkibida 97,5 % suv, o't kislotasi, pigmentlar va xolesterin bo'ladi. O't suyuqligi ishlab chirig'i, sut, non, kletchatka, magniy tuzi, issiq taom oshiradi. Sovuq qotish, och qolish, organizmga kislorod etishmasligi esa to'xtatadi.

O't suyuqligi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Oshqozon osti bezidan ajralgan lipaza fermentining faolligini 20 baravar oshiradi.

2. O't suyuqligi yog' kislotalarini o'ziga so'rib, suvda eruvchi birikmalar osil qiladi.

3. Ovqat tarkibidagi barcha yog'larni emulsiya holatiga keltirib, lipaza fermenti orqali oxirgi moddalargacha parchalanishini ta'minlaydi.

4. O't suyuqligi ichaklarda chirish jarayonini keltirib chiqaradigan bakteriyalarni yo'qotadi.

5. O't suyuqligi me'da shirasini ajralishini va ichak devorlarining qisqarish faoliyatini kuchaytiradi.

Jigarning muhim vazifalaridan biri qonni zaharli moddalardan tozalaydi. Oshqozon, ichaklardan so'rilgan barcha qon qopqa vena orqali jigarga boradi. Bu qon tarkibida zaharli moddalar bo'lishi mumkin. Bu zaharli moddalar jigan hujayralarida zararsizlantiriladi.

Ingichka va yo'g'on ichakda ovqat hazm bo'lishi.

Ingichka ichak o'n ikki barmoq ichakning davomi bo'lib, uning uzunligi 5-6 m kengligi 2-2,5 sm bo'ladi. Devori uzunasiga va aylanasiga joylashgan silliq muskullardan tashkil topgan.

Bu muskullar ichakning mayatniksimon va to'liqinsimon (peristaltik)

xarakterini ta'minlaydi. Ichakning mayatniksimon harakati natijasida ovqat moddalari ichak shirasi bilan aralashadi. Bu ovqatning ichakda parchalanib hazm bo'lishini ta'minlaydi. Ichakning to'liqsimon harakati ovqat moddalarini ichak bo'ylab yuqori yuqoridan pastga tomon siljishini ta'minlaydi.



4-rasm. Ichakda ovqat hazm bo'lishi.

Ingichka ichak shilliq qavat ostida juda ko'p mayda bezchalar joylashgan. Ulardan ajralgan shira ta'sirida ovqat eng oxirgi moddalargacha parchalanib tugatiladi. Ichak shilliq qavati yuzasida mayda so'rg'ichlar-vorsinkalar bor. Ular juda murakkab tuzilishga ega bo'lib, qon va limfa tomirlari bilan yaxshi ta'minlangan. Vorsinkalar orqali ovqat moddalari qon va limfa tomirlariga so'riladi.

Ingichka ichak ovqatning hazm bo'lishi 6-8 soat davom etadi. Yo'g'on ichak ingichka ichakning davomi bo'lib, uning uzunligi katta odamda o'rtacha 1,5 m. u qorin bo'shlig'ida ingichka ichakning atrofini o'rab turadi.

Yo'g'on ichak ichki shilliq pardasi ostida joylashgan bez suyuqlikdagi fermentlar kam, shilliq modda esa ko'p bo'ladi. Bu shilliq modda ovqat qoldig'i bilan aralashib, uni silliqlashtiradi va ichakning yuqori qismidan pastki qismiga o'tishini qulaylashtiradi.

Yo'g'on ichak shilliq pardasida vorsinkalar bo'lmaydi. Yo'g'on ichak devoridagi musul qavatning harakati ingichka ichakdagiga nisbatan sekin bo'ladi. Shu sababli ovqat qoldig'i unda uzoq vaqt (18-20 soat) saqlanadi.

Yo'g'on ichakda asosan suv, mineral tuzlar so'riladi. Bu ichakda ovqat qoldig'i quyulib, axlat ko'rinishida to'g'ri ichakka o'tadi va undan tashqariga chiqariladi.

Nazorat savollari

1. Ovqat hazm qilishda qanday fizik va kimyoviy o'zgarishlar sodir bo'ladi?
2. Ovqat hazm qilish sistemasi qanday a'zolardan iborat?
3. Og'iz bo'shlig'ida ovqat qanday hazm bo'ladi?
4. Oshqozonda ovqat qanday hazm bo'ladi?
5. Ovqat hazm qilishda oshqozon osti bezi qanday vazivani bajaradi?
6. O't suyuqligi qanday vazifalarni bajaradi?

7. Ovqat hazm qilishda jigarning ahamiyati qanday?
8. Ingichka ichakda ovqat qanday hazm bo'ladi?
9. Yo'g'on ichak qanday funksiyalarni bajaradi?

Asosiy adabiyotlar

1. Axrarov U.B., Umidova M.SH., Axrarov SH.U. Ovqatlanish mahsulotlarini tayorlash texnologiyasi. T.: "Yangi nashr" nashriyoti, 2017 y. 520 b.
2. Ламажапова Г.П. Физиология питания. Учебное пособие. – М.: Мир науки, 2016.- 146 стр.
3. O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati: qisqacha tarixi; rivojlanish istiqbollari; muammolari", Darslik, prof. Turobjonov S.M. tahriri ostida, T.: "Fan va texnologiya", 2014 y, 460 b.
4. Maksumova M.A., Mo'minova M.N. Ovqatlanish fiziologiyasi va asoslari, sanitariya va gigiena. O'quv qo'llanma., T.: "Voris- nashriyot", 2012.- 120b.
5. Лебедев В.Г. Физиология питания: Учебное пособие., Ярославль: ЯрГУ, -2009.- 112 стр.
6. Амбросьева Е.Д., Физиология питания. Учебник. Москва: КНОРУС, 2018.-306стр.
7. Kuriyazova S.M. Ovqatlanish gigienasi. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2012. -380 b.
8. Djaxongirova G.Z., Maxmudova D.X. Non va non mahsulotlari ekspertizasi. – Monografiya, T.: Jild-print, 2019.-240b.

2-MA'RUZA: OVQATLANISHNING ENERGETIK YO'QOTILISHI VA ENERGETIK QIYMATI.

Reja:

1. Oziq - ovqat mahsulotlarining iste'mol qiymati va kimyoviy tarkibi
2. Ozuqaviy moddalar va ularning ahamiyati
3. Oqsil va uning ko'rsatkichlari.
4. Yog'lar, ularning oziqaviy va biologik qiymati

Tayanch so'z va iboralar: *Kalloriya, iste'mol qiymati, spirtli va spirtsiz ichimliklar, organik moddalar, anorganik moddalar, dorivor va ziravorlar, organizm hujayralarini tiklash, gyutenin, prolamin, globulin, albumin, oqsillari ozuqaviy moddalar, immunitet pasayishi, infeksiyon kasalliklar.*

Darsning o'quv maqsadi: *Inson tanasining energiya almashinuvi. Tananing energiya yo'qotilishi va ularni aniqlash. KFA (jismoniy faoliyat koeffitsienti) to'g'risida tushuncha. Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol qiymatini o'rganish.*

Oziq - ovqat mahsulotlarining iste'mol qiymati

Oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibida kishi organizmi uchun zarur bo'lgan hamma moddalar mavjud. Bu moddalar turli mahsulotlarda turlicha miqdorda uchraydi.

Oziq-ovqat mahsulotlari issiqlik manba'idir. Har qanday organizm o'z hayotida mehnat qobiliyatiga yarasha energiya sarflaydi va bu energiya doimiy ravishda to'ldirib turilishi lozim.

Oziq-ovqat mahsulotlarining chiqaradigan energiyasi uning tarkibi dagi oqsil, yog' va uglevodlarning miqdoriga bog'liq. Bu moddalar organizmda oksidlanishi (o'zlashishi) natijasida o'zidan ma'lum darajada issiqlik energiyasini chiqaradi. Yuqorida qayd etgandek, 1 gramm oqsil va uglevodlar - 4,1 kilokalloriya, 1 gramm yog' - 9,3 kkaloriya issiqlik chiqaradi. Demak, oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibida qanchalik oqsil, yog' va uglevodlari ko'p bo'lsa, shunchalik ularning oziqlik qiymati yuqori bo'ladi.

Organizm hujayralarini tiklash va yangi hujayra hosil qilish uchun asosan oqsil moddalar kerak bo'ladi. Tirik organizmda doimo hujayralar parchalanib, yangilari paydo bo'ladi. Shuning uchun organizm faoliyatini doimo bir tekis olib borish uchun uni uzluksiz oqsil moddalar bilan ta'minlab turish zarur.

Oziq-ovqat mahsulotlarining ahamiyatini kishi ehtiyojlarini qondirishi darajasiga qarab uchga bo'lish mumkin.

Birinchidan ular to'yimlilik xususiyatlariga ega, ya'ni tarkibida oqsil, yog' va uglevod moddalari bor bo'lishi, bu moddalarning miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik mahsulotlarning oziqlik qiymati yuqori bo'ladi. Ikkinchidan maza beruvchi ahamiyatga ega, ko'pchilik mahsulotlarning tarkibida suv, oziq-ovqat kislotalari, glyukozitlar, efir moylari, xushbuy oshlovchi moddalar, tuz va shu kabi o'tkir maza va hidli moddalar bor. Bu moddalar yetarli to'yimli bo'lmasa ham yoqimli, o'tkir maza va hidga ega bo'lganligi tufayli ko'p miqdorda iste'mol qilinadi. Bu tur mahsulotlarga - piyoz, pomidor, bodring, garmdori, choy, kofe, tamaki, tuzlangan va achitilgan mahsulotlar, spirtli va spirtsiz ichimliklar, dorivor va ziravorlar, ho'l sabzavot va mevalar kiradi. Uchinchidan shifobaxsh ahamiyatga ega ayrim oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida kishi organizmi uchun juda zarur bo'lgan moddalar - vitaminlar, kislotalar, glyukoza va boshqa davolovchi, parhez moddalar bor. Bu tur mahsulotga sut, qatiq mahsulotlari, asal, ho'l sabzavot va mevalar, ayniqsa limon, uzum, qulupnay, tarvuz, mineral suvlar va boshqa mahsulotlar kiradi.

Oziq - ovqat mahsulotlarning kimyoviy tarkibi

Ba'zi oziq-ovqat mahsulotlari (qand, yog', tuz)ning tarkibida faqat bir xil moddalar bo'ladi, ba'zilari esa (go'sht, tuxum, shirinliklar) bir necha xil moddalardan tashkil topadi. Sut, sabzavot, meva va don mahsulotlari tarkibida kishi organizmi uchun zarur bo'lgan hamma moddalar va elementlar mavjud.

Hamma oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy tarkibiy qismlarini **ikki** turga – **organik va anorganik** moddalarga bo‘lish mumkin.

Organik moddalarga - oqsil, yog‘, uglevodlar, vitaminlar, oziq-ovqat kislotalari, fermentlar, rang beruvchi va xushbo‘y moddalar kiradi.

Anorganik moddalarga - suv va mineral moddalar kiradi.



5-rasm. Oziq-ovqat mahsulotlari.

Ozuqaviy moddalar va ularning ahamiyati

Odam tanasi oqsil (19,6 %), yog‘ (14,7 %), uglevod (1 %), mineral moddalar (4,9 %) va suvdan (58,8 %) tashkil topgandir. Ular organizmni issiqlik bilan taminlab, barcha hayotiy jarayonlarini, shu jumladan jismoniy va aqliy mehnatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan quvvatni hosil qilib, doimiy ravishda yuqoridagi moddalarni sarf qiladi.

Shu bilan birga odam tanasidagi xujayra va to‘qimalarni hosil bo‘lishi hamda sarf etilgan quvvatni ovqat bilan birga organizmga kirgan moddalar hisobiga qayta tiklanishi ham amalga oshadi. Bunday moddalar qatoriga oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar, suv va boshqalar kirib, ularni ozuqaviy moddalar deb ataladi. Demak, oziq - ovqat mahsulotlari inson organizmi uchun quvvat va plastik (qurilish) material bo‘lib hisoblanadi. Quyida biz ozuqaviy moddalarning qisqacha tavsifi bilan tanishib chiqamiz.

Oqsil va uning ko‘rsatkichlari.

Oqsillar hayot uchun zarur bo‘lgan moddalar qatoriga qiradi, ularsiz organizmning yashashi, o‘shishi va rivojlanishi mumkin emas. Odam hayot faoliyati jarayonida xujayralar tarkibidagi oqsillar parchalanib boradi va yangilanib turadi. Ana shu jarayonlarni quvvatlab turish uchun organizmga har kuni ovqat bilan to‘la qimmatli oqsil kirib turishi zarur bo‘ladi. Oqsil xujayralar yadrosi bilan sitoplazmasi tarkibiga kiradi.

Oqsil moddalari ikkiga - o‘simlik oqsillari va hayvon oqsillariga bo‘linadi. O‘simlik oqsillari mevada va uning mag‘izlarida chuqur sintez orqali hosil bo‘ladi. Bunga dukkakli, boshqoli donlarda va ayrim sabzavot va mevalarda uchraydigan oqsillar kiradi. Ayniqsa, dukkakli donlar oqsilga boy bo‘ladi. Ularning tarkibida 30-36

% gacha oqsil moddasi bo'ladi. O'simlik oqsillari nisbatan organizmda to'liq o'zlashadi. Hayvon oqsillari hayvon organizmida oziq orqali o'tgan azot moddalari hisobiga hosil bo'ladi. Hayvon oqsillari hayvon organizmida ma'lum darajada qayta ishlashganligi tufayli o'zlashish darajasi va to'yimli xususiyati ancha yuqori bo'ladi. Masalan, sut oqsilining o'zlashish darajasi - 97 - 98 % gacha bo'ladi. Tuxumda 12, go'shtda - 17-20, sutda 3 - 4% oqsil bor.

Tuzilish tarkibiga ko'ra oqsillar oddiy va murakkab oqsillarga bo'linadilar. Faqat aminokislotalardan tashkil topganlari oddiy oqsillardir. Ularni proteinlar deb yuritiladi.

Oddiy oqsillar to'yimli bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlarida ko'proq uchraydilar. Oddiy oqsillar erish xususiyatlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Suvda eruvchi oqsillarga albuminlar kiradi. Albumin oqsillari suvda yaxshi eriydi, shuning uchun inson organizmida eng ko'p va to'liq o'zlashadi. Albumin oqsillari sutda, tuxumda, go'shtda va qisman bug'doy va grechixada uchraydi.

Globulinlar suvda erimaydi, 10 % li nomokobda eriydi. u boshqoqli donlarda, go'sht va sut mahsulotlarida uchraydi.

Prolaminlar 60-80 % li etil spirtining eritmasida eriydi. Bular bug'doy, javdar, arpa va jo'xorilarda uchraydigan oqsillar dir.

Gyuteninlar kuchsiz ishqor eritmalarida eriydigan oqsillar, bu oqsillar ham asosan boshqoqli donlarda ko'p uchraydi.

Oqsillar tarkibi jihatidan murakkab tuzilishga ega bo'lgan organik moddalar bo'lib, asosan aminokislotalardan tuzilganidir. Aminokislotalar esa o'z navbatida uglevod (50-55 %), vodorod (6-7 %), kislorod (19-24 %), azot (15-19 %), shuningdek fosfor, oltingugurt, temir va boshqa elementlardan tashkil topgandir.

Oqsilli moddalarning oqsil bo'lmagan moddalar bilan birikkan holdagisi murakkab oqsillar hisoblanadi. Bu oqsillar proteidlar deb ataladi. Oqsil bo'lmagan moddasining turiga qarab, murakkab oqsillar bir necha xil bo'ladi. Eng muhimlariga qonda uchraydigan gemoglobin oqsili, don kurtagida va grechixida uchraydigan nukleproteidlar va boshqalar kiradi. Murakkab oqsillar oziq-ovqat mahsulotlarida juda kam miqdorda bo'ladi.

Oqsillar yog' xujayralarining asosini tashkil etadi va inson xujayra va to'qimasini qurilishida bosh material hisoblanadi. Ular qon va limfa tarkibiga kiradi, shuningdek, organizmdagi almashinish arayonini rostlovchi fermentlar. Garmon va murakkab oqsillar (nukleproidlar) asosi hisoblanadi. Bundan tashqari, oqsil organizmdagi mikroblar va toksinlar bilan kurashuvchi antitela uchun material bo'lib xizmat qiladi.

Aminokislotalar ingichka ichaklardan qonga so'riladi, qon esa ularni tananing barcha organlariga olib boradi. Aminokislotalar hujayralarning tashqi membranasini (pardasi) orqali ularga kiradi. Har bir hujayrada uning o'ziga xos oqsillar hosil bo'ladi.

Keyingi yillarda aminokislotalarning molekularidan oqsillar tuzilish protsesslarida DNK va RNK nuklein kislotalar asosiy rol o'ynashi aniqlangan.

Sutkalik ovqatlanish ratsionidan oqsilni boshqa ovqat tashkil qiluvchi qism bilan almashtirish mumkin emas (yog', uglevod, mineral moddalar).

Inson organizmdagi oqsil hosil qiluvchi birdan - bir manba ovqat bilan keluvchi hayvon va o'simlik oqsillari hisoblanadi.

Ovqat hazm qilish jarayonida oqsillar soddarroq kimyoviy birikmalarga parchalanadi, ular yana oqsillar hosil bo'ladi, lekin inson organizmi xujayra va to'qimalarini hosil bo'lishiga zarur boshqa strukturada. O'zining kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymati oqsillarda bir xil emas, oksilning ozuqaviy qiymati undagi aminokislotalarni miqdori va turiga bog'liq. Hozirgi paytga kelib oqsillar tarkibiga kiruvchi 20 aminokislota ma'lum. Aminokislotalar o'rnini almashtirsa bo'ladigan va almashtirsa bo'lmaydiganlarga ajraladi. O'rnini almashtirilsa bo'lmaydigan aminokislotalar inson organizmida hosil bo'lmaydi (sintezlanmaydi) va faqat ovqat bilan keladi. O'rnini bosilishi mumkin bo'lgan aminokislotalar inson organizmida modda almashinishi jarayonida hosil bo'lishi mumkin. Ammo ularni hosil bo'lishi sekin o'tadi va unga bo'lgan talab to'liq ta'minlaymaydi, shuning uchun o'rnini bosa bo'ladigan aminokislotalar ovqat bilan ma'lum miqdorda qabul qilinishi lozim.

Ayrim o'rnini bosilmaydigan aminokislotalar plastik jarayonlar bilan bir qatorda inson organizmidagi hayot jarayonlarini rostdashda katta ahamiyatga ega. Masalan, triptofan almashinish va o'sishga katta ta'sir ko'rsatadi. Lizin qonlantirish jarayoni bilan yaqin bog'liklikda. Metionin jigarni normal ishlashiga bog'liq.

O'rnini bosa bo'ladigan aminokislota tarkibi oqsillar, oqsil -larni sintez qilishga etarli miqdorda va inson organizmidagi funksiyalarni rostlovchilarini to'liq qiymatli deyiladi. Organizmga zarurmas bo'lgan aminokislotali tarkibi yoki kam miqdordagi tarkiblari to'liqmas qiymatli deyiladi. Oqsil manbai bo'lib hayvonat va o'simlik kelib chiquvchi mahsulotlar hisoblanadi. Eng oqsilga boy hayvon mahsulotlariga, masalan, go'sht (mol, cho'chqa, qo'y), parranda, baliq, pishloq, suzma, sut, tuxum. Oksilni muhim manbai bo'lib, biologik qiymat jihatidan biroz pastroq bo'lgan mahsulotlarga - o'simliklardan kelib chikuvchi mahsulotlar - masalan, kartoshka, non, yorma, dukkaklilar hisoblana di.

Insonni 1 sutkadagi oqsilga bo'lgan talabi 1 dan 1,5 g chegaragacha 1 kg vaznga qarab, jismoniy zo'riqishiga, yoshga va jinsiga bog'liq. Hayvon va o'simliklardan oqsillarni ratsiondagi to'g'ri muvozanatligi katta ahamiyatga ega.

Umumiy oqsillarga talab sutkasiga 80 - 100 g chegarasida, undan 50 % i hayvonlardan olingan mahsulotlardan to'g'ri keladi. Inson organizmi oqsillar hisobiga taxminan 12 - 15 % sutkalik ratsionning kaloriyasini (320 - 400 kkal) oladi. Issiq iqlim zonalarida insonni oqsillarga talabi oshadi, chunki organizmda bu sharoitda oqsillar parchalanishi, o'rtacha iqlimdagiga nisbatan oshadi.

Organizmni nafaqat zarur miqdordagi oqsil bilan ta'minlab qolmay, balki oqsillarni boshqa ovqat moddalari (uglevodlar, yog'lar, vitaminlar) bilan tasdiqlangan proporsiyasini ham saqlash kerak. Organizm tarkibida uglevodlar, yog'lar va vitaminlarni kam miqdorda yoki butunlay bo'lmasligi oqsillarni jadal sur'atda parchalani-shiga olib keladi, buning natijasida unga talab oshib boradi.

Organizmدا oqsilni etishmasligi natijasida u o'z to'qima oqsilidan qisman foydalanadi, inson ozib, ko'pgina kasalliklar yuzaga keladi: jigar va oshqozon osti bezida o'zgarishlar hosil bo'ladi, kamqonlik, terini shamollash jarayonlari, infeksiyalarga qarshi kurash susayadi va boshqalar.

Inson organizmida oqsilni ko'p miqdorda kelishi, oqsilni chala parchalangan mahsulotlari hosil bo'lib, u organizmdagi almashinish jarayoniga olib keladi. Ovqat bilan inson oladigan oqsilni hazm qilish darajasi, mahsulotga pazandalik ishlov berilishiga bog'liq. Go'sht, baliq, sabzavot va boshqa mahsulotlarga to'g'ri issiqlik ishlov berilganda, tarkibidagi oqsilni hazm qilishi oshadi. Qaynatib pishirilgan go'sht va baliq organizmدا qovurilganiga nisbatan tez hazm bo'ladi. Dag'al go'sht, o'zidagi -strukturada bog'lovchi to'qimalarni katta miqdorda tashkil qilgani uchun, qaynatib pishirilgandan keyin dimlab pishirgani maqsadga muvofiqdir, bunda u yaxshi yumshaydi va hazm qilishi oshadi. Maydalangan go'sht, baliq, sabzavotlar oqsilni yaxshi hazm qilishga yordam beradi, lekin shuni ko'zda tutish kerakki, oqsilli qismi suvda yaxshi eriydi, shuning uchun bu mahsulotlarni maydalangan holda yuvish mumkin emas va bu holda ularni suvda saqlash mumkin emas. Tuzlangan baliqni uzoq muddat bo'ktirish oqsilni qisman yo'qolishiga olib keladi, shuning uchun uni ortiqcha suvda bo'ktirishga yo'l qo'ymaslik kerak.

O'simlik va hayvon oqsili mahsulotlari, ya'ni, go'sht, baliq, kartoshka, sabzavotlar tez aynaydiganlardir. Go'sht va baliqni saqlash haroratini buzilishi, oqsillarni mog'orli parchalanishiga olib keladi, bunda nafaqat yoqimsiz hidli mahsulotlar (fenol, skatol, indol, oltingugurt vodorodi), balki zaharli moddalar (pitomoinlar) ham hosil bo'ladi

Oqsillar odam organizmida quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

1. Oqsillarning plastik funksiyasi. To'qima va a'zolarning barcha xujayralari oqsillardan tuzilgan. Qon, limfa, muskul tolalari, suyaklar, gormonlar va fermentlar tarkibida oqsil bo'ladi. Shuningdek, salomatlik uchun zararli bo'lgan mikroblar va ularni toksinlariga qarshi kurashuvchi antitelolar tarkibida ham oqsillar mavjud. O'sayotgan organizm uchun oqsilning plastik roli ayniqsa muhimdir. O'sish jarayonida xujayralar soni ko'payib boradi va bunda oqsillar asosiy material bo'lib xizmat qiladi.

2. Oqsillar moddalar almashinuvi jarayonini boshqarib boradigan regulyator bo'lib xizmat qiladi, qalqonsimon bez, gipofiz, meda osti bezi gormonlarining tarkibiga kiradi.

3. Oqsillar organizmda boshqa moddalar, jumladan vitaminlar, mineral tuzlarni meyorli almashinib turishi uchun zarur fanni bajaradi. Agar organizmda oqsil etishmas vitaminlar yaxshi o'zlashmaydi.

4. Organizm uchun oqsillarning energetik roli kamroq ahamiyatga ega, chunki sarflangan quvvatning atigi 14 - 15 % i ular hisobiga to'g'ri keladi. Energetik sarflarga ketadigan oqsillarni uglevodlar va yog'lar bilan almashtirsa bo'ladi, ammo organizmning plastik ehtiyojlari uchun kerakli oqsillarni boshqa hech qanday moddalar bilan almashtirib bo'lmaydi.

Odam organizmida oqsil etishmasligi turli xil jiddiy kamchiliklar: bolalarning o'sish va rivojlanishi susayadi, kattalarning esa jigarida jiddiy o'zgarishlar (yog' infiltratsiyasi) kuzatiladi. Organizmda uzoq vaqt oqsil etishmasligi hatto jigar sirroziga, ichki sekretsiya bezlari faoliyatining buzilishiga, qonning oqsil tarkibi o'zgarishiga, organizmning yuqumli kasalliklarga qarshiligi susayishiga, aqliy zaiflikka, ishlash qobiliyatining buzilishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek organizmda ortiqcha oqsil bo'lishi ham unda bir qator o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Jumladan bunda ferment sistemasining zo'riqishi, qonda moddalar almashinuvining buzilishi, mochevina, erkin aminokislotalar miqdorining ko'payib ketishiga sabab bo'ladi.

Organizm uchun zarur aminokislotalarning ko'pchiligi organizmda sintezlanadi, lekin 8 tasi sintezlanmaydi yoki etarlicha sintezlanmaydi. SHuning uchun ularni almashtirib bo'lmaydigan yoki hayot uchun muhim aminokislotalar deb ataladi. Bularga treptofan, lizin, metionin, fenilalanin, leysin, izoleysin, valin, treonin kiradi.

Hayvonlardan olinadigan (go'sht, baliq, tuxum, sut, sut mahsulotlari) mahsulotlar tarkibida almashinmaydigan aminokislotalar kompleksi ko'proq bo'ladi. Organizmga hayot uchun zarur aminokislotalarning bir yoki bir nechta etishmay qolsa oqsilning sintezlanish jarayoni ishdan chiqadi, boshqa aminokislotalar ham o'zlashtirilmay qoladi va oqsil etishmas-ligiga xos bo'lgan o'zgarishlar ro'y beradi.

Organizmda oqsillar hosil bo'lishi. Oqsillar organik birikmalar orasida alohida o'rin tutadi. Ular nihoyat darajada xilma - xil. Har bir o'simlik yoki hayvon turida, shuningdek odamda harkanday to'qima tarkibida tuzilishi bir xil bo'lmagan nihoyat darajada ko'p miqdordagi oqsil bor. Har xil organizmlardagi oqsillarning farqi shundan iboratki, taxminan 20 ta aminokislota bir-biri bilan birikib, tuzilishi har xil bo'lgan oqsil molekulari hosil qila oladi. Odam organizmida ovqat hazm qilish organlarida hosil bo'lgan parchalanish mahsulotlaridan oqsillar qanday qilib tuziladi?

Aminokislotalar ingichka ichaklardan qonga so'riladi, qon esa ularni tananing barcha organlariga olib boradi. Aminokislotalar hujayralarning tashqi membranasini (pardasi) orqali ularga kiradi. Har bir hujayrada uning o'ziga xos oqsillar hosil bo'ladi. Keyingi yillarda aminokislotalarning molekularidan oqsillar tuzilish protsesslarida DNK va RNK nuklein kislotalar asosiy rol o'ynashi aniqlangan.

Oqsil va uning ko'rsatkichlari. Oqsilning sifat ko'rsatkichi uning tarkibidagi almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarning qatna shishi va uning miqdori bilan belgilanadi.

Almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarning 1 kunlik ratsiondagi normasi: izoleysin-40 mg; leysin-70 mg; lizin-55 mg; meteonin +sis tin -35 mg; fenilalanin+tirozin-60 mg; treptofan -10 mg; treonin-40 mg; valin -50 mg.

Ovqat mahsulotlarining aminokislotalar bo'yicha sifati ideal oqsil tarkibidagi aminokislotalar bilan taqqoslangan xolda aniqlanadi va bu aniqlashni aminokislota ballini aniqlash orqali belgilanadi.

Aminokislota skori(balli)ni hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi: $AC = Ak_{pr} / Ak_{st} \cdot 100$,
bu erda AC - aminokislotalar skori(darajasi),%; AK_{pr} - tekshirilayotgan mahsulot oqsilining 1 g tarkibidagi har qanday muhim aminokislota miqdori, mg; Ak_{st} - FAO / VOZ shkalasi bo'yicha 100 g standart protein uchun g. dagi bir xil aminokislota miqdori.

Ideal oqsildagi har bir aminokislota miqdori standart hisoblanib, undagi har bir almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarning aminokislota darajasi 100 % deb qabul qilinadi.

Oqsilni biologik qiymatini limitlovchi aminokislota shu oqsildagi eng kichkina skorga ega bo'lgan aminokislota hisoblanadi. Istemol qilinadigan hamma mahsulotlar o'zining aminokislota tarkibi bo'yicha yuqori darajadagi biologik qiymatga ega bo'lgan oqsildan iborat bo'lmaydi. Hayvon mahsulotlari oqsili, jumladan, go'sht, sut, tuxum oqsili o'zining skori bo'yicha ideal oqsilga ko'proq yaqin turadi. O'simlik mahsulotlari oqsillari aminokislotalari o'zining skori bo'yicha anchagina limitlangan. Masalan, bug'doy oqsili ideal oqsildagi lizinga insbatan 50 % skorga ega. Dukkaklilar va kartoshka 60 % meteonin +sistinga ega. Shu sababli ham ratsionni tashkil etgan vaqtda limitlangan aminokislotalarni bir-birini to'ldiradigan holda kompleks hosil qilinadi. Hayvon va o'simlik mahsulotlari oqsillari organizmda bir xil darajada hazm bo'lmaydi. Masalan, sut va tuxum oqsili 96 % o'zlashtiriladi, go'sht va baliq oqsili 95 % o'zlashtiriladi.

Non oqsili 85 %, sabzavotlar 80 %, kartoshka va dukkaklilar unidan qilingan non 70 % o'zlashtiriladi. Ratsionda oqsil miqdorining etishmasligi ham, me'yorida yuqori darajada iste'mol qilinishi ham kasaliklarga olib keladi. Masalan, oqsil etishmagan holda tananing o'sishi sekinlashadi, aqli rivojlanish susayadi. Suyak shakillanishi, qonning shakillanishi, modda almashinish jarayoni buziladi. Immunitet pasayib, infeksiya kasalliklarga qarshi kurashish o'zlashtiriladi. Oqsil miqdori ko'p darajada iste'mol qilinsa jigar va buyrakda o'zgarish yuzaga keladi. Chunki a'zo tutgan modda ko'payib, jigar va buyrak ishini tezlatadi, Asab tizimini qo'zg'atadi. A va B₆ vitaminlari etishmasligi yuzaga keladi. Oqsil tarkibidagi nuklien kislotalarining

organizmda ko'payishi hisobiga modda almashinish oqibatidagi purin asoslari ko'payadi va natijada sustavdagi xaltachalarda, organlaridagi va to'qimalaridagi machevaya kislota to'planadi. Natijada bo'g'inlarning og'rishi, podogra, siydik tosh kasaliklari kelib chiqadi.

Shu sababli oqsil miqdorini me'yor ko'rsatgichiga qat'iy rioya qilish lozim. Voyaga yetgan erkak kishilar uchun oqsil miqdori bir kilogramm tana massasiga 1-1,5 gramm tavsiya etiladi. Taxminan bu 85 grammni tashkil etadi. Agar bu ko'rsatkichni ideal oqsil bilan solishtirsak, uning 60 grammiga to'g'ri keladi. Kundalik ratsionda oqsil o'zga moddalar bilan ma'lum nisbatta turishi kerak. Bir kunlik ratsionni 12%-i oqsil zimmasiga tushadi. Ushbu oqsilning 55%-ni hayvon mahsuloti oqsili tashkil etishi kerak.

Yog'lar, ularning oziqaviy va biologik qiymati

Yog'lar, yog' kislotalari va uch atomli spirt - glitserinning murakkab efirlaridir. Ovqatga ishlatiladigan yog' tarkibiga odatda to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalari mono, -di va triglitseridlar aralashmasi, fosfotidlar, xolesterin, yog'da eriydigan vitaminlar kiradi. Ularning organizmdagi roli turli - tumandir. Organizmga ovqat bilan birga kiradigan va organizmning o'zida hosil bo'ladigan yog'ning bir qismi teri osti kletchatkasida, ichki a'zolar atrofidagi biriktiruvchi to'qimalar, muskullar ostidagi yog' qatlamlarida to'planadi. Bu yog' organizmdagi issiqlikni idora etishda qatnashadi va ichki a'zolarini turli silkinishlarda lat eyishdan saqlaydi.

Yog'lar xo'jayra protoplazmasi tarkibiga kirib, organizm to'qimalarining tuzilishida ishtirok etadi. Protoplazma yog'lar almashinuvida hosil bo'lgan mahsulotlarning xujayraga o'tishini ta'minlaydi. Bu yog'lar biologik faol formalarni hosil qilish yo'li bilan oqsillarning fermentativ faolligini idora etadi.

Yog'lar ovqatga yaxshi ta'm beribgina qolmay, oqsil, uglevod, vitamin va mineral moddalarning o'zlashtirilishini ham engillash-tiradi. Yog'lar biologik faol moddalarini: fosfotidlar, to'yinmagan yog' kislotalari, vitaminlar va boshqalarni organizmga etkazib beradi.

Yog'larning biologik qiymati undagi-yog'da eruvchi vitaminlar A, E va D larning hamda, fosfatidlar, stearinlarning miqdori bilan belgilanadi.



6-rasm. Yog' mahsulotlari.

Fosfatidlar va stearinlar to'qima xujayralarining tarkibiga kirib, yog'lar almashinuvi va garmonlar ajralishida ishtirok etadi.

Yog'lar inson organizmida katta rol o'ynaydi. Ular organizmida ikki shaklda: turli to'qimalarni xo'jayralarida (strukturaviy yog' deb ataluvchi) yoki to'qimalardagi qatlam holida (zaxiraviy yoki rezerv yog'). strukturaviy yog' oqsil bilan birgalikda inson tanasi xujayralarni, to'qima va organlarini qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi.

Zahira yog'i teri ostida, qorin yuzasida, buyrak yaqinida yig'iladi. U inson organizmidagi issiqlikni ortiqcha yo'qolishini, qorin yuzasidagi va buyrak yaqinidagi yoki ingichka organlarni mexanik jarohatlanishidan saqlaydi. Bunlan tashqari, zahira yog' ortiqcha energetik sarflar va uglevodlarni to'liqmas kelishida inson tomonidan ushbu sarflarni o'rini to'ldirish uchun xarakat qilinadi. Inson organizmidagi zahira yog' ortiqcha ovqat hisobiga emas, balki ratsiondagi ortiqcha uglevod va qisman oqsil hisobiga yig'ilishi mumkin.

Yog'lar uch atomli spirt efirlari birikmasini tashkil etadi, insonni hazm qilish traktida yog'lar yog'li kislota va glitseringa parchalanadi, u keyinchalik organizm tomonidan yangi strukturali yog'larni tashkil bo'lishiga ishlatiladi.

Yog'larni hosil qilish uchun inson organizmiga yog'li kislotalarni ikki turi to'yingan va to'yinmaganlari talab etiladi. To'yingan yog'lar kislotalarga stearin, kalmitin, moyli va boshqalar kiradi. Ular hayvonlardan olinadigan yog'lar tarkibida bo'ladi (mol va cho'chqa yog'i, shpik, mol yog'ida). To'yinmagan yog'lar kislotalari ichida linelov, lineolenilin, olein va araxidon ahamiyatlidir. Inson organizmida olein kislotalari sintezlanadi, linolen kislota esa faol araxidon kislotasiga o'tadi. Boshqa to'yinmagan yog' kislotalari organizmida sintezlanmaydi. To'yinmagan yog' kislotalarida asosan o'simlik yog'larida (kunga boqar, paxta, makkajo'xori, soya va boshqalarda). Shuning uchun ovqat ratsionida albatta hayvon yog'lari va o'simlik yoglari bo'lishi shart.

Yog'lar ozuqaviylik qiymati ulardagi yog'li kislotalarni va ularni hazm qilishliligiga mos keluvchi yog'lar. O'z navbatida erish temperaturasiga va yog'ni parchalanishliligiga bog'liq. Past haroratda eriydigan yog'lar organizmida oson va to'liq hazm bo'ladi. Yog'ni erish harorati undagi to'yinmagan yog' kislotalariga bog'liq; ular yog'da qancha ko'p bo'lsa, erish harorati shuncha past bo'ladi. Qanchalik yog' mahsulotda parchalangan bo'lsa va uni yuzasi katta bo'lsa, o'sha organizmida yaxshi hazm bo'ladi. Bunday yog'lar sutda, slivkada, smetana, sariyog' tarkibida bo'ladi.

Organizmning yog'larga bo'lgan kunlik ehtiyoji 1,4 - 2,2 gramm, chegarasida 1 kg vaznga nisbatan bo'lib, o'rtacha og'irlikdagi odamda 63 - 158 gr.ni tashkil etadi. Shu miqdordan 70% hayvon yog'i, 30% esa o'simlik yog'ini tashkil etishi kerak. Yog'lar ulushiga taxminan sutkalik ratsionning 26% to'g'ri kelishi kerak (720-900 kkal).

Yog'lar (lipidlar)

Organik moddalar ichida eng yuqori kolloriyaga ega bo'lgan moddalar bo'lib, 1 g yog' 9 kkal energiya beradi. Yog'lar faqatgina energiya manbai bo'lib qolmay, ular hujayra strukturasi zaruriy komponentlaridan biridir. Ayniqsa, hujayra membranasi asosiy qismini yog' tashkil qiladi. Yog'lar hujayrada fiziologik va biokimyoviy funksiyalarni bajaradi. Yog'lar organizm uchun vitaminlar va turli xil bioaktiv moddalar manbai. Yog'lar organizmga turli xil nutrientlarni surilishini ta'minlaydi. Yog'lar o'simlik va hayvon mahsuloti yog'lariga bo'linadi. Yog' tarkibidagi yog' kislotalari katta ahamiyatga ega. Yog' kislotalari va glitserin yog' tarkibidagi triglitseridlarni tashkil qiladi. Undan tashqari yog' tarkibida lipid moddalar bor. Unga fosfolipidlar, steorinlar va o'zga lipid moddalar kiradi. Yog' kislotalari 2 ga bo'linadi: to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalari.

To'yingan yog' kislotalari palmetin, steorin, meristin va boshqalar. Asosan hayvon yog'ida uchraydi, ularning erish temperaturasi aniqlaydi. Ularning qattiqligiga ta'sir ko'satadi va bu yog' kislotalari energiya manbai sifatida foydalaniladi. Ratsion tarkibida to'yingan yog' kislotalarining ko'p bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Chunki, ular ko'paygan holda yog' almashinuvi o'zgaradi, qondagi xolestirin moddasi o'zgaradi, ateroskleroza kasalligi kuchayadi, yog' bosish kasalligi yuzaga keladi. Tosh yig'ilishi kasalligi yuzaga keladi.

To'yinmagan yog' kislotalari 2 ga bo'linadi: mono va poli to'yinmagan yog' kislotalari. Mono to'yinmagan yog' kislotasiga misol qilib, olien kislotasini ko'rsatish mumkin, u zaytun yog'ining tarkibida 69% ni, margarinda 43-47% ni va saryog'da 23% ni tashkil etadi.

To'yinmagan yog' kislotalarining eng muhimlari lenol, lenolen va araxidon kislotalaridir. Lenol yog' kislota almashtirib bo'lmaydigan yog' kislotasidir. Chunki u organizmda sintezlanmaydi. To'yinmagan yog' kislota etishmasa, organizm o'sishdan to'xtaydi, teri kasallanadi, kapillyarlarning o'tkazishi o'zgaradi va turli patologik kasalliklar yuzaga keladi. To'yinmagan yog' kislotalari organizmda garmonlarni sintezlanishiga asosiy vosita vazifasini bajaradi.

To'yinmagan yog' kislotalari ichida eng katta biologik aktivlikka ega bo'lgan yog' kislota araxidon kislotasidir. Araxidon kislota organizmda vitamin B₆ ning ishtirokida lenol yog' kislotasidan hosil bo'ladi. Lenol yog' kislota organizmda yana bir qancha to'yinmagan yog' kislotalarini sintezlanishini ta'minlaydi. Lenol yog' kislota asosan pista yog'ining tarkibida uchraydi (60%). Araxidon yog' kislota ovqat mahsulotlarining tarkibida juda kam miqdorda tashkil topgan. Masalan, miyada 0,5% , tuxumda 0,1% , cho'chqa jigarida 0,1% , yurakda 0,2% .

To'yinmagan yog' kislotalarini organizm uchun sutkadagi miqdori quyidagicha: lenol kislota 10 g , minimal miqdori 2-6 g.

Odatda, to'yinmagan yog' kislotalarining miqdori lenol yog' kislota

nisbatan hisoblanib belgilanadi. To‘yinmagan yog‘ kislotalarini 1 sutkalik miqdori lenol kislotasiga nisbatan qayta hisoblanganda sutkalik kolloriyani 4-6% ini tashkil qilishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Oqsillarning oziqaviy va biologik qiymati qanday aniqlanadi?
2. Yog‘larning oziqaviy va biologik qiymati qanday aniqlanadi?
3. Oqsillarning plastik funksiyasiga nimalar kiradi?
4. Organizmda oqsillar qanday hosil bo‘ladi?

Asosiy adabiyotlar

1. Axrarov U.B., Umidova M.SH., Axrarov SH.U. Ovqatlanish mahsulotlarini tayorlash texnologiyasi. T.: “Yangi nashr” nashriyoti, 2017 y. 520 b.
2. Ламажапова Г.П. Физиология питания. Учебное пособие. – М.: Мир науки, 2016.- 146 стр.
3. O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati: qisqacha tarixi; rivojlanish istiqbollari; muammolari”, Darslik, prof. Turobjonov S.M. tahriri ostida, T.: “Fan va texnologiya”, 2014 y, 460 b.
4. Maksumova M.A., Mo‘minova M.N. Ovqatlanish fiziologiyasi va asoslari, sanitariya va gigiena. O‘quv qo‘llanma., T.: “Voris- nashriyot”, 2012.- 120b.
5. Лебедев В.Г. Физиология питания: Учебное пособие., Ярославль: ЯрГУ,-2009.- 112 стр.
6. Амбросьева Е.Д., Физиология питания. Учебник. Москва: КНОРУС, 2018.-306стр.
7. Kuriyazova S.M. Ovqatlanish gigienasi. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2012. -380 b.
8. Djaxongirova G.Z., Maxmudova D.X. Non va non mahsulotlari ekspertizasi. – Monografiya, T.: Jild-print, 2019.-240b.

3-MA’RUZA: MAKRONUTRIENTLAR VA MIKRONUTRIENTLAR

Reja:

1. Oqsillar va ularning ovqatlanishdagi o‘rni.
2. Yog‘lar va ularning ovqatlanishdagi o‘rni.
3. Uglevodlar va ularning ovqatlanishdagi o‘rni.
4. Suv va mineral tuzlar.
5. Vitaminlar.

Tayanch so‘z va iboralar: *Oqsil, to‘yinmagan yog‘ kislotalari, almashtirilmaydigan aminokislotalar, hazm bo‘lish, almashtirilmaydigan*

aminokislotalar nisbati, gistidin, yig'ma yaratilgan mahsulot, yig'ma ratsion, biologik qiymat, asosiy ovqat moddalari formulasi, almashinmaydigan aminokislotalarning ideal formulasi, organizmda oqsil almashinuvi, tuxum, ona suti, aminokislotalarning bir kunlik me'yor, organizmni o'sishi, aminokislotalar antogonizmi, vitamin almashinuvi, ammoniy tuzlari, detoksikasiya.

Darsning o'quv maqsadi: *Oqsillar va ularning ovqatlanishdagi ahamiyati. Yog'lar va ularning ovqatlanishdagi ahamiyati. Uglevodlar va ularning ovqatlanishdagi ahamiyati. Suvning fiziologik roli. Vitaminlarning ovqatlanishdagi rolini o'rganish.*

Oqsillar va ularning ovqatlanishdagi o'rni.

Oqsillar 20 ta turli aminokislotalardan tashkil topgan murakkab moddadir. Odatda oddiy va murakkab oqsillar tafovut etiladi. Oddiy oqsillar faqat aminokislotalardan tuzilgan bo'lsa, murakkab oqsillar tarkibida aminokislotalardan boshqa yog'lar, uglevodlar va nukleinlar bo'ladi: Aminokislotalar almashtirib bo'lmaydigan va almashtirsa bo'ladigan gruppalardan iborat. Almashtirib bo'lmaydigan o'nta aminokislota (arginin, leysin, lizin, triptofan va h.k.) organizmda sintezlanmaydi. Shuning uchun bunday aminokislotalar ovqat tarkibida bo'lishi shart. Almashtirsa bo'ladigan o'nta aminokislotalar (glikalol, alanin, sistein va h.k.) esa organizmda sintezlanishi mumkin.

Organizmda barcha aminokislotalar muayyan va kerakli miqdorda bo'lishi lozim. Organizmda aminokislotalardan biri yetishmay qolsa, unda muayyan oqsil sintezlanmay organizm halok bo'ladi. Shuning uchun organizmga yetishmaydigan aminokislotalar ovqatga qo'shib iste'mol qilinsa, organizm normal holda o'saveradi. Aminokislotalarga boy oqsillar go'sht, tuxum va sutda bo'lib, o'simliklar tarkibida oqsillar kamroq bo'ladi. Oqsillar hujayralarning tarkibiy qismi bo'lib, odatda ulardagi kimyoviy reaksiyalar tezlashishida muhim vazifani bajaradi, organizmda esa ko'pchilik funksiyalarni ta'minlashda aktiv qatnashadi.

Jumladan, gemoglobin oqsili, O_2 va SO_2 larni tashisa, qonni ivitadi. Nukleoproteidlar irsiy belgilarning nasldan-naslga o'tishida qatnashadi.

Bir kecha-kunduz ovqat iste'mol qilmagan odamda o'rtacha 20-23 g oqsil parchalanib, undan o'rtacha 3,7 g azot ajraladi. Oqsilli ovqat iste'mol qiladigan odamlarda esa azot miqdori bir muncha oshiq (100 g oqsilda 16 g azot) bo'ladi. Oqsil yog'lar va uglevodlarga o'xshab organizmda zapas bo'lib to'planmaydi, balki qancha oqsil organizmga kirs, shuncha parchalanadi, o'zlashtirilmay qolgan oqsillar qismi esa axlat bilan chiqarib tashlanadi. Binobarin, organizmga kirgan oqsil bilan chiqarilgan oqsil miqdori aniqlansa, unda organizmning oqsillarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash mumkin. Bundan tashqari organizmda parchalangan

oqsil miqdorini siydik tarkibidagi azot miqdoriga qarab ham aniqlash mumkin.

Ishonch bilan shuni aytish mumkinki, ovqat oqsilini funksiyasi organizimni almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar bilan ta'minlashdan iboratdir. Ko'pchilik mualliflarning ko'rsatib o'tkanidek, alohida olingan oqsilarning ozuqaviy qiymati va ularning aminokislotalaviy tarkibi orasida yetarli darajada to'liq uyg'unlik mavjuddir.

Mahsulotning aminokislotali tarkibi va uning biologik qiymati orasidagi bog'liqlik haqidagi masalani hal etishda A.E.Sherpskok va uning hamkasblari katta ulush qo'shishgan.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, mahsulotlardagi aminokislotalarning haqiqiy tarkibi ma'lum bir ideal formulaga yaqinlashuvi yoki undan uzoqlashuvi haqida gapirish lozim.

Bu formulani organizmda oqsil almashinuvini to'liq ta'minlashni o'zida aks etgan parhez taom tarkibidagi almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar nisbati bilan taqqoslash mumkin.

Bu aminokislotalarning gipotetik optimal formulasipi yaratish bo'yicha bir necha bor urinishlar bo'lgan. Oqibatdagi xulosa esa juda oddiy bo'lib chiqdi, ya'ni etalon sifatida tovuq tuxumining oqsilini aminokislota formulasi yoki ayol suti oqsilining aminokislota formulasi qabul qilindi. Chunki har ikkala mahsulot tabiatda hayotni asosi bo'lib xizmat qiladi. Shuni esda tutish kerakki, albatta, ko'pgina aminokislotalar oqsillarning biosintezida qatnashadi, lekin shu bilan birga ular murakkab birikmalarni tashkil topishida ham ishtrok etadi. Bu o'z navbatida organizmning metabolik (modda almashinish) fondini alohida almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarni shakllanishida notekis tezlikda sarflanishini ko'rsatadi. Rouzning tadqiqotlariga asoslanib, inson organizmini taxminiy aminokislota formulasiga umumiy muhtojligini gapirish mumkin bo'lsa, oxirgi tadqiqotlar bu fikrga zid kelib insonlarni aminokislotalarga bo'lgan muhtojligi o'rtasida farq borligini ko'rsatadi. Bu muhtojlik organizmning yoshiga va jinsiga uzviy bog'liqligini ta'kidladi. Shunday muhim farqlardan biri bolalar organizmining gistidinga bo'lgan muhtojligidir.

Hozirgi kunda organizmning nisbatan o'rtacha minimal aminokislotalar muhtojligini 1-jadvalda keltirilgan taxminiy ko'rsatkichlar bilan baholash mumkin.

Organizmda o'rtacha minimal aminokislotalar ehtiyoji

Jadval-1

| Ehtiyoj Aminokislotalar | Bolalar | Kattalar | |
|----------------------------|---------|----------|----------|
| | | Ayollar | Erkaklar |
| Gisgidin | 32 | - | - |
| Izoleysin | 90 | 0,45 | 0,7 |
| Leysin | 150 | 0,62 | 1,1 |

| | | | |
|------------------|-------|-------|---------|
| Lizin | 150 | 0,5 | 0,8 |
| Metionin | 65-85 | 0,35 | 0,2-1,1 |
| Sistin | - | 0,2 | 0,8 |
| Sulfatli (summa) | - | 0,55 | 1,0-1,1 |
| Fenilalain | 90 | 0,22 | 0,3-1,1 |
| Tirozin | - | 0,9 | 1,1 |
| Aromatli (summa) | - | 1,22 | 1,4-1,1 |
| Treonin | 60 | 0,3 | 0,5 |
| Valin | 93 | 0,65 | 0,8 |
| Triptofan | 22 | 0,157 | 0,25 |

Ammo inson organizmini almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar miqdori bilan ta'minlash uchun tavsiya etilgan miqdor bilan ayrim amaldagi ratsionni tarkibidagi aminokislotalarni taxminiy hisob-kitobi shuni ko'rsatadiki, 1-jadvaldan raqamlar ularga bo'lgan absolyut kattalikni ko'rsatmas ekan. Balki undagi ko'rsatkichlar faol ishlovchi organizmni aminokislotalarga bo'lgan muhtojligini birmuncha kamaytirgan holda tasavvur etgan (taxminan 1,5-2 marta) ya'ni organizmni hazm qilish jarayonidagi qatnashuvchi ayrim almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar nisbatini asoslashda chalkashlik yaratadi. So'nggi yillarda parhezdagi almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar maqbul nisbatining buzilishi oqibatida almashinuvdagi buzilish xarakteri va mexanizmi haqidagi savol chuqur tadqiq etilmoqda.

Shuni ko'rsatishga erishildiki, kattalar sog'ligi o'suvchi organizmlarning normal rivojlanishidagi og'ir oqibatlarga nafaqat almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar taqchilligi, balki uning ma'lum miqdorda mo'lligi sababdir.

Ko'rinishicha parhezda aminokislotalar disproporsiyasi oqibatlari ni rivojlanishi asoslarida turli xil mexanizmlar o'rin olgan. Katta o'ringa ega bo'lgan aminokislotalar imbalansidan tashqari, qaysidir almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarning aminokislotali antaganizm va aminokislotali, vitaminli almashinuv orasidagi murakkab munosabatlarning parhezdagi taqchilligi bilan ta'riflanadi. Agar aminokislotalar bir-biridan ajratilgan holda organizmga kiritilsa, taksik ta'siri ifodalanadi.

O'tkir tadqiqotda aminokislotalar taqsikligi porenterial kiritishda og'izdan qabulga nisbatan ancha yuqori. U ochlik fonida kiritilgan aminokislotalarda ham ancha yuqori, matolarda erkin aminokislotalarning umumiy rezervi normaga solishtirilganda ancha past bo'lgan holda-xropik tajribalardagi alohida aminokislotalar taksikligi, ko'rinishicha ularning parhezda mavjudligiga bog'liq. Shunday qilib, aminokislotalarning normal nisbati parhezda bir-birini neytrallaydi.

Organizmga ajratilgan holda kiritilgan taksik ta'sirni ehtimollaridan biri: bu holatda oqsilning sintezi uchun ishlatilmagani ularning tez dezominatsiyalanishi va organizmga yuqori taksik ammoniy tuzlari bilan kiritilishidir.

Shunisi qiziqki, turli aminokislotalar bir-biriga bo'lgan taksik ta'sirini neytrollashning turli qobiliyatiga ega. Bu nuqtai nazardan organning demoksikatsiyalovchi effekti ko'pchilik aminokislotalarda yuqori nisbatidaligi tushunarli, uning mo'lligi ammoniy tuzlarining karbomidga aylanish jarayonini jadalligiga olib keladi.

Leysin va izoleysinning o'zaro neytrollanish harakati shubhasiz boshqa mexanizmga ega.

Gulino va uning hamkasblari shuni ko'rsatadilarki, kam oqsilli parhezda (9 % kazein) ko'p miqdordagi lysinning kiritilishi yosh kalamushlar o'sishining ancha sekinlashuviga olib keladi.

Leysinga nisbatan antioksid ta'sirga ega bo'lgan aminokislotalardan biri izoleysin bo'lib chiqdi. Leysin va izoleysinlarning strukturaviy tuzilishi jihatidan yaqinligi tufayli mazkur holda aminokislotalaviy antoganizm hodisasi asosida strukturaviy analoglar orasida raqobat munosabatlari yotishini faraz qilish mumkin, ular antimebolitlar ta'limotidan yaxshi tanish.

Shunday qilib, aloxida aminokislotalarning kiritilishining salbiy effekti ayrim vitaminlarga taqchilik sezilgan parhez fonida tezroq aniqlanishi mumkin, ular aminokislotalar aylanishlarida faol ta'sir ko'rsatadilar.

Masalan, piridoksin (vitamin B₆), nikotin kislotasp (PP), ksollomin (B₁₂) va boshkalar. Shunday qilib ozuqaning aminokislotalari tarkibidagi disproporsiya oqsil almashinuvidagi ancha murakkab bo'lgan buzilishlarga olib kelishi mumkin. Bu hol ovqatning aminokislotalilari qiymatini aniqlashda nafaqat alohida aminokislotalarning absolyut miqdoriga, balki ularning nisbatiga, ya'ni insonning aminokislotalaviy ehtiyoji formulasiga mos kelishiga alohida e'tibor berishga undaydi.

Odatda, optimal aminokislotalaviy tarkibi shkalasini tuzishda bir birlikka triptofan miqdori olinadi, uning miqdori ko'pchilik oqsillarda eng kam hisoblanadi yoki trianinning, unga bo'lgan ehtiyoj almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar orasida oraliq mavqega ega. Bu shkalalarning har biri o'z ustuniga ega.

Aminokislotalar tarkibi tuzishda triptofan va trianin miqdori shkalasi

jadval-2.

| Aminokislotalar | Triptofan bo'yicha | | | Treonin bo'yicha | | |
|------------------|--------------------|----------|---------|------------------|----------|---------|
| | Kattalar | | | | | |
| | Bolalar | Kattalar | | Bolalar | | |
| Ayollar | | Erkaklar | Ayollar | | Erkaklar | |
| Triptofan | 1,0 | 1,0 | 1,0 | 0,4 | 0,5 | 0,5 |
| Leytsin | 6,8 | 3,8 | 4,4 | 2,5 | 2,0 | 2,2 |
| Izoleytsin | 4,1 | 2,9 | 2,8 | 1,5 | 1,5 | 1,4 |
| Valin | 4,2 | 4,1 | 3,2 | 1,6 | 2,2 | 1,6 |
| Treonin | 2,7 | 1,9 | 2,0 | 1,0 | 1,0 | 1,0 |
| Lizin | 4,8 | 3,2 | 3,2 | 1,8 | 1,7 | 1,6 |
| Metionin | 3,5 | 2,2 | 0,8-4,4 | 1,3 | 1,3 | 1,2 |
| Tsistin | - | 1,3 | 3,2 | - | 0,7 | 1,6 |
| Sulfatli (summa) | - | 3,5 | 4,0-4,4 | - | 1,8 | 2,0-2,2 |
| Fenilalanin | 4,1 | 1,4 | 4,4-1,2 | 1,5 | 0,7 | 0,6-2,2 |
| Tirozin | - | 5,7 | 4,4 | - | 3,0 | 2,2 |
| Aromatli (summa) | - | 7,1 | 4,4-5,6 | - | 3,7 | 2,2-2,8 |
| Gistidin | 1,5 | - | - | 0,6 | - | - |

Almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarga bo'lgan ehtiyojning triptofan va trianin formulalari hisob kitobi keltirilgan. Bu har xil mualliflar tomonidan qiymatlar asosida tuzilgan va albatta, yakuniy hisoblanmaydi. Shunga qaramasdan, ularning o'zi kattalar va bolalarning aminokislotalarga bo'lgan ehtiyojida mavjud farqlarni belgilashga imkon beradi va ularning farqining ahamiyatini baholashga amalda imkon beradi.

Ehtimol, keyinchalik aholi guruhlarining ish sharoiti, iqlimi va boshqalarga bog'lik holat aminokislotalar ehtiyojning katta differensiyasini keltirib chiqarishga erishiladi.

Amaliy ehtiyojlar uchun hozirgi kunda soddalashtirilgan aminokislotalarning formulasi ma'lum afzalliklarga ega, u FAO tomonidan ma'qullangan (BMT tarkibidagi tashkilot). Bu formulaga ko'ra quyidagi nisbatdagi mahsulot va ratsionlar aminokislotalari mavjud bo'lishi kerak: triptofan-1, trianin-2, lizin-3, leytsin-3,4, fenilalanin-2, valin-3, izoleytsin-3, sulfatlilar-3.

Bu nuqtai nazardan er kurrasining turli xalqlarining iste'mol mahsulotlarini baholashda shuni e'tirof etish lozimki, hozirgi zamonda global aminokislotalar balansda uchta aminokislotalarning taqchilligi ko'zda tutiladi: triptofan, lizin,

metionin.

Bu ko'pgina xalqlar iste'mol qiladigan mahsulotlar tarkibidagi oqsillar tarkibidagi triptofan va lizinning kamligi bilan izohlanadi, o'simlik mahsulotlarida esa bu aminokislotalar bilan boyroq, shuningdek, formula ko'rsatgichlaridagi lizin miqdoridan katta.

Alishtirib bo'lmaydigan aminokislotalarga sutkalik ehtiyoj (grammlar hisobida)

Jadval-3

| Aminokislotalar | A E Sharpenak | V.Rouz | R.Blok, D.Bollning |
|-----------------|---------------|--------|-----------------------|
| Triptofan | 1,6 | 1,82 | 1,1 |
| Lizin | 8,0 | 5,83 | 5,2 |
| Fenilalanin | 4,5 | 4,13 | 4,4 |
| Leysin | - | 4,69 | 9,1 |
| Izoleysin | 10,0 | 2,94 | 3,3 |
| Balin | 6,0 | 4,13 | 3,8 |
| Treonin | - | 2,94 | 3,5 |
| metnonin | 2,5 | 3,5 | 3,8 |

Shuning uchun hayvon oqsillari nafaqat o'zlari yaxshi o'zlashtiriladi, balki o'simlik oqsillarini ham o'zlashtirilishini yaxshilaydi, yuqorida ta'kidlanganidek, eng samarali natija har bir ovqatla nishda aminokislotalar tarkibi balanslashtirilgan holda erishiladi. Bundan shunday hulosalar kelib chiqadiki, ovqat mahsulotlarining aminokislotalar tarkibini bilgan holda uyg'unlashtiruvchi oqibatida biologik ratsionlar qiymatini va o'zlashtirilishining eng asosiy yo'llaridan biridir.

Leysin, izoleysin, treonin va aromatik aminokislotalar ko'pchilik ratsionlarda mo'l bo'lganligi uchun birinchi yaqinlashuvda tarkibidagi uchta eng difitsit aminokislotalar, ko'p hollarda ratsionlarning biologik qiymatini chegaralovchi bo'ladi. triptofan, lizin, sistin va metianin yig'indisini baholash juda muhimdir. Shunga ko'ra aminokislotalar tarkibi ko'rsatkichini birinchi bosqichida qo'llash ratsionlarining biologik qiymatini aniqlashda eng sodda formulalarni ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ular absolyut miqdorini va triptofan, lizin va sulfatli aminokislotalarning qulay nisbatini tansiflaydi: 1:3:3. Ayrim muhim ovqat mahsulotlarining nisbatlari haqidagi ma'lumotlar 3-jadvalda keltirilgan.

Oziq-ovqatlardagi muhim aminokislotalarning tarkibi

Jadval-4

| Mahsulot nomi | leysin | izoleysin | valin | gistidin | tirozin | glitsin | lizin | metionin | fenilalanin | arginin | treonin | triptofan |
|--------------------------|--------|-----------|-------|----------|---------|---------|-------|----------|-------------|---------|---------|-----------|
| Gorbusha | 1,56 | 0,95 | 1,1 | 0,54 | 0,74 | 1,26 | 1,76 | 0,58 | 0,85 | 1,29 | 1,07 | 0,22 |
| No'xat | 1,65 | 1,09 | 1,01 | 0,46 | 0,69 | 0,95 | 1,55 | 0,21 | 1,01 | 1,62 | 0,84 | 0,26 |
| Oq qo'ziqorin | 0,12 | 0,03 | 0,08 | 0,22 | 0,12 | 0 | 0,19 | 0,04 | 0,1 | 0,26 | 0,11 | 0,21 |
| Kalmar filesi | 1,92 | 0,39 | 0,78 | 0,32 | 0,33 | 0,36 | 1,9 | 0,49 | 0,32 | 1,56 | 0,55 | 0,3 |
| Karp | 1,45 | 0,82 | 0,92 | 0,53 | 0,6 | 0,86 | 1,64 | 0,53 | 0,7 | 1,07 | 0,78 | 0,2 |
| 3,2 % qatiq | 0,28 | 0,16 | 0,14 | 0,08 | 0,16 | 0,05 | 0,24 | 0,07 | 0,14 | 0,11 | 0,11 | 0,04 |
| Qisqichbaqa filesi | 1,41 | 0,95 | 1 | 0,3 | 0,51 | 1,03 | 1,64 | 0,55 | 0,69 | 1,05 | 0,81 | 0,19 |
| Grechka yormasi | 0,83 | 0,5 | 0,68 | 0,31 | 0,24 | 1,03 | 0,67 | 0,17 | 0,52 | 0,98 | 0,51 | 0,19 |
| Manniy yormasi | 0,81 | 0,45 | 0,49 | 0,21 | 0,27 | 0,37 | 0,26 | 0,16 | 0,54 | 0,47 | 0,32 | 0,11 |
| Suli yormasi | 0,78 | 0,45 | 0,53 | 0,25 | 0,46 | 0,63 | 0,47 | 0,16 | 0,56 | 0,72 | 0,39 | 0,19 |
| Arpa yormasi | 0,49 | 0,33 | 0,37 | 0,15 | 0,22 | 0,29 | 0,3 | 0,12 | 0,46 | 0,28 | 0,21 | 0,1 |
| Bug'doy yormasi | 1,53 | 0,43 | 0,47 | 0,26 | 0,41 | 0,3 | 0,29 | 0,3 | 0,58 | 0,43 | 0,4 | 0,18 |
| Guruch yormasi | 0,62 | 0,33 | 0,42 | 0,17 | 0,29 | 0,32 | 0,26 | 0,16 | 0,37 | 0,51 | 0,24 | 0,1 |
| Atlantika lososi | 1,61 | 0,91 | 1,02 | 0,58 | 0,67 | 0,95 | 1,82 | 0,59 | 0,78 | 1,19 | 0,87 | 0,22 |
| Makaron | 0,82 | 0,44 | 0,48 | 0,2 | 0,25 | 0,35 | 0,25 | 0,16 | 0,51 | 0,4 | 0,31 | 0,1 |
| Sariyog' (81 %) | 0,08 | 0,05 | 0,06 | 0,02 | 0,04 | 0,02 | 0,07 | 0,02 | 0,04 | 0,03 | 0,04 | 0,01 |
| Mosh | 1,85 | 1,01 | 1,24 | 0,7 | 0,71 | 0,95 | 1,66 | 0,29 | 1,44 | 1,67 | 0,78 | 0,26 |
| Echki suti 4,2 % | 0,3 | 0,17 | 0,19 | 0,11 | 0,11 | 0,46 | 0,23 | 0,08 | 0,14 | 0,11 | 0,14 | 0,04 |
| Sigir suti 3,7 % | 0,32 | 0,2 | 0,22 | 0,09 | 0,16 | 0,07 | 0,26 | 0,08 | 0,16 | 0,12 | 0,15 | 0,05 |
| Bug'doy uni (oqsil 13 %) | 0,83 | 0,43 | 0,5 | 0,25 | 0,2 | 0,43 | 0,3 | 0,18 | 0,6 | 0,42 | 0,32 | 0,15 |
| Qo'y go'shti | 1,27 | 0,79 | 0,88 | 0,52 | 0,55 | 0,8 | 1,44 | 0,42 | 0,75 | 0,67 | 0,7 | 0,19 |
| Mol go'shti | 1,56 | 0,89 | 0,97 | 0,63 | 0,63 | 1,19 | 1,66 | 0,51 | 0,77 | 1,27 | 0,78 | 0,13 |
| Kurka go'shti | 1,68 | 1,08 | 1,13 | 0,65 | 0,82 | 1,31 | 1,97 | 0,61 | 0,85 | 1,52 | 0,94 | 0,24 |
| Tovuq go'shti | 1,24 | 0,85 | 0,83 | 0,5 | 0,55 | 1,13 | 1,39 | 0,45 | 0,67 | 1,08 | 0,71 | 0,19 |

| | | | | | | | | | | | | |
|-------------------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| Cho'chqa go'shti | 1,78 | 1,03 | 1,09 | 0,91 | 0,8 | 0,94 | 1,94 | 0,58 | 0,88 | 1,39 | 0,94 | 0,22 |
| Yeryong'oq | 1,76 | 0,9 | 1,25 | 0,63 | 1,05 | 1,52 | 0,94 | 0,29 | 1,34 | 2,98 | 0,74 | 0,28 |
| Grekyong'og'i | 1,17 | 0,63 | 0,75 | 0,39 | 0,41 | 0,82 | 0,42 | 0,24 | 0,71 | 2,28 | 0,6 | 0,17 |
| Kedryong'og'i | 0,99 | 0,54 | 0,69 | 0,34 | 0,51 | 0,69 | 0,54 | 0,26 | 0,52 | 2,41 | 0,37 | 0,11 |
| Bodom | 1,49 | 0,7 | 0,82 | 0,56 | 0,45 | 1,47 | 0,58 | 0,15 | 1,12 | 2,45 | 0,6 | 0,21 |
| Fuduk (o'rmonyong'og'i) | 1,06 | 0,55 | 0,7 | 0,43 | 0,36 | 0,72 | 0,42 | 0,22 | 0,66 | 2,21 | 0,5 | 0,19 |
| Mol jigari | 1,59 | 0,93 | 1,25 | 0,85 | 0,73 | 0,94 | 1,43 | 0,44 | 0,93 | 1,25 | 0,81 | 0,24 |
| Seld | 1,33 | 0,76 | 0,85 | 0,48 | 0,55 | 0,79 | 1,51 | 0,49 | 0,64 | 1,07 | 0,79 | 0,2 |
| Qaymoq (19 %) | 0,26 | 0,16 | 0,18 | 0,07 | 0,13 | 0,06 | 0,21 | 0,07 | 0,13 | 0,1 | 0,12 | 0,04 |
| Smetana (20 %) | 0,27 | 0,14 | 0,17 | 0,08 | 0,13 | 0,06 | 0,23 | 0,07 | 0,13 | 0,1 | 0,12 | 0,04 |
| Soya | 2,67 | 1,81 | 2,09 | 0,98 | 1,06 | 1,42 | 2,09 | 0,52 | 1,61 | 2,34 | 1,39 | 0,45 |
| Motsarella siri (22 %) | 1,83 | 1,13 | 1,32 | 0,52 | 1,04 | 0,52 | 0,97 | 0,52 | 1,01 | 0,52 | 0,98 | 0,52 |
| Qattiq sir (31 %) | 2,24 | 1,45 | 1,56 | 0,82 | 1,13 | 0,4 | 1,95 | 0,61 | 1,23 | 0,88 | 0,83 | 0,3 |
| Tvorog (18 %) | 1,28 | 0,69 | 0,84 | 0,45 | 0,88 | 0,26 | 1,01 | 0,38 | 0,76 | 0,58 | 0,65 | 0,21 |
| Treska balig'i | 1,45 | 0,82 | 0,92 | 0,52 | 0,6 | 0,86 | 1,64 | 0,53 | 0,7 | 1,07 | 0,78 | 0,2 |
| Oq loviya | 1,87 | 1,03 | 1,22 | 0,65 | 0,66 | 0,91 | 1,6 | 0,35 | 1,26 | 1,45 | 0,98 | 0,28 |
| Bug'doy noni | 0,39 | 0,22 | 0,26 | 0,13 | 0,14 | 0,22 | 0,18 | 0,09 | 0,27 | 0,26 | 0,17 | 0,08 |
| Javdar noni | 0,6 | 0,33 | 0,4 | 0,2 | 0,24 | 0,34 | 0,25 | 0,16 | 0,42 | 0,36 | 0,27 | 0,1 |
| Yasmiq | 1,89 | 1,02 | 1,27 | 0,71 | 0,78 | 1,03 | 1,72 | 0,29 | 1,25 | 2,05 | 0,96 | 0,22 |
| Tovuq tuxumi | 1,09 | 0,67 | 0,86 | 0,31 | 0,5 | 0,43 | 0,91 | 0,38 | 0,68 | 0,82 | 0,56 | 0,17 |
| Bedana tuxumi | 1,15 | 0,82 | 0,94 | 0,32 | 0,54 | 0,43 | 0,88 | 0,42 | 0,74 | 0,84 | 0,64 | 0,21 |

Shu narsalar ko'rinib turibdiki, ayrim mahsulotlardagi umumiy oqsil miqdorini, farqi ayniqsa tarkibda uchta aminokislotaning mavjudligi ularning ovqat ratsionidagi hisoboti uning biologik qiymatini aniqlashda birinchi darajali ahamiyatga ega va juda yuqori.

Aminokislotalar tarkibi jadvallarini tuzishda ishlarning ma'lumotlari ishlatilgan.

Taqchil bo'lgan aminokislotalar triptofan, lizin va metionin ayniqsa baliq tarkibida yuqori (formula 1:8,8:4,3), suzmaning (tvorog) asosiy oqsili tarkibida esa triptofan va metionin serob.

Keltirilgan ma'lumotlar organizmning aminokislotaviy ehtiyojini qondirish

uchun bir-birini o'zaro aminokislotaviy to'ldirish, ularning biologik qiymatini cheklash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu nuqtai nazardan sut va o'simlik mahsulotlari kombinatsiyasi eng maqbul hisoblana di. Bu mahsulotlarning xuddi shu miqdorda alohida qilingandan ko'ra, birgalikda iste'mol qilinishi yuqoriroq biologik qiymatga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, nisbatan optimal mos kelishi quyidagi kombinatsiyalarda foydali: turli xamir mahsulotlari bilan suzma, go'sht, (go'sht 1:7, 5:3, 2, un-1:1, 9:2,7). Ayni paytda xuddi shunday natija guruch bilan kombinatsiyalarda ham erishiladi.

Maxsus oqsil mahsulotlarining manbaini yaratish maqsadida suzma (1:5,5:2,7) va baliqning (formula 1:8,8:4,3) kombinatsiyasi eng optimal variantlaridan biri sifatida e'tiborga olinishi mumkin. Bu ikki mahsulot ham metioninga boy.

Ikkinchi, kamroq o'rganilgan oqsil, yog' va uglevodlarning biologik qiymatini aniqlaydigan ko'rsatkich bu hazm qiluvchi fermentlar tomonidan gidrolitik parchalanish stilligi va organizm tomonidan hazm qilingan mahsulotlarning o'zlashtirilishidir. Oqsillarda, ma'lum bo'lishicha ayniqsa tayanch motolor-keratin va kollagenlarning xazm qilinishi juda qiyin kechadi, uglevodlardan deyarli hazm qilinmaydigan birikmalarga biriktiruvchi to'qima kletchatka, selluloza kiradi, uning glyukoza molekulalari v-glyukozitlari bog'lamlari bilan bog'langan. Ayrim mahsulotlar tarkibidagi hazm qiluvchi fermentlar bilan oqsilning o'zlashtirilish masalasi to'liq o'rganilgan deb hisoblab bo'lmaydi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, sut va baliq mahsulotlari tarkibidagi oqsillar eng yaxshi hazm qilinadiganlardan biridir.

Yog'larga kelsak, lipoza tomonidan oshqozon osti triglitsirit bezlarining nisbatan tez parchalanish tezligi o'rnatilgan, ularning tarkibiga nisbatan kalta uglerod bog'lanishlari (S-10gacha) bilan yog' kislotalari kiradi. Bunday yog'lar ko'plab sutning tarkibiga kiradi.

Ammo, ko'rinishicha, bu holda yog'larning ferment tomonidan engil ta'qib ostiga olinish ko'rsatkichi boshqa triglitsiritlardan o'ziga xos biologik qiymati ko'rsatkichiga mos kelmaydi.

Yog' tarkibidagi linol, linolin va aroxidonil yarim-to'yinmagan yog' kislotalari muhim ahamiyatga ega, ular nafaqat organizmning normal rivojlanishiga zarur, balki xolesterin almashinuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda bu kislotalarning faqat ayrim izomerlari biologik faoliyati bilan ajralib turadi, sis-konfiguratsiya va uglerod zanjir bo'ylab foydali tarqalgan ikkitalik bog'lamlarga ega (xususan sis 9, 10, sis-12, 13-linolli kislota). Organizmda bu kislotalar bir-biriga aylanishi mumkin, shuning uchun amalda ularning umumiy miqdori ahamiyat kasb etadi. Organizmdagi yarim-to'yinmagan yog'

kislotalarining sintez jarayoni, shubhasiz, vitamin B₆ va B₁ larga ega fermentlar bilan bog‘liq. Shuning uchun bu vitaminlar bilan oziqlanish ta‘minoti organizmning almashtirib bo‘lmaydigan yog‘ kislotalariga bo‘lgan ehtiyojga ta‘sir etadi.

Hozirgi kunda katta kishining sutkalik yarim-to‘yinmagan yog‘lar kislotalariga bo‘lgan ehtiyoj umumiy ratsion kaloriyigidan 2 %ni tashkil etadi, bu 5-10 gr. ga to‘g‘ri keladi.

Oziqlanishda bu kislotalarning asosiy manbai bo‘lib o‘simlik yog‘lari xizmat qiladi. (5-jadval).

Oziq-ovqat mahsulotlarida to‘yingan va to‘yinmagan yog‘li kislotalarni taqsimlanishi.

Jadval - 5

| Mahsulot | To‘yingan yog‘li kislotalar | | | | To‘yinmagan yog‘li kislotalar | | | |
|----------------------|-----------------------------|-------------------------------|------------------------------|-------|-------------------------------|-------------------------------|---------------------------------|--------------------|
| | Summa | Palmitinli (S ₁₆) | Spiarinli (S ₁₁) | Summa | Oleinli (S _{2-2N}) | Linolli (S _{16-4N}) | Linolenli (S _{14-6N}) | Boshqalar mahsulot |
| Mol go‘shiti | 48 | 28 | 19 | 47 | 44 | 2 | izlar | 1 |
| Qo‘y go‘shiti | 56 | 29 | 25 | 40 | 36 | 3 | 1 | izlar |
| Cho‘chqa go‘shiti | | | | | | | | |
| Bekon | 32 | 21 | 9 | 63 | 48 | 9 | izlar | 6 |
| Okorok | 38 | 26 | 12 | 58 | 46 | 6 | - | 6 |
| Sigir suti | 55 | 25 | 12 | 39 | 33 | 3 | 1 | 2 |
| Echki suti | 62 | 27 | 8 | 33 | 25 | 5 | - | 3 |
| Ona suti | 46 | 22 | 7 | 48 | 34 | 7 | izlar | 7 |
| Tovuq tuxumi | 32 | 25 | 7 | 61 | 44 | 7 | 11 | 9 |
| Tovuqlar | 32 | 24 | 7 | 64 | 38 | 20 | 2 | 4 |
| Kurka | 29 | 22 | 6 | 67 | 43 | 21 | 1 | 2 |
| Ugor | 23 | 17 | 2 | 79 | 36 | | 2 | 37 |
| Seld | 19 | 11 | 1 | 77 | 19 | | 2 | 58 |
| Semga | 15 | 12 | 2 | 79 | 26 | | 2 | 45 |
| Sariyog‘ | 55 | 25 | 12 | 30 | 33 | 3 | 1 | 2 |
| Lyard | 38 | 31 | 7 | 57 | 46 | 10 | 1 | izlar |
| Qaynatilgan tovuqlar | 20,6 | 0,250 | 1,810 | 0,814 | /0,537 | 1 | 7,2 | 3,2 |
| Treska | 16,5 | 0,164 | 1,447 | 0,762 | /0,480 | 1 | 8,8 | 4,3 |
| Yurak | 16,9 | 0,219 | 1,387 | 0,571 | /0,403 | 1 | 6,3 | 2,6 |

O‘simlikdan olingan arzon oqsillardan eng katta biologik qiymat bilan dukkakli dondar oqsili (aminokislota tarkibi bilan), masalan zig‘ir, no‘xat va shunga o‘xshashlari ajralib turadi. Shu narsa qiziqki, zig‘ir oqsilining biologik qiymati issiqlik

denoturatsiyasida oshadi.

Zig'ir oqsilining qizdirilganda uning o'zlashtirilishida ijobiy sabablardan biri normal hazm qilish jarayonlariga to'sqinlik qiluvchi trinsini pattern oqsilining inaktivetsiyasidir. Uni 5-15 % ining miqdorda qo'shganda bug'doy ozuqaviy qiymati sezilarli darajada oshirilishini aytib o'tish joiz. Afsuski, zig'ir mahsulotlarining mazasini, sifatini pastligi ularning ishlatilish imkonini sezilarli darajada pasaytirib yubordi.

Shunga qaramasdan buni aytib o'tish kerakki, biz boshqoqli oqsilining biologik qiymatini oshirish muammosi bilan kam shug'ullanayapmiz.

Olib borilayotgan hisoblarga ko'ra, arpa, bug'doy, guruch va ayniqsa, jo'xori unining aminokislotaviy tarkibini ularning zig'ir, po'lat va boshqa dukkaklilar bilan uyg'unlashtirishda sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Oqsilning boshqa manba'alari haqida fikr yuritganda yangi uyg'unlashtirilgan mahsulot yaratishda qaymog'i olingan sut haqida gapirib o'tmasak bo'lmaydi. Bu sut tarkibida to'la qonli (3,4-3,7 %) nisbatan solishtirilganda ajralib turadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, yog'i olingan sutni ratsional ishlatish muammosi haligacha to'g'ri echimga ega emas. Uning kichik bir qismi yog'siz suzma va boshqa ozuqaviy mahsulotlar sanoatiga ishlatilib kelmoqda.

Shunisi ayonki, qaymog'i olingan sut turli uyg'unlashtirilgan mahsulotlarning tarkibiy qismi sifatida kengroq qo'lanilishi kerak va zarur. Uni turli non mahsulotlari tarkibiga kiritish asosli va maqsadga muvofiq. Nonga 3% yog'siz sutning qo'shilishi uning biologik qiymatini va oqsil komponentlarining o'zlashishini sezilarli darajada oshiradi.

Qator o'simlik mahsulotlari va birinchi navbatda nonning tarkibiga etishmayotgan aminokislotalarning qo'shilishi ularning biologik qiymatini oshirishga istiqbolli yo'nalish bo'ladi. Bu masala bo'yicha jahon adabiyotlarida katta materiallar bor, nonga 0,2-0,8% miqdorda lizinning qo'shilishi uning biologik qiymatini sezilarli darajada turtki bo'lishga shubha yo'q.

Zararli tomizg'ilardan holi bo'lgan aminokislotalar, lizin, metionin va triptofan olish usullarini o'zlashtirish muammosi paydo bo'ladi.

Hozirgi kunda biz oqsilning yangi manba'alarini ishlatish muammosini ko'tara olish imkoniyatimiz yo'q va xulosa o'rnida yaxshi ma'lum bo'lgan ovqat mahsulotining ayrim yangi ratsional uyg'unliklarini asoslab berishga harakat qilamiz.

Optimal formulaga yaqinlashtirilgan mahsulotlarning yaratilishiga misol sifatida oziqlanish instituti yaratilgan oqsil mahsuloti (belip) xizmat qiladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar uyg'unlashtirilgan mahsulotlarning birlamchi kompanetlarining belgilashga imkon beradi.

Qaymog'i olingan sudan olingan yog'siz suzma tarkibidan olingan to'laqonli oqsil eng arzon va topilishi oson bo'lib chiqdi. Shuning uchun nisbatan chala oqsilli

bug'doy va jo'xoridan tashkil topgan kombinatsiya uyg'unligi sezilarli darajada ularning biologik qiymatini oshirish kerak.

Treska ham, suzma ham nisbatan kam miqdorda yog'ga ega, ammo treska yog'ining tarkibiga yarim-to'yinmagan yog'li kislotalarning nisbatan katta foizi kiradi. Bundan tashqari bunday kombinatsiya ta'm hususiyatlariga ko'ra turli xil o'simlik yog'lari bilan yaxshi uyg'unlashadi, bu birlamchi mahsulotlar nisbatan katta assortimentdagi kulinariya mahsulotlaripi olishga imkon beradi.

Taklif etilayotgan kombinatsiya mineral tarkibi bo'yicha ham ancha foydali bo'lib chiqdi, chunki suzma engil o'zlashtirilgan sut kalsiysi tashuvchidir, treska esa dengiz balig'i bo'lgani uchun nisbatan mikroelementlarga, xususan yodga boy.

Olib borilgan ishlar natijasida turli kombinatsiyalar, treska va yog'siz suzmaning boshqa mahsulotlar bilan va shunga o'xshash jo'xori va no'xat unlari bilan bunga o'xshagan mahsulotlar. Bu kombinatsiyalarning aminokislotaviy, yog'li kislota, mineral va vitamin tarkibi va puli qiymati hisoblandi, mahsulotlar texnologiyasi ishlab chiqildi. Ko'p sonli degustatsiyalar keltirildi hamda bu taomlarni organizm tomonidan o'zlashtirilishini go'shtli taomga nisbatan solishtirildi.

Bu mahsulotlar bir qismining asosiga treskaning suzma va kungaboqar yog'i bilan uyg'unlashuvi xizmat qildi. Bu oqsil mahsuloti go'shtga nisbatan ta'm hususiyatlari bilan qoniqarli, ancha arzon va kimyoviy tarkibi jixatidan bir qator ko'rsatkichlar o'tishi va organizm tomonidan o'zlashtiriladi.

Aminokislota tarkibi nuqtai nazaridan belipning makaron, yormalar va sabzavot garnirlari bilan uyg'unlashuvi ham o'zini oqlaydi.

Belip-kombinatsiyalangan ovqat mahsulotiga misol. Olingan natijalarga ko'ra, yangi mahsulot yaxshi ta'm xususiyatlari, yuqori biologik qiymati va yuqori bo'lmagan narx tufayli ommaviy va individual ovqatlanishda o'z o'rniga taomlar assortimentini ko'paytirgan holda ega bo'lishi mumkin.

Belipdan tayyorlangan bir qator taomlar maxsus dorivor ovqat bo'lishi mumkin. Ateroskleroz va semirish kasalliklarini davolashda va aminokislota formulasidagi yarim-to'yinmagan yog' kislotalari va mikroelementlar (J,Si) balanslashgan belipning uyg'unlashuvi yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Shuni ham takidlash joizki oqsilning shifobaxsh hususiyatlari moddalar almashtiruvining buzilish hastaliklarining yuzaga kelishi uning molekulyar tabiatini tushinishiga ham bog'lashadi.

Dorivor ovqat sohasida bioximik konsensiyalar samaradorligi parhez terapiyaning fenilperuzumli oligofreniyaning dastlabki bosqichlarida ishlatishi misolida tasvirlanishi mumkin. So'nggi vaqtlarda uning qo'llanilishi natijasida ilgari shifo topishga erishilmagan bu kasallikning uning dastlabki bosqichlari yaxshi terapevtik ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, sog' va kasal odamning keyingi ovqatlanishi, shubhasiz, inson

organizmi ehtiyojlarini chuqurroq o'rganish bilan va ratsion va mahsulotlarning kimyoviy tarkibiga ko'ra biologik qiymatini aniqlash bilan bog'liq. Eng muxim ovqat moddalarining balanslashuvi nuqtai nazardan ovqatlanish tizimini tuzishni baholashni o'rganmogimiz lozim, bunday yondashuvni kundalik aloxida ovqatlanish mobaynida ham qo'llash zarur.

Biologik qiymati yuqori mahsulotlarni yaratish va ratsioilarni to'liqroq balanslash ehtimolini tushunish nafaqat ovqat mahsulotlarining to'liqroq ishlatish, balki bizning nazdimizdagidek, eng qulay usul bilan ratsional oziqlanish salomatligini yaxshilash maqsadida to'g'ri tushunish lozim.

Yog'lar va ularning ovqatlanishdagi o'rni.

Yog'lar organizmda plastik va energetik rolni bajaradi. Lipidlar glitserin bilan yog' kislotalaridan tashkil topgan neytral yog'lardan tarkib topgan murakkab organik moddalardir. Fizik va ximiyaviy xossalari ga ko'ra ular lipoidlar (litsetin va xolesterin)ga yaqin turadi. Lipoidlar tarkibida ko'p atomli spirtlar, fosfat kislotalari va azotli birikmalar bo'ladi. Lipidlar almashinuvi oqsillar va uglevodlar almashinuvi bilan bog'liq. Jumladan, oqsillar bilan uglevodlarning ortiqchasi organizmda yog'larga aylanadi. Yog'larning ortiqchasi esa gavda og'irligining 10% dan 30% gachasi zapas yog' sifatida saqlanadi. Yog'lar almashinuvi jarayo nini nerv sistemasi bilan ichki sekreksiya bezlari (miyaning pastki ortig'i, buyrak usti, qalqonsimon bez, jinsiy bezlar sekretlari) idora qiladi.

Yog' (lipid)lar almashinuvining buzilishi. Ko'pincha etarlicha ovqatlanmaslik, me'da osti bezi, jigar faoliyatini buzilishi oqibatida ingichka ichakda yog' so'rilishi pasayishi natijasida kelib chiqadi. Odam etarlicha ovqatlanmaganda yoki organizm haddan tashqari energiya sarflaganda depodagi yog'lar sarflanadi. Lekin odam had dan tashqari ozib ketsa ham organizmdagi yog' butunlay sarflanmaydi. Ba'zi kasalliklarda moddalar almashinuvining kuchayishi, qalqonsimon bezning giperfunksiyasi ham yog'larning parchalanish jarayonlarini kuchaytiradi.

Odamning ovqat bilan ko'p miqdorda yog'ni iste'mol qilishi qonda yog'ni ko'payib (giperlipemiya) ketishiga sababchi bo'ladi. Natijada, yog'ning qondan to'qimaga o'tishi sustlashadi.

To'qimalarda yog' miqdorining buzilishi yog' deposi (to'planadigan joylari)da uning miqdorini kamayishi (yog' distrofiyasi) yoki ko'payishiga imkon tug'diradi. Yog' miqdori odatda mahalliy yoki umumiy ko'payadi. Yog' miqdorinig mahalliy ko'payishi organ yoki to'qima atrofida sodir bo'ladi. Umumiy semirish odatda ko'p ovqat iste'mol qilinib, kam energiya sarflanishi, ovqatdan oldin spirtli ichimlik (ishtahani kuchaytirish uchun) ichish tufayli yog' depolarida yog'ning zo'r berib to'planishiga olib keladi. Bundan tashqari, ichki sekreksiya (jinsiy bezlar gipofiz va qalqonsimon) bezlar funksiyalarinig izdan chiqishi ham yog'larning to'planishiga

sabab bo'ladi.

Yurakni yog' bosganda yog' faqat organning atrofida emas, uning muskul tolalarining orasida ham to'planadi. Yog' distrofiyasi yurak muskulida, jigarda, buyraklarda kamroq boshqa organlarda kuzatiladi. Yog' to'planishi boshlanishida jigar va buyrak funksiyalari saqlanmagan, keyinchalik buzilishi natijasida ularning hajmlari kattalashadi.

Organizmda yog' distrofiyasi ko'proq alkogolizm, yuqumli kasalliklarda, zaharli moddalar ta'sirida, gipoksiyada kuzatiladi. Yog' distrofiyasida organlar funksiyasi buziladi.

Xolesterin almashinuvining buzilishi yog' almashinuvining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, qon tomirlar devorida xolesterin to'planib biriktiruvchi to'qimalar rivojlanadi. Natijada qon tomirlari devorlari qalinlashib (ateroskleroz) qon aylanishi buziladi. Xolesterin miqdorining organizmda ko'payishiga uni ovqat bilan (tuxum sarig'i, jigar va go'shtda ko'proq bo'ladi) ko'proq iste'mol qilish sabab bo'ladi.

Uglevodlar va ularning ovqatlanishdagi o'rni.

Uglevodlar insonni energetik sarflarini to'ldiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Ular organizmni hayot faoliyatida ham katta rol o'ynaydi, chunki ular qon, asab to'qimalari, muskullar tarkibiga kirib, umumiy modda almashinishida qatnashadilar. Ovqat tarkibidagi uglevodlar organizmga kelayotgan yog'larni yaxshi hazm bo'lishiga yordam beradi. Agar ovqatlanish ratsionida uglevodlar organizm talab qilganidan ko'p bo'lsa, u holda ortiqcha uglevodlar yog'ga aylanadi, o'z navbatida bu yog'lar to'qimalarda yig'iladi.

Uglevodlarning asosiy manbai bo'lib, o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlar hisoblanadi, ulardan ayrimlari butunlay uglevodlardan tarkib topgan (shakar, kraxmal, asal, patoka). Hayvonlardan olinadigan mahsulotlar tarkibida uglevodlar kam miqdorda bo'ladi.

Biologik qiymati va kimyoviy tarkibiga ko'ra uglevodlar bir xil emas. Uglevodlar sodda va murakkabga bo'linadi. Sodda uglevodlar yoki monosaxaridlarga glyukoza (uzum shakari), fruktoza (meva shakari) kiradi. Murakkab uglevodlarga disaxaridlar-laktoza (sut shakari), saxaroza (shakar qamish va lavlagi shakari) va polisaxaridlar - kraxmal, glikogen (hayvon kraxmali), kletchatkalar kiradi.

Mono va disaxaridlar suvda yaxshi eriydi. Organizmda monosaxaridlar yengil hazm bo'ladi. Disaxaridlar ovqat hazm qilish jarayonida monosaxaridlargacha parchalanadi va shundan so'ng qonga so'riladi. Uglevodlarni katta qismi organizmga kraxmal ko'rinishida keladi. U suvda erimaydi va aynan hazm bo'lmaydi, lekin oshqozon-ichak traktidagi fermentlar ta'sirida u sodda moddalarga parchalanadi. Parchalanish so'ngidagi mahsulot glyukoza bo'lib, u organizm tomonidan hazm

bo'ladi. Eng turg'un uglevod kletchatka hisoblanib, u inson organizmida hazm bo'lmaydi va shuning uchun ozuqaviy qiymatga ega emas, lekin kletchatkani muhim ahamiyati shuki -u ichak devorlariga ta'sir qilib, uni turli uchastkalarida kuchli harakatni keltirib chiqaradi (ichak peristaltikash deb nomlanuvchi) bu esa ovqatni surilishiga yordam beradi.

Organizmni uglevodlarga bo'lgan talabi uni energetik sarfiga proporsionaldir. Insonga sutkasiga 400 - 500 g uglevod, undan mono va disaxarid 50 - 100 g. kraxmal 400 - 450 g talab qilinadi. Ular sutkalik ratsionning 52-65% kaloriyasini tashkil etishi kerak.

Organizmida uglevodlarni hazm bo'lishi darajasi ratsion tarkibida B₁ - vitaminini borligi bilan bog'liq. Shuning uchun bir vaqtning o'zida uglevod va vitamin B₁ (dag'al undan tayyorlangan non, yorma va h.k.) tarkibi mahsulotlar muhim ahamiyatga ega.

Uglevodlarni hazm bo'lishiga ularga berilgan issiqlik ishlovi va taomni tayyorlash xarakteri ta'sir etadi. Yuqori haroratda shakar, past hazm bo'luvchi moddalarga aylanadi. Kartoshkadagi kraxmal kartoshka pyuresini tayyorlaganda yaxshi hazm bo'ladigan bo'lsa, qaynatilgan kartoshka va qovurilgan kartoshkada yomon hazm bo'ladi. Suyuq bo'tqalar tarkibidagi kraxmal, sochilib turuvchi bo'tqalardagiga nisbatan organizmda tez hazm bo'ladi. Sabzavot va ho'l mevalarni uzoq vaqt suvda qolmaslik va maydalangan holda kovlamaslik kerak, chunki bunda shakar eriydi va suvga o'tib ketadi.

Uglevodlar organik birikmalar bo'lib, uglerod, vodorod va kisloroddan iboratdir. Ular o'simliklarda ko'mir kislotasi va suvdan quyosh nuri ta'siri ostida hosil bo'ladi.

Uglevodlar oksidlanish xususiyatiga ega bo'lib, odamning hayotida quvvat manbai bo'lib xizmat qiladi. 1gr. Uglevodlarning energetik qiymati 4 kkal (16,7 kDj). Uglevodlar odam tanasining quvvatga bo'lgan ehtiyojining 54-56 %ni qoplaydi. Bundan tashqari uglevodlar, xujayralar, to'qimalar, qon tarkibida ham bo'ladi. Jigarda esa hayvon kraxmali glikogen shaklida uchraydi. Organizmda uglevodlarning miqdori 1 %ni tashkil etadi. Shuning uchun uglevodlar organizmning quvvatga bo'lgan ehtiyojini qoplashi uchun organizmga oziqa bilan kirishi kerak.

Og'ir jismoniy mehnat qilganda uglevodlarning etishmasligi organizmdagi yog'lar va oqsillar hisobiga qoplanadi. Ortiqcha uglevodlar organizmda zahira yog'lar sifatida to'planadi va organizm og'irligini oshiradi. O'simlik mahsulotlari ularning manbai bo'lib hisoblanadi. O'simlik mahsulotlari tarkibida uglevodlar monosaxaridlar, disaxaridlar va polisaxaridlar shaklida uchraydi.

Monosaxaridlar - eng sodda uglevodlardan hisoblanadi, ta'mi shirin, suvda yaxshi eriydi. Ularga glyukoza, fruktoza va galaktoza kiradi. Glyukoza meva va yer mevalari tarkibida bo'ladi va organizmda disaxaridlar, kraxmallarning

parchalanishidan hosil bo‘ladi. U qonga tez so‘rilib quvvat manbai sifatida jigarda glikogen hosil qiladi, miyani, mushaklarni oziqlantirib qonda shakarining kerakli miqdorini saqlaydi.

Fruktoza - ham glyukoza singari xususiyatga ega. U glyukozaga nisbatan 3 marta, saxarozaga nisbatan 2 marta shirin bo‘lib, oziqaning energetik qiymatini kamaytirmaydi. U qonga sekin so‘rilgani bois qondagi shakar miqdorini oshirmaydi. Jigarda juda tez glikogenga aylanadi va moddalar almashinuvi jarayonida qatnashadi. Fruktoza asalda, olmada, nokda, tarvuzda va boshqa mevalarda ko‘p bo‘ladi.

Galaktoza - sut shakarining tarkibiy qismini tashkil etadi, kuchsiz shirin ta‘mga ega. Fruktoza singari u qonda shakar miqdorini oshirmaydi.

Disaxaridlar - (saxaroza, laktoza, maltoza) shirin ta‘mli, suvda yaxshi eruvchan, inson tanasida 2 ta monosaxaridlar molekulasiga parchalanib, saxarozadan -glyukoza va fruktoza, laktozadan -glyukoza va galaktoza, maltozadan - 2 molekula glyukoza hosil qiladi.

Saxarozani - odam asosan shakardan oladi. Shakar tarkibida 99,7% saxaroza bo‘ladi. Qand lavlagi, sabzi, o‘rik, banan, g‘aynoli va boshqa mevalar tarkibida ko‘p miqdorda saxaroza bo‘ladi.

Laktoza - esa odam organizmiga sut va sut mahsulotlarini iste‘mol qilganda kiradi. Ichakdagi sut kislotasi bakteriyalarning faoliyatini yaxshilaydi, shu bilan birga chirituvchi mikroorganizmlarning rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Polisaxaridlar - murakkab uglevodlar bo‘lib, tarkibida ko‘plab glyukoza molekulalari bo‘ladi, suvda yaxshi erimaydi, ta‘mi shirin emas. Ularga kraxmal, glikogen va kletchatka kiradi.

Kraxmal - odam organizmda amilolitik fermentlar ta‘sirida asta-sekin glyukozaga parchalanadi. Organizmga quvvat beradi. Kraxmal–non, yormalar, makaron mahsulotlari, kartoshkada ko‘p bo‘ladi.

Glikogen - odam organizmiga oz miqdorda kiradi, chunki u go‘sht va jigarda bo‘ladi. Ovqat hazm qilish jarayonida glikozagacha parchalanadi. Organizmda glyukozadan hosil bo‘ladi va jigarda zahira quvvat manbai sifatida to‘planadi. Qonda shakarining kamayib ketishini (glikogen glyukozaga aylanadi) oldini olib, glyukoza miqdorini bir xilda ushlab turadi (80 - 120 mg.% yoki 4,4 - 6,6 m.mol.gr.).

Kletchatka - odam organizmidagi fermentlarda kletchatkani parchalovchi ferment bo‘lmaganligi uchun u hazm bo‘lmaydi. Ammo u ichak faoliyatini yaxshilab, organizmdan xolesterin ajralishini yaxshilaydi. Ichakning foydali mikloflorasini yaxshilaydi va ovqat hazm bo‘lishini stimullaydi. Barcha o‘simlik mahsulotlarida 0,5 - 3% gacha kletchatka bo‘ladi.

Pektinlar - uglevodlarga o‘xshash moddalar bo‘lib, odam organizmiga sabzavot va mevalar bilan birga kiradi. U organizmdan zararli moddalarni chiqib

ketishida muhim rol o'ynaydi.

Odam organizmining uglevodlarga bo'lgan ehtiyoji har bir kg.organizm og'irligiga 5 - 8,5 gr. yoki yoshiga, jinsiga va mehnat turiga qarab 275 - 602 gr.ni tashkil etadi. Engil hazm bo'ladigan uglevodlarning miqdori aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi kishilar va keksalar uchun organizmning ushbu moddaga bo'lgan kunlik ehtiyojini 15%, jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilar uchun 20 - 25 %ni tashkil etishi kerak.

Uglevodlar oddiy va murakkab uglevodlardan iborat. Oddiy uglevodlar (monosaxaridlar) glyukoza, fruktoza, glaktozalar bo'lib, suvda oson eriydi va ichakda tezda shimilib qonga o'tadi. Murakkab uglevodlar (disaxarid va polisaxaridlar) asosan ovqatlar tarkibida bo'ladi; sutlar, lavlagi, solid qandi kabilar disaxaridalar bo'lib, suvda oson erisa ham deyarli so'rilmaydi. Glikogen va kraxmallar polisaxaridlar bo'lib, ular suvda erimaydi va so'rilmaydi. Disaxarid lar va polisaxaridlargacha parchalanadi.

Uglevodlar organizmga non, sabzavot va mevalar bilan kiradi. Organizmdagi ortiqcha uglevodlar yog'larga aylanib, teri ostida, charvida va boshqa joylarda to'planadi. Qonda uglevodlar o'rtacha 80-80-120 mg % miqdordagi glyukoza holatida bo'ladi, ortiqchasi esa muskullarda, jigarda glikogen holatida saqlanib, organizmga kerak bo'lgan vaqtda (och ishlaganda) glikogen parchalanib glyukozaqa aylanib qonga shimilib, undagi glyukoza miqdorini bir me'yorda saqlaydi. Agar qonda glyukoza miqdori 80 mg% dan kamaysa, gipoglikemiya deyiladi. Bunda nerv hujayralarining funksional holati buziladi. Odam darmonsiz bo'lib, ochlikni sezadi. Uzoq davom etgan gipoglikemiya odam o'limigacha olib boradi. Odam ko'proq shirinlik qabul qilgan vaqtda qonda glyukoza miqdori 120 mg % dan oshib **giperqlikemiya** bo'ladi.

Qondagi ortiqcha glyukoza buyraklar orqali siydik bilan chiqadi. Glyukozaaning siydik bilan chiqishi surunkasiga davom etsa, unda diabet (qand kasalligi) paydo bo'ladi. Odatda ichakdan so'rilgan glyukoza me'da osti bezining insulin garmoni ta'siri bilan glikogenga aylanib jigarga to'planadi. Agarda insulin ajralish vaqti kechiksa yoki uning miqdori kamaysa, qondagi glyukozaaning glikogenga aylanish jarayoni buzilib, glyukoza siydik orqali tashqariga chiqadi. Natijada zapasdagi glikogen normadagi 350 g dan asta-sekin kamayadi. Shuning uchun qand kasalligida organizmdagi glikogen miqdorini bir me'yorda saqlash uchun insulin ukol qilinadi. Organizmdagi glyukoza va glikogen miqdorini va ularning parchalanish jarayonlarini nerv sistemasi boshqaradi. Simpatik nerv sistemasi ta'sirida adrenal gormoni (buyrak osti bezining miya qavatidan) ko'p ajralib (insulinga qarshi ta'sir ko'rsatib) glikogenning glyukozaqa aylanishi va ularning hujayralarida parchalanishi tezlashadi.

Suv va mineral moddalar

Mineral moddalar odam organizmidagi almashinmaydigan moddalar qatoriga

kirib, hayotiy zarur jarayonlarda, ya'ni suyaklarning shakillani shida, ishqor -kislota muvozanatini ushlab turishda, qon tarkibini suv va tuz almashinuvini me'yorlashtirishda, asab sistemasi faoliyatida muhim rol o'ynaydi.

Inson organizmida mineral moddalar turli xil-temir, fosfor, natriy, kalsiy, magniy, kaliy, oltingugurt, ftor, yodlarni birikmalari va boshqalar ko'rinishida saqlanadi. Masalan, temir qonni gemoglobi ni tarkibiga kiradi, u esa ho'jayra va organizm to'qimalariga kislorod ni etkazib beradi. Temirni qismi jigar va o't qopida joylashgan. Uni ovqat tarkibida kamligi kam qonlikni keltirib chiqaradi. Kalsiy, magniy, fosfor suyak tizimini asosini tashkil etadi. Fosfor va oltingugurt yangi ho'jayralarni tashkil bo'lishi jarayonida qatnashadi, undan tashqari asab tizimini normal ishlashi uchun fosfor zarur, shuning uchun ko'p aqliy ishlashda fosforga talab oshadi.

Organizmdagi mineral moddalar miqdoriga qarab makroelementlar, mikroelementlar va ultramikroelementlarga bo'linadi (yod, ftor, mis, kobelt).

Kalsiy - fosfor bilan bir qatorda suyak tarkibiga kiruvchi asosiy elementlardan hisoblanadi. Uni etishmasligi yoki ovqat tarkibida yo'q bo'lishi suyaklarni o'sishini to'xtatadi, suyaklar nimjon va tez sinuvchan bo'lib, oson deformatsiyalanadi, bu esa D vitaminini etishmasligi bilan bir vaqtda bo'lsa, raxit kasali bilan og'rishiga olib keladi.



7-rasm. Kalsiy elementga boy mahsulotlar.

Kaltsiy miqdorini yetishmasligi holi tishlarni sinishiga olib keladi. Kaltsiy - suyak, tishlarning rivojlanishida, asab va yurak ishlari faoliyatida ishtirok etadi.

Bolalar va yoshlarni ovqatlanishini tashkillashtirishda asosiy diqqatni kaltsiy miqdorini tarkibida bo'lishiga qaratish kerak. Yoshlikda kalsiy suyaklarni qurilishi va mustahkamlashga zarur. Bizning ovqatlanishimizda sut va uni qayta ishlab olingan mahsulotlar kaltsiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Sut mahsulotlari, tuxum, non, sabzavotlar, dukkaklilar kalsiy tuzlariga boydir. Insonni bu elementga sutkalik talabi 0,8 - 1,4 g ni tashkil etadi.

Fosfor ham kalsiy singari suyakni tarkibiy qismidir. Uning roli kalsiyni roli singari suyaklarni o'sishida va organizmni o'sish davrida zarurligi, bundan tashqari modda almashinishida qatnashadi shuningdek, fosfor asab to'qimalari tarkibiga kiradi; uni normal holati va faoliyati belgilangan darajada unga bog'liq. Fosfor -oqsil va yog'lar almashinuvida, suyak to'qimalarining hosil bo'lishida ishtirok etib, markaziy asab sistemasiga ta'sir qiladi.

U sut mahsulotlari, go'sht, baliq, non, dukkaklilarda ko'p uchraydi. Fosfor ovqat mahsulotlarida keng tarqalgan, shuning uchun unga etishmovchilik sezilmaydi. Nisbatan fosfor go'sht, miya, ko'k sabzivotlar tarkibida ko'p bo'ladi. Fosforga sutkalik talab taxminan 1,3 g.



8-rasm. Fosfor elementga boy mahsulotlar.

Magniy -asab, mushak, yurak sistemasiga ta'sir qiladi. Tomirlarni kengaytirish xususiyatiga ega. Sabzavotlar, sut, go'shtda ko'p uchraydi. Organizmning ushbu moddaga bo'lgan kunlik ehtiyoji 0,4 g.



9-rasm. Magniy elementga boy mahsulotlar.

Temir -qon tarkibini me'yorlashtiradi va organizmdagi oksidlanish qaytarilish jarayonlarida ishtirok etadi.

Temir qonning qizil tolachalari tarkibiga kiradi (qon pigmenti tarkibida bor - gemogloblin) va mushak to'qimalari (miogloblin). Undan tashqari, temir ayrim fermentlarni tarkibiy qismi hisoblanadi. Bularni hammasi bilan temirni organizmdagi

muhim roli belgilanadi, temirga sutkalik talab katta emas va 10 - 15 mg ni tashkil etadi.

Temir oziq-ovqat mahsulotlarida tez tez uchraydi, lekin har doim ham hazm qilish shaklida emas. Tuxum, sabzavot va mevalar tarkibidagi temir moddasi yaxshi hazm bo'ladi. Oziq-ovqatda temir miqdori kamligi yoki umuman yo'qligi «anemiya» deb ataluvchi kasallikka olib keladi.

U jigar, buyrak, tuxumda, sulida, grechka (marjumak)da, javdar nonda, olmada ko'p uchraydi.



10-rasm. Temir elementga boy mahsulotlar.

Xlor - to'qimalarining osmotik bosimini boshqarib, oshqozonda xlorid kislota hosil bo'lishida ishtirok etadi. U osh tuzi bilan qabul qilinadi. Organizmning ushbu moddaga bo'lgan kunlik ehtiyoji 5 - 7 gr.

Kaliy -organizmning suv almashuvida ishtirok etadi, suyuqlikni organizmdan chiqishiga yordam berib, yurakning ish faoliyatini yaxshilaydi. U turshakda, qoraqand, uzumda, noxotda, loviyada, kartoshka, baliq va go'shtda ko'p uchraydi. Organizmning ushbu moddaga bo'lgan kunlik ehtiyoji 5 g.

| Kaliyga boy mahsulotlar (K) | | | | |
|--|--|--|---|---|
| <p>Quritilgan o'rik</p> <p>Katag: 1717 (mg)</p> | <p>Loviya</p> <p>Katag: 1100 (mg)</p> | <p>Devgir karami</p> <p>Katag: 570 (mg)</p> | <p>No'xat</p> <p>Katag: 573 (mg)</p> | <p>Olto'ri</p> <p>Katag: 364 (mg)</p> |
| <p>Mayiz</p> <p>Katag: 360 (mg)</p> | <p>Bodom</p> <p>Katag: 745 (mg)</p> | <p>Fundak</p> <p>Katag: 717 (mg)</p> | <p>Yasmiq</p> <p>Katag: 572 (mg)</p> | <p>Yeryong'oq</p> <p>Katag: 555 (mg)</p> |
| <p>Kedr yong'o'i</p> <p>Katag: 525 (mg)</p> | <p>Xantal</p> <p>Katag: 500 (mg)</p> | <p>Kartoshka</p> <p>Katag: 500 (mg)</p> | <p>Keshyu</p> <p>Katag: 553 (mg)</p> | <p>Yong'oq</p> <p>Katag: 474 (mg)</p> |

11-rasm. Kaliy elementga boy mahsulotlar.

Oltiugurt -ayrim aminokislotalar, vitamin B₁, insulin garmoni tarkibiga kiradi. No‘xot, suli, pishloq, tuxum, go‘sh, baliqda ko‘p uchraydi. Organizmning ushbu moddaga bo‘lgan kunlik ehtiyoji 1 gr.



12-rasm. Oltiugurt elementga boy mahsulotlar.

Yod - qalqonsimon bez faoliyatida ishtirok etadi.

Yod shunday elementki, unga organizmni talabi katta emas. Shunga qaramay, yodni ahamiyati bor, chunki u bilan qalqonsimon bezlarni normal faoliyati bog‘liq. Organizmni o‘sishi davrida ovqatlarda yodni yo‘qligi har xil klinik va kretinizmni keltirib chiqaradi, kattalarda yod etishmasligi bo‘qoq hosil bo‘lishiga olib keladi. Bo‘qoq tog‘lik tumanlarda keng tarqalgan, chunki yod manbai bo‘lmish suv tarkibida bu element yo‘q. Shuning uchun tog‘lik tuman aholisi yodlangan tuz bilan ta‘minlanadi. U dengiz karami, dengiz baliq‘ida ko‘p uchraydi.



13-rasm. Yod elementga boy mahsulotlar.

Ftor - tish va suyak skeletini tuzilishida ishtirok etadi, ichimlik suvida uchraydi.

Mis va kobalt - qon hosil bo‘lishida ishtirok etadi.



14-rasm. Mis elementga boy mahsulotlar.

Mis ham qizil qon tanachalarini tashkil etishdagi elementlarning biri bo'lib, ayrim fermentlar tarkibiga kiradi. Oziq-ovqat tarkibida etishmasligi suyak buzilishi va tish emalini emirilishiga olib keladi. Hayvon va o'simlik mahsulotlarida ko'p uchraydi. Organizmning ushbu moddaga bo'lgan kunlik ehtiyoji 20 - 25gr.

Rux fermentlar va garmonlar tarkibiga kiradi va uglevod almashinuvida ishtirok etadi. Jigarda qizil qon tanachalari tashkil etishda katta rol o'ynaydi va V₁₂ vitamin tarkibiga kiradi.

| Rux elementiga boy mahsulotlar Zn | | | | |
|---|---|---|---|--|
| Jigar Qisq. 4 (m'g)CB, 5 (m'g) ruz, 6.5 (m'g) egg | Kedr yong'og'i Qisq. 4.28 (m'g) | Eritilgan pishloq Qisq. 3.5 (m'g) | Yeryong'og Qisq. 2.27 (m'g) | Mol go'shti Qisq. 3.24 (m'g) |
| Loviya Qisq. 3.21 (m'g) | No'xat Qisq. 3.18 (m'g) | Qo'y go'shti Qisq. 3 (m'g) | Cho'chqa go'shti Qisq. 3 (m'g) | Bug'doy Qisq. 2.8 (m'g) |
| Marjuna Qisq. 2.77 (m'g) | Arpa yormasi Qisq. 2.71 (m'g) | Suli yormasi Qisq. 2.65 (m'g) | O'rdak go'shti Qisq. 2.47 (m'g) | Kurka go'shti Qisq. 2.45 (m'g) |

15-rasm. Rux elementga boy mahsulotlar.

Natriy - kaliy bilan birga suv almashinuvini yaxshilaydi, suvni organizmda ushlab turadi, to'qimalarda me'yorli osmatik bosimni hosil qiladi, oziq-ovqat mahsulotlarida natriyning miqdori kam bo'lgani uchun uni osh tuzi sifatida qabul qilinadi. Organizmning ushbu moddaga bo'lgan kunlik ehtiyoji 4 - 6 gr.

Natriy va kaliy suv almashinishini muvofiqlashtiruvchilardir. Natriy tuzlari suvni organizmda ushlab turishga, kaliy tuzlari aksincha suvni organizmdan chiqarib tashlashga xizmat qiladi. Osh tuzi organizm ga oshqozon suyuqligida tuz kislotasini tashkil etishga zarurdir.

Inson organizmiga mineral moddalar almashinuvi uchun o'simlik va hayvon mahsulotlari zarur, bundan tashqari tarkibida xlorli natriydan boshqa yana kaliy

tuzlari, magniy va temir bo'lgan suv hamda osh tuzi zarur.

Yuqorida aytilgandek barcha mikroelementlar modda almashinuvida yaxshi rol o'ynaydi.

Mahsulotlarni kuydirish natijasida hosil bo'lgan **kul** miqdori ularning sifatini va xususiyatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Kul tarkibini tekshirib mahsulotlar tarkibida qanday mineral moddalar borligini aniqlash mumkin bo'ladi.

Mineral moddalar organizmni tiklash va normal rivojlanishi uchun zarurdir. Ayniqsa, fosfor, kalsiy, temir, magniy, natriy, xlor va yod moddalari kundalik oziq tarkibida bo'lishi lozim. Kalsiy va fosfor tuzlari suyaklarni qotirish va o'stirish uchun zarurdir. Yod organizmda bo'qoq kasalligining rivojlanishini oldini oladi va boshqalar.

Kul ayrim tovarlar sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Masalan, un, yorma, kraxmal, kofe va shu kabi mahsulot-larda kul miqdori qancha ko'p bo'lsa, sorti shuncha past bo'ladi. Masalan, a'lo sort unning kuli 0,55%, 1 sortniki - 0,75 va 2 - navniki - 1,25% ni tashkil etadi.

Tovarshunoslikda mahsulotlarning tavsifatini aniqlashda bu usul keng ravishda qo'llaniladi.

Inson organizmiga kerakli mineral moddalarning bir kunlik me'yori taxminan 0,8 - 1,0 g kaliy, 1 - 1,5 g fosfor, 2,5 - 5 g kaliy, 4 - 6 g natriy, 0,015 - 0,020 g temir, 0,3 - 0,5 magniy, 0,1 - 0,2 g yodlar va boshqalarni tashkil etadi.

Suv

Inson organizmida suvni bo'lishi hayot uchun zarurdir. Suv barcha organlar va to'qimalar tarkibida bo'lib, organizmda bo'ladigan barcha jarayonlarda moddalar almashinuvida, oziqlantiruvchi moddalar xarakterlanishida va tanadagi haroratni me'yorlashda ishtirok etadi. Tirik organizmda bo'ladigan hamma fiziologik o'zgarishlar suv ishtirokida bo'ladi. Suv hamma oziqa moddalarini eritib, organizmda o'zlashishini osonlashtiradi. Suvsiz hayot yo'q. Organizmda suv 20% kamaygan taqdirda hayot to'xtaydi.

Shuning uchun inson ovqatsiz 20 va undan ortiq kun yashashi mumkin, suvsiz esa atigi 3-4 kun.

Suv odam organizmini faoliyatida muhim rol o'ynaydi. U organizm og'irligining 2/3 qismini tashkil etadi. Suv oziq-ovqat mahsulotlarida ikki xil ko'rinishda uchraydi. Biri mahsulot suvlari (sharbat, zardob, sel va suv tomchilari) ko'rinishida bo'lib, ularni quritish, presslash yo'li bilan ajratib olish mumkin. Bu suvlar mahsulot xususiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi va tayyor mahsulotning sifatini, ovqatlik qiymatini va saqlash muddatini belgilovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ikkinchisi birikma holda uchraydi. Bunday suvlar molekulyar holatda ayrim moddalar bilan birikkan bo'ladi va tovar xususiyatlariga uncha ta'sir ko'rsatmaydi. Ular kolloid va kristall

ko‘rinishida uchraydi. Bu suvlar faqat kimyoviy o‘zgarishlar natijasida ajralishlari mumkin.

Suv xujayralararo aloqani ta‘minlab, barcha suyuq komponentlarning hosil bo‘lishida ishtirok etadigan muhitdir. Suv ishtirokida moddalar almashinuvini hamda issiqlik almashinuvini va boshqa biologik jarayonlar amalga oshadi. Har kuni odam o‘zidan ter bilan 500 gr., havo bilan 350 gr., siydik bilan 1500 gr, ahlat bilan 150 g suv ajratadi. Inson yoshi mehnat turi va iqlim sharoitiga qarab 2 - 2,5 l suv iste‘mol qiladi. U issiq kunlarda va og‘ir jismoniy mehnat qilganda 5-6 l gacha suv iste‘mol qiladi. Ortiqcha suv iste‘mol qilish yurak, qon tomir sistemasi, buyrakka salbiy ta‘sir qiladi. Odamning ichak faoliyati buzilganda suv qonga so‘rilmay organizmdan chiqib ketadi, natijada organizm suvsizlanadi va hayoti xavf ostida qoladi.

Organizmdagi suv almashinuvi markaziy asab tizimi orqali boshqarilib, kaliy va natriy moddalarning almashinuvi bilan uzviy bog‘liqdir. Organizmning ko‘p suv yo‘qotishi yoki ortiqcha osh tuzining iste‘mol qilinishi qon plazmasidagi osmotik bosimni kamaytiradi, chanqoqni kuchaytiradi va odamning suvga bo‘lgan soxta ehtiyojini oshiradi. Og‘iz qurib, organizmning me‘yorli faoliyati izidan chiqadi.

Mahsulotlar tarkibidagi suv miqdori tashqi muhit ta‘sirida ham o‘zgarishi mumkin. Tashqi muhit –havo haroratining va namligining o‘zgarishi natijasida o‘zgaradigan suv miqdoriga gigroskopik suv deb ataladi. Gigroskopik suv miqdori oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash davrida katta ahamiyatga ega. Bu suvning miqdori o‘zgarishi tovar sifatiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Mahsulotlardagi suv miqdori, moddalarning suv tortish xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Ayrim mahsulotlarda suv miqdori ko‘p bo‘lsa ham tashqi ko‘rinishida namligi sezilmaydi. Masalan, kartoshka kraxmalida suv miqdori 20 %ni tashkil etganda ham quruq bo‘ladi. Jo‘xori kraxmalida esa suv 13% bo‘ladi, bundan oshganda namligi sezilib turadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida suv miqdori turlicha bo‘ladi. Sabzavot va mevalarda 70 - 94% sutda 85 - 87, nonda 40 - 45, unda 14 - 15% va qandlarda 0,1 - 0,2 %-gacha bo‘ladi. Suv miqdorining mahsulot tarkibida qanday miqdorda bo‘lishi uni ovqatlik qiymatiga va saqlash muddatiga ta‘sir etadi. Mahsulot tarkibida suv qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik uning to‘yimlilik past bo‘ladi.

Tarkibidagi suv miqdoriga qarab hamma mahsulotlar 2 ga bo‘linadi. Tarkibida suvi 10 - 15 %dan oshmagan mahsulotlar odatda normal sharoitda yaxshi saqlanadi.

Suv miqdori 40 - 50% dan oshiq bo‘lgan mahsulotlar tez buziluvchan mahsulot deb ataladi, bu mahsulotlarni saqlash uchun alohida sovuq sharoit yaratilishi shart.

Ayrim mahsulotlar (ho‘l sabzavot, meva) tarkibidagi suv miqdorining kamayishi ularning sifat ko‘rsatkichlarini pasayishi-ga olib keladi, shuning uchun har qanday mahsulot tarkibidagi suv miqdori belgilangan miqdorda saqlash va uning o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

O‘rta hisobda insonni suvga bo‘lgan ehtiyoji 1750 - 2200 g. bu me‘yorni bir

qismini (700 g) inson oziq - ovqat bilan oladi. Masalan, meva va sabzavotlarda 80-95 % suv bor; nonda 40-50 % va boshqalar. Qolgan qismi (1050 - 1500 g) organizmga choy, kofe, kompot kabilar bilan kiradi.

Issiq iqlim sharoitida suvga bo'lgan talab 5-6 marta oshadi. Ammo suvni me'yoridan ortiq iste'mol qilinishi organizmdagi mineral moddalar va vitaminlarni yuviliyu ketishiga sabab bo'lib, yurak va buyrakka ortiqcha og'irlik olib kelishi mumkin.

Insonni suvni iste'mol qilishi tashnalikni (chanqoq) sezishiga bog'liq. Ammo yuqori haroratda og'iz qurishi tashnalik deb qabul qilinadi. Bunday holda suvni ko'p miqdorda ichish emas, og'izni 3-4 qultum suv bilan ho'llash maqsadga muvofiqdir.

Suv va mineral tuzlar almashinuvi

Suv va mineral tuzlar. Ovqat hazm qilish organlaridan qonga so'rilib o'tgan moddalar hujayralar tomonidan o'zlashti riladi va ularda nihoyatda murakkab o'zgarishlar zanjiri hosil bo'ladi. Suv va mineral tuzlar ovqat hazm qilish organlarida parchalanmaydi. Shuning uchun organizmda oqsillar, yog'lar va uglevodlar o'zgarishi haqidagi murakkab masalaga o'tishdan oldin organizm uchun anorganik birikmalar qanday ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Qon, limfa va ovqat hazm qilish shiralari tarkibida ham suv juda ko'p. Sitoplazma va hujayralarning yadrosi yarim suyuq holda bo'ladi. Bularning tarkibidagi suv boshqa moddalarga qaraganda anchagina ortiq. Organizmning hayot faoliyatini belgilaydigan hujayra moddalarining ko'pdan-ko'p eng murakkab o'zgarishlari faqat suvli eritmalardagina sodir bo'lishi mumkin.

Ammo organizm hamma vaqt tarkibidagi suvni yo'qotib turadi. Suv odam tanasidan siydik va ter bilan, shuningdek nafas chiqarilgandagi havo bilan suv bug'lari holida chiqarib turiladi. Shuning uchun organizmdagi suv miqdori doimiy ravishda to'ldirib turilishi kerak. Odam suvsiz faqat bir necha kun yashashi mumkin.

Odam organizmining 2/3 qismini suv tashkil qiladi. Suv hujayralararo bo'shliqda, hujayralarning tarkibiy qismida bo'ladi, qon va limfaning suyak qismini ko'p suv tashkil etadi. Suv organizm da moddalarning parchalanishi jarayonida hosil bo'ladi. Bundan tashqari suv organizmga qabul qilingan suyuqliklar va ovqatlar bilan birga ham kiradn. Va aksincha, organizmda bir kecha-kunduzda o'rtacha 1,5-2,0 l suyuqlik (buyrak orqali 500-800 ml, nafas yo'li orqali va havo bilan 500-600 ml, ter bilan 500-600 ml) tashqariga chiqadi. Organizmdagi suv na mineral tuzlar miqdori hamisha bir xilda bo'lishi zarur. Suv miqdori organizmda kamaysa, qon quyuqlashadi, yurak urishi tezlashadi, og'iz quriydi. Chidab bo'lmas darajada chanqash bo'ladi. Odam suyuqlikni kam qabul qilsa, hujayralardagi suyuq muhitlar yangilanmaydi. Natijada, moddalar almashinuvida hosil bo'lgan chiqindilar tashqariga chiqarilmay di, oqibatda organizm zaharlanib o'ladi. Aksincha, to'qimalarda suv to'plansa shish paydo bo'ladi. Bunda to'qimalar hajmi kattalashib, bo'shashadi. Barmoq bilan bosilgandagi

chuqurcha uzoq saqlanadi. Shishgan to‘qima xujayralari oralig‘idagi suyuqliklar ular oralig‘ini kattalashtiradi. Shu bilan birga organizm bo‘shliqlarida ham suyuqlik to‘planishi (istisqo) kuzatiladi. To‘qima va organizm bo‘shliqlarida suyuqlik to‘planishiga transsudat deyiladi.

Suyuqlikning to‘plangan joyiga qarab transsudat turlicha nom bilan ataladi: qorin bo‘shlig‘iga suyuqlik to‘plansa istisqo-assit, plevra bo‘shlig‘iga to‘plansa-gidrotoraks, yurak pardasi bo‘shlig‘iga to‘plansa-gidroperikard, miya bo‘shlig‘iga to‘plansa-gidrotsefaliya, qonning parda bo‘shlig‘iga to‘plansa-gidrotsele deb ataladi. Shishlar va istisqolar ko‘pipcha yurak faoliyatining sustlashishi, qon aylanishining sekinlashishi va venoz kapilyarlardagi bosimning ortishi tufayli paydo bo‘ladi. O‘ta ochlik og‘ir kasalliklar, buyraklar faoliyatining buzilishi, zaharli moddalarning ta’siri va turli shikastlanishlar ham shishlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Odatda 15ga yaqin turli ximiyaviy elementlar organizmga suv va ovqatlar bilan kiradi. Jumladan, osh tuzi-10 g, kaliy-1 g, magniy-1,5 g, fosfor-0,8 g, temir-0,001 mg, kalsiy-0,012 g va juda kam miqdorda mis (0,0003 g), marganets, yod (0,0003 g) va boshqalar. Bu elementlar turli to‘qimalarda turlicha tarqalgan. Masalan, qon gemoglobinida mis va temir, suyaklar tarkibida kalsiy na fosfor, qalqonsimon bez hujayralarida yod ko‘proq bo‘ladi.

Organizmga ximiyaviy elementlar miqdori doimo bir xil bo‘lishi kerak. Shuning uchun organizmga qancha miqdorda mineral moddalar kirsa, shuncha miqdorda tashqariga chiqib turadi. Organizmdagi suyuqlik tarkibida 0,9-1,0 % osh tuzi eritmasi bo‘lib, ular hazm shiralarning ko‘p miqdorda ishlanib chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi va ularning tarkibida bo‘ladi; qo‘zg‘alish, tormozlanish va muskullar qisqarishida muhim rol o‘ynaydi. Mineral moddalar almashinuvining buzilishi ko‘proq qalqonsimon bez orqa tolalari funksiyalarining o‘zgarishida kuzatiladi.

Osh tuzi organizmdagi osmatik bosimni bir xilda saqlab turadi. Ovqat tarkibidagi osh tuzi surunkasiga bo‘lmasa, unda odamni o‘limga olib keladi. Organizmda osh tuzi miqdorini bir me’yorda saqlashda buyraklar muhim rol o‘ynaydi.

Yuqorida keltirilgan elementlardan tashqari, organizmda juda kam miqdorda zarur bo‘ladigan elementlar (bularga mikroelementlar deyiladi) ham qabul qilinadi. Anemiya bo‘lmasligi uchun kobalt (vitamin B₁₂ tarkibida bo‘ladi), tishlarning mustaxkamligini saqlash uchun fluor va qonda karbonat angidrid gazini biriktirish uchun rux (karboangidraza fermenti tarkibida) qabul qilinadi.

Ovqat miqdori va tarkibi odam extiyojini qondirish, salomatligi va ish qobiliyatini saqlash, bolalarning to‘g‘ri o‘shini ta’minlash kerak. Jumladan, jismoniy mehnat bilan shug‘ullanmaydigai odamlarga bir kecha-kunduzda o‘rtacha 3000 kKal kerak, buning uchun 100g oqsil, 90g yog‘, va 400g uglevod, mineral tuz, vitaminlar, osh tuzi va suv qabul qilishi kerak. Jismoniy ish vaqtida ovqat tarkibidagi oqsil, yog‘ va uglevodlar miqdori ko‘payishi zarur. Bordini-yu oqsillar 200g dan, yog‘lar 150g

dan oshib ketsa, ovqat hazm bo'lishi buziladi. Og'ir jismoniy ish jarayonida uglevodlar miqdori oshishi kerak bo'lsa, ozish uchun uning miqdori kamayishi tavsiya etiladi.

Vitaminlar

Vitaminlar - tirik organizmda bo'ladigan jarayonlarni biologik jihatidan tartibga soluvchi va katalizatorlik vazifasini o'tovchi, turlicha kimyoviy tabiatli quyi molekulyar organik birikmalardir.

Oziq-ovqat tarkibida ba'zi mahsulotlarning bo'lmasligi tufayli organizm turli og'ir kasalliklarga duchor bo'lishini insoniyat qadim zamonlarda ham bilgan, lekin faqat 1882 yilda rus olimi Nikolay Ivanovich Lunin tomonidan bunday mahsulotlar organizm uchun zarur ekanligi tajriba asosida tasdiqlandi. Polyak biokimyogari Kazimir Funk bunday moddalarni *vitaminlar* deb nomladi, ya'ni lotincha «vita» vita so'zi-hayot, amin - azot guruhi demakdir, ya'ni hayotaamin deb, so'ngra vitaminlar deb nom beradi.

Inson organizmining turli kasalliklarga chalinmasligi uchun oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida ma'lum miqdorda vitaminlarning bo'lishi zarur, chunki organizm ularni etarli darajada sintez qila olmaydi. Organizmda vitaminlarning etishmasligi yoki ular-ning bo'lmasligi organizmni *gipovitaminoz* va *avitaminoz* deb ataladigan kasalliklarga olib keladi. Hozirgacha vitaminlar vazifasini bajaruvchi 30 dan ortiq birikmalar ma'lum. Bular ichida vitaminlar va vitaminsimon birikmalar bo'lib, faqat vitaminlarning o'zi 20 dan ortiqdir. Vitaminlarni shartli ravishda lotin harflar bilan belgilanadi (A, B, C, D, E).



16-rasm. Oziq-ovqat mahsulotlarda vitaminlar uchrashi

Organizmda vitaminlarning yetishmasligi natijasida avitaminoz kasalliklari paydo bo'ladi. Vitaminlar deyarli barcha oziq - ovqat mahsulotlarida uchraydi.

Vitaminlar inson organizmdagi hayotiy jarayonlarni muvofiqlaydilar. Inson organizmi ularni sintez qilolmaydi, shuning uchun ularni oziq-ovqatlar bilan qabul qilishi kerak.

Vitamin etishmasligidan yuzaga keluvchi kasallik «gipovita-minoz» deyiladi. Vitaminlarni yoʻqligi yoki uzoq muddat etishmas-ligi natijasi avitaminoz deyiladi.

Gipovitaminoz bilan ogʻrigan insonda umumiy (boʻshashlik) holsizlik, tez charchash, ishlash unumdorligi pasayishi, yomon uyqu, bosh ogʻriqlari, asabiylashish, teri va shilliq qobiqlarini rang oʻzgarishi kuzatiladi.

Avitaminozlar modda almashinuvi buzilishi, jiddiy buzilish-lar va har xil ogʻir kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Vitaminlar belgilariga va eruvchanligiga qarab ikki guruhga va vitaminsimon moddalarga boʻlinadilar:

- 1) suvda eriydigan - (B guruh vitaminlar, C, P va PP vitaminlar va boshqalar);
- 2) yogʻda eriydigan vitaminlar - (A, D, E, K);
- 3) vitamanga oʻxshash moddalar U, B₄ (xolin) va B₁₅ (pangan kislotasi) va boshqalar.

Suvda eruvchi vitaminlar B gruppasi vitaminlariga B₁, B₂, B₆, B₁₂, PP, feliy kislotasi va xolinlar kiradi.

Insonning vitaminlarga boʻlgan talabi uning yoshiga, sogʻligʻi-ning holatiga, hayot sharoitiga, ish faoliyatiga, yil fasliga va qolaversa qanday mahsulotlar isteʼmol qilishiga bogʻliq boʻladi.

B₁ vitamini (anevrin, tiamin) almashinuv jarayonini yaxshilaydi, ayniqsa, uglevod almashinuvini yaxshilaydi, asab sistemasiga ijobiy taʼsir qiladi, oʻsish jarayonini yaxshilab organizmni yuqumli kasalliklarga qarshilikni oshiradi.

B₁ vitaminining organizmda etishmasligi asab tizimining buzilishiga, yaʼni polinevrit “beri - beri” kasalligiga sabab boʻladi. Yurak xastaligi kasalligini davolash uchun ahamiyati katta.

Vitamin B₁ javdar bugʻdoyi (asosan murtak, meva va urugʻ qobiqlarida) grechixa (majmuasida, suli) oʻsimliklari tarkibida bor. Shuning uchun oboyli pomolli undan tayyorlangan javdar va bugʻdoy nonida navli undagiga nisbatan koʻpdir. Bundan tashqari, bu vitamin sabzavot, hoʻl meva va qoʻziqorida, hayvonat mahsulotlarida esa - jigar, buyrak va yogʻsiz choʻchqa goʻshti tarkibida ham bor. Aynan B₁ vitamini xamirturushga boy. Organizmning ushbu moddaga boʻlgan kunlik ehtiyoji 1, 3 - 2, 6 mg.

Vitamin B₂ (riboflavin, laktoflavin) - moddalar almashinuvida ishtirok etadi, oʻsishga yordam berib, koʻrishni yaxshilaydi. Riboflavin sargʻish rangli ignasimon kristall, achchiq mazali modda. B₂ vitamin fermentlarga koferment vazifasini bajaradi, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida katalizatorlik rolini oʻynaydi. Uning etishmasligidan oshqozon sekretsiya bezlarining faoliyati pasayadi, koʻrish yomonlashadi, teri dagʻallashadi. organizm toʻqimalarining oʻsishiga katta taʼsir etadi, oziq-ovqat hazm qilishi, uglevod va oqsil almashinuvida ishtirok etib, hazm qilish organlari, asab sistemasi va yurakni ishlashini muvofiqlaydi.

Bu vitamin tanqisligi yoki yo'qligi natijasida o'sish to'xtaydi, og'iz bo'shlig'i shilliq pardasi shamollashi, terida bitmas yaralar paydo bo'lish va asab sistemasini buzilishi kuzatiladi. Bundan tashqari B₂ vitaminni yetishmasligi soch to'kilishi va ko'z qorachig'idagi o'zgarishlar tufayli ko'rish qobiliyati yomonlashadi.

B₂ vitamini (drojji) achitqi, tuxum, suzma, pishloq, qora va oq un nonlarida, vetchina, ko'k no'xot, grechkada (majmurak), sutda, mol, qo'y, cho'chqa go'shtida, baliqda, sabzavot va mevalarda bor.

Organizmning ushbu moddaga bo'lgan kunlik ehtiyoji 1,5 - 3 mg.

Vitamin B₆ (piridoksin, adermin) - moddalar almashinuvida ishtirok etadi va organizmda yog' va oqsil almashinuvi va qon aylanishi sistemasi ishida katta rol o'ynaydi. B₆ vitamin fermentlar tarkibida ishtirok etib, organizmda amino- va moy kislotalarni sintezlashda va ularni boshqa moddalarga aylanishida muhim vazifani bajaradi. Nerv tizimi, qon aylanishi va jigar faoliyatini yaxshi o'tishida kerakli vitamindir. Uning organizmga etishmasligi (teri kasalligi) dermatitga sabab bo'ladi va asab tizimi buzilib, tomirlar holati yomonlashadi. Bu vitamin tabiatda keng tarqalgan. U go'shtli mahsulotlarda, baliqda, loviyada, kartoshkada va sutda ko'p bo'ladi. Piridoksin yuqori haroratda, ishqor, kislota ta'siriga chidamli, lekin yorug'lik ta'sirida parchalanib ketadi.

Organizmning ushbu moddaga bo'lgan kunlik ehtiyoji 1,5 - 3 mg.

Vitamin B₁₂ - (sianokobalamin) - qon hosil bo'lishida va moddalar almashinuvida ishtirok etadi. B₁₂ vitaminning struktura formulasi boshqa vitaminlarga qaraganda ancha murakkab bo'lib, uning molekulasida bir atom kobalt metali bo'ladi. Bu vitaminning organizmga etishmasligi oqibatida og'ir kasalliklar kelib chiqadi va hatto o'limga (qon raki) olib keladi. Bu anemiya (kamqonlik) kasalligi bo'lib, bunda qondagi gemoglobin miqdori kamayib ketadi, quvvatsizlanish, ishtahani bo'g'ilishi kabi noxush hollar organizmda seziladi. U mol jigari, buyragi, baliq, pishloq, tuxum va sut tarkibida bo'ladi. B₁₂ vitamini anemiya, polinevrit va radikulit kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Organizmning ushbu moddaga bo'lgan kunlik ehtiyoji 0,002 – 0,005 mg.

Vitamin C (askorbin kislotasi) odam organizmida oksidlanish qaytarilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi va organizmni yuqumli kasalliklariga qarshiligini orttiradi, uglevod va oqsil almashinuviga ta'sir etadi. C vitamin kristall modda bo'lib, 190 haroratda suyuqlanadi, kuchli qaytaruvchi. Inson hayoti uchun juda muhim vitamin, singa kasalligini oldini oladi, markaziy asab tizimining faoliyatini yaxshilaydi. Organizmda vitamin C etish-masligi turli kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

C vitamini etishmasligi organizm tez xorishi, milklar qonashiga, uning yo'qligi esa singa kasalligiga olib keladi. Bu kasallik organizmdagi mayda qon tomirlari (kapillyarlar) zararlaydi, milk shishadi, tishlar qimirlab to'kiladi, teri osti qon tomirlari

yoriladi, badanda qizil toshma paydo bo'ladi, muskullar shishadi. Singa kasalligini og'ir formasi o'limga olib keladi. Asosan o'simlik mahsulotlarida, ayniqsa namatak mevasi, qora smorodina, qizil qalampir, petrushka, ukropda ko'p uchraydi. Organizmning bir kunlik ehtiyoji 55 - 108 mg.ni tashkil etadi.

C vitamini barcha sabzavotlar, tuzlangan karam, kartoshka, mevalar, sabzavot va meva konservalari tarkibida bor. C vitamini ayniqsa qizil garmdori, ukrop va sitrus mevalari boydir.

C vitamini tez buzilishini inobatga olib, mahsulotlarni qayta ishlashda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

a) barcha sabzavotlarni yorug'lik tushmaydigan, yaxshi shamollaydigan, harorati 1 - 3 °C, havo namligi 85 - 90 % bo'lgan omborlarda saqlash lozim. Bu sharoitlarga javob bermaydigan sharoitda saqlansa, sabzavotlarni so'lib, C vitamini yo'qolishiga olib keladi;

b) sabzavotlarni yupqaroq artish zarur, chunki vitaminlarni ko'pi yuzasida joylashgan bo'ladi. Kartoshkani tozalash mashinasida tozalash vaqti 1,5 - 2 minutdan oshmasligi zarur;

v) sabzavotlarni artish moslamalari zanglamas materialdan bo'lishi shart, chunki oddiy temir bo'laklari C vitaminini buzilishiga olib keladi;

g) artilgan kartoshkani 2 - 3 soatdan ortiq suvda ushlab turish mumkin emas, C vitamini suvda yaxshi erishini inobatga olib, to'g'ralgan sabzavotlarga tezda issiqlik ishlovi berish lozim;

d) tuzlangan karamni tuzli suvidan ajratib olib saqlash mumkin emas, chunki tuzli suvi kisloroddan saqlab vitaminni jarayonida sekinlashtiradi;

e) to'g'ralgan va tozalangan sabzavotlarni sovuq emas, qaynab turgan suvga solib, usti yopiq idishda qaynatish tavsiya etiladi;

j) suyuq taomlarga sabzavotlarni baravar tashishga harakat qilib solish lozim, vitamini yo'qolmasligi uchun, ortiqcha qaynatib yubormaslik lozim;

z) tarkibida C vitamini bo'lgan mahsulotlarni tagi zararlangan yoki emali ko'chgan idishlarda pishirish mumkin emas, chunki bunda temir tuzlari vitaminni yo'qolishiga olib keladi;

i) qaynatilganda sabzavotlar suv yoki sho'rva bilan butunlay qoplanishi lozim;

k) suyuqlikni qattiq qaynab toshishdan asrash lozim, chunki bunda vitaminlar parchalanib ketadi, qozonni hadeb kavlash va sabzavotlarni idishdan olib ko'rish tavsiya etilmaydi;

l) suyuq taomlar ustida yog' qatlamini qoldirish kerak, chunki yog' C vitaminini saqlaydi;

n) mahsulotlarni iste'molga pishishi bilan tarqatish zarur, salatlar, vinegretlarga iste'mol qilishdan biroz oldin solmoq lozim;

m) sabzavotlar qaynatilgan suvni sho'rvalarshga solish lozim;

o) taomni qayta - qayta isitish, vitaminlarni parchalanishiga olib keladi.

Ovqatni C vitamini bilan boyitishi uchun xonaki va yovvoyi ko'katlardan foydalaniladi.

Vitamin P (C₂ - vitamin deb ham yuritiladi; sitrin va ba'zi flavonoidlar) - kapillyarlarni mustahkamlab qon tomirlarining o'tkazuvchanligini yaxshilaydi. P vitamini mahsulotlarda C vitamini bilan birga uchraydi va organizmda uni o'zlashishini osonlashtiradi.

Vitamin yetishmasligi natijasida qon tomirlarining devor hujayralari mo'rtlashadi, teri va shilliq pardalarda qon quyulishiga olib keladi. P vitamini sabzavot, meva, yeryong'oqda, ko'katlar va choy yaproqlarida bor. Tananing ushbu moddaga bo'lgan kunlik ehtiyoji 3,5 – 5,0 mg.

PP (nikotin kislota) vitamini ham B guruh vitaminlarga kiradi shuning uchun uni B₅ bilan belgilash mumkin. Boshqacha nomi – *niatsin*. U organizmda modda almashinuvida ko'p fermentlar tarkibida borligi uchun ishtirok etadi. Bu vitaminning son organizmda etishmasligi lanjlik, tez toliqish, uyqusizlik, yurakning tez-tez urishi va yuqumli kasalliklarga oson chalinish oqibatlariga sababchi bo'ladi. Bu vitaminni organizmda yo'qligi «pellagra» (terini g'adir-budur bo'lish) og'ir kasalligi, ya'ni terida dog'lar paydo bo'ladi, og'iz bo'shlig'ining qurishi, oshqozon va asab tizimining buzilish hollari kuzatiladi. Bu vitamin hayvonlarning jigar, buyrak va yuragi, baliq go'shtlari, sut va sut mahsulotlari, grechka (majmurak), qora nonda bo'ladi.

Triftofani aminokislota PP provitamindir. PP vitamin yorug'lik, kislorod va ishqor ta'siriga chidamli. Shuning uchun u oziq-ovqat mahsulotlarida saqlanib qoladi. Pazandachilikda oziq-ovqat mahsulotlari qaynatilganda atigi 25% niatsin vitamini sho'rvaga o'tishi mumkin. PP ga bo'lgan ehtiyoj 1,5 – 2,6 mg.

B₉ (folat kislota) vitamini kamqonlikni oldini olish, oqsil almashinuvi va boshqa xolin vitamini hosil bo'lishida katta rol o'ynaydi.

Foliy kislota yo'qligi yoki yetishmasligi - ozuqaviy kamqonlik kasalligini rivojlanishiga olib keladi. bu kasallik oqibatida oq va qizil qon sharchalari va qon plastinkalari hosil bo'lishi buziladi. Foliy kislota drojji (achitqi), jigar va ko'katlar tarkibida bo'ladi. B₉ vitaminiga bo'lgan ehtiyoj – 0,2 - 0,5 mg gacha.

Xolin jigar va buyrak ishini me'yorlaydi, organizmdagi barcha to'qima va nafaslar tarkibiga kiradi. Xolin yo'qligi yoki etishmasligi jigarni yog' boshishi va pochkalar zararlanishiga olib keladi. Kundalik xolinga bo'lgan ehtiyoj 0,5 – 1 mg.

Vitaminlar – turli kimyoviy tabiatga ega quyi molekulyar organik birikmalar bo'lib, tirik organizmda kechadigan jarayonlarning katalizatori, bioregulyatori hisoblanadi. Insonni hayot faoliyati uchun vitaminlar oz miqdorda zarur bo'ladi, lekin ular organizmda etarli miqdorda sintez bo'lmaganligi tufayli tashqaridan oziq-ovqat mahsulotlari bilan kelib tushishi kerak.

Hozirda vitaminlarga kiritilgan 30 dan ortiq birikmalar aniqlangan. Ayrim mahsulotlarda provitaminlar, ya'ni organizmda vitaminlarga aylanish qobiliyatiga ega birikmalar mavjud. Misol uchun β -karotin vitamin A ga aylanadi, ergosterollar ultrabinafsha nurlar ta'sirida inson organizmida D vitaminiga aylanadi.

Insonni vitaminlarga bo'lgan talabi yoshiga, sog'liq holatiga, yashash sharoitiga, bajaradigan ishiga, faslga, oziq-ovqat mahsulotida asosiy oziqaviy komponentlar borligiga bog'liq.

B₁ vitamini (tiamin, $C_{12}H_{17}ON_4S$) tiaminning aniqlanishi vitamin so'zining hosil bo'lishiga olib keldi (lotincha vita-hayot, amin-azoti bor birikma degani).

1912 yili Kazmur Funk beri-beri kasalligiga qarshilik qiluvchi omilni guruch kepaklari ekstraktidan ajratib oldi va uni vitamin hayot uchun zarur modda (amin) deb nomladi. 1936 yili Robert Vilms bu vitaminni kimyoviy formulasini e'lon qildi va uni ishlab chiqarish boshladi.

Tiamin uglevodlar parchalanish reaksiyasini boshlab beruvchi kalit molekula hisoblanadi. Tiaminni etishmasligi asab sistemasini ishini buzilishiga, polinevritga (beri-beri), mushaklarni charchashiga, psixikani buzilishiga va oqibatda yurak yetishmovchiligi hamda depressiyaga olib keladi.

B₁ vitaminning ta'siri B₂, B₆, B₁₂ vitaminlar mavjud bo'lganida kuchayadi. Katta odamlarga tiaminga bo'lgan sutkalik talab 1,1 1,4 mg ni tashkil etadi. Tiaminning asosiy manbalari bo'lib quritilgan pivo achitqilari, butun donlar, yong'oqlar, dukkakli o'simliklar va hayvondan tayyorlangan ozuqalar hisoblanadi.

Bug'doy oily navli un olinganida hamda guruch sayqallanganda kepaklardagi tiaminni yo'qotadilar. B₁ vitaminini yo'qotish 90% ni tashkil etadi.

Oq unni, makaron mahsulotlarini, guruchni vitaminlashtirish birinchi bo'lib AQSHda (1939-1945 yillar) boshlangan bo'lib, keyinchalik boshqa davlatlarga namuna bo'ldi.

Hozirgi vaqtda ko'pgina mamlakatlarda ishlab chiqaruvchi tomonidan unni, nonni, don mahsulotlarini B guruhidagi vitaminlar bilan boyitish davlat organlari tomonidan nazoratga olingan.

B₂ vitamini (riboflavin, $C_{17}H_{20}N_4O_6$). 1933 yili Kun, Georgi va Vagner-Yoreg tuxum oqidan sariq, kristalli modda, hujayralarni o'sishini ta'minlovchi vitamin B₂ ni ajratib oladilar. B₂ vitaminini tirik organizmda kechadigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida katalizatorlik vazifasini bajaradi. Agar u yetishmasa teri kasalliklari, og'iz bo'shlig'ini shilliq qavatini shamollashi, lab chetida yoriqlar paydo bo'lishi, qon hosil bo'lish sistemalarida va oshqozon-ichak sistemalarida kasalliklar kelib chiqishiga olib keladi. Kattalarda o'rtacha sutkalik talab 1,5.....2,4 mg ni tashkil etadi.

Riboflavin – barcha o'simlik va hayvon hujayralarda mavjud, lekin ayrim mahsulotlar uning boy manbai hisoblanadi. Ularga jigar, sut, tuxum, sabzavotlar,

ko'katlar va donli ekinlar kiradi. Riboflavin suvda yaxshi erimaydi (0,007% xona haroratida), lekin uning to'q sariq rangi oziq-ovqat mahsulotlarida bo'yovchi sifatida ishlatishga imkon beradi. Riboflavin "bul'on kubiklari" tez tayyorlanuvchi sho'rvalar, muzqaymoq, sutli ichimliklar va b. tayyorlashda ishlatiladi. Riboflavin sut, yormalar, parhez bop mahsulotlar va bolalar ozuqasini boyitishda ishlatiladi.

B₆ -vitamini (piridoksin C₈H₁₁NO₃). Bu vitamin 1938 yili Lepkovskiy tomonidan kristallar ko'rinishda ajratilgan bo'lib, u aminokislotalar, oqsillar, yog'lar va uglevodlarni hazm bo'lishida ishtirok etadigan fermentlar uchun koferment (ya'ni harakatga keltiruvchi) vazifasini bajaradi. B₆ vitamini adrenalini, serotonin, PP-vitamini hosil bo'lishida va glikogeni parchalashida ishtirok etadi. Bu vitaminni yetishmasligi o'sishni to'xtatib qolishiga, kam qonlikka, terini zararlanishiga, buyraklarda tosh hosil bo'lishiga olib keladi. Kattalar uchun o'rtacha sutkalik me'yor 1,8 2,0 mg ni tashkil etadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarida B₆ vitamini odatda oqsillar bilan bog'langan bo'ladi. Uning asosiy manbai bo'lib jo'ja, jigar, buzoq go'shti, baliq, yong'oqlar, non va yormalar hisoblanadi. Piridoksin C, D, K – vitaminlari bilan birga osteoporoz kasalligini oldini olish uchun tayyorlanadigan mahsulotlarga qo'shiladi.

β-karotin (C₄₀H₅₆), A vitaminini dastlabki ko'rinishi bo'lib, organizmga tushganda faolligi namoyon bo'ladi. 1831 yili Vakenroder sabzidagi olov rang (sariq) pigmentlarni aniqlaydi va karotin deb nom beradi (lotincha sabzi – daukus karota degani). 1931 yili uning kimyoviy tarkibi Pol Karrer tomonidan ochilib Nobel mukofoti oladi.

β-karotin ko'rish, o'sish va hujayralarni differensiyalanishi, ya'ni hujayralar va to'qimalar uchun zarur o'zining aniq vazifasini bajarish uchun programmalashtirish jarayoni). β –karotin yetishmasi differensiyalanish jarayoni buzilib, rak kasalligiga olib keladi. Bundan tashqari uning yetishmasligi ko'rishni yomonlashtiradi, o'sish sekinlashadi, ayniqsa suyaklar o'sishi, nafas yo'lining va hazm qilish sistemasining shilliq qavatlarini yallig'lanadi. Kattalar uchun o'rtacha sutkalik me'yor 4,8.....6,0 mg ni tashkil etadi. Uning manbai bo'lib yorqin sariq yoki olov rangdagi sabzavot va mevalar – sabzi, qovoq, o'rik, shpinat, salat bargi, karam va bosh. hisoblanadi. β –karotin oziq-ovqat sanoatida bo'yovchi va boyituvchi sifatida keng ishlatiladi.

Yog'da eruvchan vitaminlar.

Vitamin A (retinol) - suyaklarning o'sishiga, rivojlanishiga, ko'rishga, teri va shilliq qavatlarining faoliyatiga ta'sir etib organizmning yuqumli kasalliklarga chidamliligini oshiradi. A vitamin sarg'ish qovushqoq suyuqlikdir. Inson organizmiga A vitaminning yetishmasligi *kseroftalmiya*, ya'ni tovuqlarda bo'ladigan qorong'ida ko'rmaslik (shapko'rlik) kasalligiga sabab bo'ladi. U yetishmasi, o'sish sekinlashadi, ko'rish yomonlashadi, soch to'kiladi. A vitamini tanqisligi natijasida inson o'sishdan to'xtaydi, umumiy xolsizlanish rivojlanadi, taom hazm qilish tizimi buziladi, teri

qoplami zararlanadi, «tovuq ko'rligi» nomli kasalligiga chalinadi.

A vitamini aktiv holatda faqat hayvonlardan olinuvchi mahsulotlar: sariyog', baliq jigari, sut va sut mahsulotlari, tuxum sarig'i tarkibida bor. O'simlik mahsulotlarida esa, faqat A provitamini – karotin bor. U sabzi, tomat, pomidor, salat bargi, ko'k no'xot va boshqa sabzavotlarda uchraydi. Karotin inson organizmida ko'p miqdorda yog' bo'lsagina A vitamininga aylanadi. Retinol yorug'lik va havo kislorod ta'sirida, hamda ovqat tayyorlash jarayonida 30% gacha parchalanib ketishi mumkin.

Organizmning ushbu vitamini bo'lgan kundalik ehtiyoji 1,5 – 2,5 mg, karotinoidlar 3,0 -5,0 mg.

Vitamin D (kalsiferol) - suyak to'qimalarini hosil bo'lishida, o'sishida muhim rol o'ynaydi. Kalsiferol deganda ikki birikmani nazarda tutiladi: *ergokalsiferol* (D₂) va *xolekalsiferol* (D₃). Bular qondagi kalsiy va fosfor miqdorini tartibga solib turadi, suyakni minerallanishida ishtirok etadi.

D-vitamini (kalsiferol), uning asosiy shakllari D₂-(ergokalsiferol o'simliklarda uchraydi) va D₃-(xolekalsiferol hayvonlarda uchraydi) D-vitamin ultrabinafsha nurlar ta'sirida terida hosil bo'ladigan yagona vitamindir.

1936 yili uning strukturasi baliq moyidan olinib aniqlanadi. D-vitaminini etishmasligi raxit kasalligiga (skeletni deformatsiyasi, o'sishni to'xtatish) olib keladi.

D-vitamini yaxshilab o'rganilganda, u shakllarda kalsiyning singishiga va organizmga zarur bo'lganda suyaklardan kalsiyning chiqishiga yordam berishi aniqlandi. O'rtacha sutkalik me'yor kattalar uchun 2,5 mkg ni tashkil etadi. Uning asosiy manbai baliq yog'i, daryo baliq'i va oz miqdorda sut, tuxum, sariyog'da uchraydi.

Ko'pgina davlatlarda sut va sut mahsulotlari, margarin, o'simlik yog'lari, un, makaron mahsulotlari, donli nonushtalar va guruch D-vitamini bilan boyitiladi.

U baliqda, mol jigarida, sariyog'da, sutda, tuxumda ko'p uchraydi. Organizmning ushbu moddaga bo'lgan ehtiyoji 100 ME.

D (kalsiferol - provitamin - ergosterin) vitamini miya to'kimalarini shakllanishi va organizmni normal o'sishida katta rol o'ynaydi. Bu vitaminni etishmasligi kalsiy tuzi va fosfor miya to'qimasida ushlanib qolmasligiga olib keladi, suyak o'sishi sekinlashadi, yumshaydi, nozik va bo'sh bo'lib qoladi, suyaklar qiyshayadi. D vitaminining yetishmasligidan bolalarda raxit kasalligi, katta yosh odamlarda esa osteoporoz (suyak faoliyatini buzilishi) kabi kasalliklar paydo bo'ladi. Buning oqibatida suyakda singan joy va tishda emirilish sodir bo'ladi. Kalsiferol baliq moyida, mol jigarida, tuxumda, sutda va sariyog'da ko'p uchraydi.

D vitamini inson organizmiga ovqat bilan kiradi. Biroq asosiy qismi quyoshning ultrabinafsha nurlari ergosterin moddasiga ta'sirida paydo bo'ladi, bu modda inson terisida bo'ladi. D vitamini bo'lgan kundalik ehtiyoj 0,002 – 0,010 mg (100 – 400 ME). Bir ME (xalqaro birlik) 0,000025 mg toza kimyoviy kalsiferolga teng. Ovqatlanish me'yorida D vitamini ortiqchiligi intoksikatsiya (ovqatdan zararlanish)ga

olib keladi. D vitamini tabiatda kam tarqalgan. U faqat tuxum, sariyog‘, smetana, sut va qo‘ziqorinlarda bor. D vitamini tashqi muhit ta‘siriga chidamli bo‘lib, pishirilganida ham parchalanmaydi.

Vitamin E (tokoferol) - ichki sekretiya bezlari, ko‘payish jarayoni va asab sistemasi faoliyatida ishtirok etadi. Kunlik ehtiyoji 12-15 ME.

E – vitamini (tokoferol $C_{29}H_{50}O_2$) 1922 yili topilgan bo‘lib, insonlar rasionida eng muhim element hisoblanadi. U yog‘da eruvchan antioksidant bo‘lib, hujayra devorlarini (membrana) oksidlanishdan himoyalaydi, to‘yinmagan yog‘ kislotalarning oksidlanishi tufayli zaharli moddalar hosil bo‘lishini oldini oladi. E vitaminining kattalar uchun o‘rtacha sutkalik me‘yori 8...15 mg ni tashkil etadi. E vitaminining manbai – o‘simlik moylari (yeryong‘oq, soya, palma, makkajo‘xori, kungaboqar va bosh.), bug‘doy murtagi, yong‘oqlar, butun don va yashilbargli sabzavotlar hisoblanadi.

Oziq-ovqat sanoatida E-vitamin nutrient (vitamin) sifatida hamda antioksidant sifatida ishlatiladi. E-vitamin dl- α -tokoferol shakli yog‘larni eskirib, achchiqlanib qolishini oldini oluvchi antioksidant sifatida ishlatiladi va vitaminlik faoliyat bo‘lmaydi. Aksincha, dl- α -tokoferol asetat shakli zo‘r boyituvchi sifatida qo‘llaniladi, lekin antioksidant faollik namoyon etmaydi.

E-vitaminini dl- α -tokoferol shakli oziqaviy moylar, yog‘lar va yog‘i ko‘p bo‘lgan mahsulotlarni antioksidant sifatida yaxshi va barqaror saqlanishiga yordam beradi.

E vitaminining organizmga etishmasligi sababli markaziy asab tizimi va nasl ularni uzatish jarayonining faoliyati buziladi. Tokoferol vitamini o‘simlik moylarida juda ko‘p uchraydi: loviya, paxta chigiti, kungaboqar moylari 40% dan 120% gacha, nonda, jigarda, yormada 2% dan to 15% gacha bo‘ladi.

E vitamin qizdirishga ancha chidamli, faqat ultrabinafsha nurlari ta‘sirida parchalanadi. E vitaminiga bo‘lgan kundalik ehtiyoj 10 - 20 mg.

Vitamin K (filoxinon) –qon quyulishini oshiradi, qonni ivitadi. Organizmning ushbu moddaga bo‘lgan kunlik ehtiyoji 0,2 - 0.3 mg. Bu vitamin salat, ismaloq, chayon o‘tlarida ko‘p uchraydi.

Vitamin F (linol, linolen, araxidon yog‘ kislotalari) yog‘ va xolesterin almashuvida ishtirok etadi. Cho‘chqa va zaytun yog‘ida ko‘p uchraydi.

Vitamin Y. - ovqat hazm qilish bezlari faoliyatini yaxshilab, oshqozon yarasini bitishini tezlashtiradi. Yangi lavlagi sharbatida ko‘p bo‘ladi.

Tabiiy oziq-ovqat mahsulotlarida bo‘lgan vitaminlar inson organizmining vitaminlarga bo‘lgan talabini to‘liq qondira olmaydi, albatta. Mahsulotlarda vitaminlar miqdorining kamayib ketishi asosan ikki sababga ko‘ra bo‘ladi:

- 1) qishda va bahorda sut, meva, sabzavot kabilarda vitaminlar kamayib ketadi;

2) rafinlangan shakar-qand, yog‘-moy, konserva kabi oziq-ovqat mahsulotlarida vitaminlar juda kam miqdorda bo‘ladi.

Shuning uchun oziq-ovqat mahsulotlariga turli vitaminlar qo‘shib ularni vitaminlarga boyitish, ya’ni vitaminlashtirish shu kunning talabidir.

Un zavodlarida unni B guruhi, PP kabi sintetik vitaminlar bilan boyitish yo‘lga qo‘yilgan. Qandolatchilik sanoatida konfet lar, achitqi, marmelad C vitamin bilan, holva A va D vitamin bilan, unli mahsulotlar B guruhi vitaminlari bilan boyitilmoqda. Ayniqsa yosh bolalar oziqalarini vitaminlashtirishga katta e’tibor berish kerak. Shu maqsadda baliq moyi A va D, quruq sut B₂, pechene, chaqaloq bolalar oziqasi, shakar-rafinad, margarin kabilar A, C, D vitaminlar bilan boyitilmoqda.

Balog‘atga etgan inson organizmining vitaminlarga bo‘lgan bir sutkalik talabi 9-jadvalda keltirilgan.

Vitaminlarga bo‘lgan sutkalik talab va ularning asosiy vazifalari

6 – jadval


| № | Vitamin | Sutkalik talab, mg | Asosiy vazifalari |
|----|---------------------------------|-------------------------|--|
| 1. | Askorbin kislota (C) | 50-100 o‘rt. 70 | Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadi, organizmni kasallikka qarshiligini oshiradi |
| 2. | Tiamin (anevrin) B ₁ | 1,4-2,4 o‘rt. 1,7 | Markaziy nerv tizimining faoliyatini bir me’yorda saqlash |
| 3. | Riboflavin B ₂ | 1,5-3,0 o‘rt.2,0 | Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadi |
| 4. | Piridoksin B ₆ | 2,2-2,0 o‘rt.2,0 | Aminokislotalarning sintezida ishtirok etadi |
| 5. | Sianokobaltamin B ₁₂ | 0,005-0,05 o‘rt.0,03 | Xolin, letsitin va nuklein kislotalarni biosintezida ishtirok etadi. Kamqonlikni oldini oladi |
| 6. | Nikitominad PP | 15,0-25,0 o‘rt.20,0 | Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadi. Pellagra kasalligini oldini oladi. |
| 7. | Retinol A | 0,5-2,5 o‘rt.1,0 | Insonning o‘rish va rivojlanishida muhim vazifa bajaradi. Ko‘zni xiralashishidan saqlaydi. Shilliq pardani yallig‘lanishiga yo‘l qo‘ymaydi |
| 8. | Kalsiferol D | 0,01-0,04 o‘rt.0,02 | Suyak, Tish tarkibiga mineral moddalarni etkazish. Qondagi kalsiy va fosforni tartibga solish |
| 9. | a-Tokoferol E | 8-15 o‘rt.10 | Kuchli antioksidlovchi. Lipidlarni oksidlanishdan saqlaydi. Ferment-larning sintezini oshiradi. |

Vitaminlardan tashqari shunday moddalar ham borki, ular vitamin bo‘lmasada, lekin organizmda vitaminlarga aylana oladi. Bunday moddalarni *provitaminlar* deyiladi.

Vitaminlar odam organizmidagi muhim biologik jarayonlarida ishtirok etadi. Shuning uchun, oziq - ovqat mahsulotlariga issiqlik va mexanik ishlov berishda, hamda ularni saqlashda shunday texnologik jarayonlarni yaratish kerakki, toki ular tarkibidagi vitaminlar parchalanib ketmasin.

Bulardan tashqari ayrim mahsulotlar tarkibida yoqimli xushbo‘y hid beruvchi aromatik moddalar, efir moylari, taxir ta‘m beruvchi moddalar, achchiq ta‘m beruvchi glyukozitlar va turli rang hosil qiluvchi pigmentlar uchraydi. Bu moddalar mahsulotlarning etilganlik sifatini belgilovchi omillar sifatida har bir mahsulot uchun alohida ta‘riflanadi.

Ma‘lumki, odam organizmi tinmay kislorod, oqsil, yog‘ va uglevod, vitamin, tuzlar va suv qabul qilib turishi kerak. Qabul qilingan moddalar organizmda ximiyaviy jihatdan parchalanib hujayralarning tarkibiy qismiga aylanadi, ya‘ni **assimilyasiya** bo‘ladi.



17-rasm. Assimilyasiya jarayoni.

Assimilyasiya jarayonida vujudga kelgan keraksiz moddalar (dissimilya siya) organizmdan tashqariga chiqariladi. Dissimilyasiya protsessida 1 g yog‘dan, 9,3 kkal, 1 g oqsildan 4,1 kKal issiqlik ajraladi. Bunga *yonish issiqligi* deb ataladi. Organizmda hosil bo‘lgan issiqlikning bir qismi to‘qimalarning ishlash jarayonida ferment va gormonlarning ajralishiga, ya‘ni to‘qimlarning vujudga kelishiga sarflansa, qolgan qismi gavda haroratining doimiyligi saqlanishiga sarflanadi. Binobarin, organizmdagi assimilyasiya bilan dissimilyasiya yig‘indisi moddalar almashinuvi hisoblanadi.

Asosiy almashinuv. Odamda umumiy almashinuv asosiy almashinuv bilan ichki qo‘shimcha almashinuvdan iborat. Asosiy almashinuv odam so‘nggi ovqat yeganda 12-14 soat o‘tgach (nahorda) muskullarni bo‘shashtirib qimirlatmasdan 18-22° li xonada yotganda bir kecha-kunduzda sarf bo‘ladigan energiya bilan o‘lchanadi. Bu vaqtda asosiy almashinuv energiyasi odamda o‘rtacha 1600 kkalga teng

bo'lib organizm hayot faoliyatiga, ularning ishlariga va gavda temperaturasining saqlanib turishiga sarflanadi. Asosiy almashinuv miqdori odamning yoshiga, bo'yiga gavdasining og'irligiga va jinsiga bog'liq. Bo'yi, og'irligi barobar bo'lgan erkaklarga nisbatan ayollarda asosiy almashinuv o'rtacha 10 % kam bo'ladi. Asosiy almashinuv odamlarning keksalik davrida kamayadi, bolarlarda esa aksincha kattalarga nisbatan ko'proq bo'ladi.

Asosiy almashinuv ba'zi kasalliklarda o'zgaradi. Jumladan, gipofiz kasalligida asosiy almashinuv keskin kamayib gavdani yog' bosadi, qalqonsimon bez kasalligida aksincha asosiy almashinuv 150 % ga ko'payadi. Odam xarchand ovqat yegani bilan ozaveradi. Kasalxona sharoitida asosiy almashinuvni aniqlash uchun Krog usulidan foydalaniladi. Jumladan, odam 1 l kislorod sarflaganda 4,8 kkal issiqlik ajraladn. Shundan kelib chiqib kislorodning kaloriya koeffitsienti bemorning sarflagan kislorod hajmiga ko'paytirib istagan vaqtdagi (bir minut, bir soat va h.k.) energiya sarfini hisoblab chiqarish mumkin.

Odam tinch holatdagiga nisbatan ishlagan vaqtda energiya sarfi (ish qo'shimchasi) ortadi. Muskullarning ishlash qobiliyatiga qarab qo'shimcha ish ham o'zgaradi. Muskullarning zo'r ishlaganda qo'shimcha ish ko'p bo'ladi. Aqliy mehnatda esa energiya sarfi unchalik oshmaydi. Jumladan, jismoniy mehnat va sportchilarda 4000 dan 7000 kkal energiya sarflansa, aqliy mehnatda atigi 3000 kkal sarflanadi.

Moddalar almashinuvi. Odam qabul qiladigan barcha moddalar moddalar kirimini tashkil qiladi. Bu moddalar organizmda parchalanib hujayralardagi assimilyasiya natijasida hosil bo'lgan oxirgi-chiqindi mahsulot suv va tuzlar bilan birga (karbonat anhidrid va suv) o'pka orqali, ko'pchiligi (mochevina, azot kislotasi va boshqalar) buyrak orqali chiqib ketadi. Organizmdan chiqib ketadigan moddalar – moddalar chiqimi bo'lib hisoblanadi. Shunday qilib, organizmda qabul qilingan moddalar bilan undan chiqib ketgan moddalar miqdoriga nisbatan moddalar almashinuvi balansi bo'ladi. Organizmning oziqa moddalariga ehtiyojini aniqlash uchun uning asosiy almashinuvi o'rganiladi. Buning katta ahamiyati bo'lib, odamlarning ishlash, dam olish va bolalar bog'chalarida bo'lgan vaqtda ularga zarur bo'lgan mahsulotlarni aniqlash zarur bo'ladi. Moddalar almashinuvi yoshga va organizmning holatiga qarab o'zgaradi. Jumladan, qarilikda uzoq cho'zilgan kasallik vaqtida moddalar almashinuvi balansi manfiy bo'ladi. Bu vaqtda organizm qabul qilgan ovqatiga nisbatan ko'proq moddalar parchalanadi. Katta yoshli odamlarda moddalar va energiya iste'moli bilan sarfi ko'p vaqt muvozanatda bo'lgandan gavda og'irligi ham ko'p vaqt doimiy saqlanadi. Bolalar o'sish davrida tana og'irligi ortib borishi sababli moddalar almashinuvi balansi musbat bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Vitamin deb nomlanishi va avitaminoz deyilishini ta'riflang.
2. Gipovitaminoz va Avitaminoz nima, u holda nimalar yuz beradi?
3. Vitaminlar nechta guruhga bo'linadi?
4. Suvda eruvchi vitaminlarga ta'rif bering.
5. V guruhi vitaminlarining inson organizmidagi o'rni va ta'rifi
6. S vitamini ta'rifi va etishmaganda yuz beradigan o'zgarishlar.
7. Yog'da eruvchi vitaminlarga ta'rif bering.
8. Vitamin A, D, E larni oziqaviy qiymati va organizmdagi o'rni.
9. Oziq – ovqat mahsulotlarning kimyoviy tarkibiga qanday moddalar kiradi?
10. Oziqaviy moddalar haqida nimalarni bilasiz?
11. Oqsillar etishmasligi tufayli yuz beradigan o'zgarishlarni ayting.
12. Yog'larning biologik qiymati qanday aniqlanadi?
13. Biologik qiymati va kimyoviy tarkibi bo'yicha uglevodlar qanday xillarga bo'linadi?
14. Organizmni uglevodlarga bo'lgan talabi qanday?
15. Qanday vaqtlarda uglevodlar hazm bo'luvchi moddalarga aylanadi?
16. Vitaminlarning salomatlik uchun ahamiyatini ta'riflang.
17. Suvda eriydigan vitaminlarga tavsif bering.
18. Organizmdagi mineral moddalar miqdoriga qarab qanday elementlarga bo'linadi?
19. Kalsiy, magniy, temir, fosfor ta'rif bering.
20. Oziq – ovqat mahsulotlarining iste'mol qiymati deganda nimani tushunasiz?

Asosiy adabiyotlar

1. Axrarov U.B., Umidova M.SH., Axrarov SH.U. Ovqatlanish mahsulotlarini tayorlash texnologiyasi. T.: "Yangi nashr" nashriyoti, 2017 y. 520 b.
2. Ламажапова Г.П. Физиология питания. Учебное пособие. – М.: Мир науки, 2016.- 146 стр.
3. O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati: qisqacha tarixi; rivojlanish istiqbollari; muammolari", Darslik, prof. Turobjonov S.M. tahriri ostida, T.: "Fan va texnologiya", 2014 y, 460 b.
4. Maksumova M.A., Mo'minova M.N. Ovqatlanish fiziologiyasi va asoslari, sanitariya va gigiena. O'quv qo'llanma., T.: "Voriz- nashriyot", 2012.- 120b.
5. Лебедев В.Г. Физиология питания: Учебное пособие., Ярославль: ЯрГУ,-2009.- 112 стр.
6. Амбросьева Е.Д., Физиология питания. Учебник. Москва: КНОРУС, 2018.-306стр.
7. Kuriyazova S.M. Ovqatlanish gigienasi. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2012. -380 b.
8. Djaxongirova G.Z., Maxmudova D.X. Non va non mahsulotlari ekspertizasi. – Monografiya, T.: Jild-print, 2019.-240b.

4-MA'RUZA: XOM ASHYO VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINING OZUQAVIY QIYMATI.

Reja:

1. Xom ashyolarning ozuqaviy qiymati
2. Non mahsulotining ozuqaviylik qiymati
3. Mahsulotning “ozuqaviylik qiymati” tushunchasi

Tayanch soʻz va iboralar: *Kimyoviy tarkibi, analitik tadqiqot, gomeostaz, biologik qiymat, oqsillar, toʻyingan yogʻlar, ovqatlanish fiziologiyasi, almashtirilmaydigan aminokislotalar, almashtirilmaydigan yogʻ kislotalar, organoleptik (sensorli) qiymat, fiziologik qiymat.*

Darsning oʻquv maqsadi: *Oziq-ovqat mahsulotlarining himoya komponentlari. Antialimentar oziq-ovqat komponentlari. Oziq-ovqat mahsulotlarining tabiiy toksik komponentlari. Oziq-ovqat qiymatini oʻrganish.*

Xom ashyolarning ozuqaviy qiymati

Xom ashyolarning ozuqaviy qiymati ularning kimyoviy tarkibi va kaloriyasi bilan tavsiflanadi. Xom ashyoning kimyoviy tarkibi qanchalik inson organizmi fiziologik ehtiyojlariga yaqin boʻlsa, uning ozuqaviy qiymati shunchalik yuqori boʻladi. Oziq-ovqat tarkibidagi makro va mikroelementlarning ortiqcha yoki yetarli emasligi butun organizmdagi metabolik jarayonlarga ham, gomeostazning alohida boʻgʻinlariga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Shu nuqtai nazardan, oziq-ovqat xom ashyosining turli manbalarini oʻz ichiga olishi kerak boʻlgan muvozanatli ovqatlanish juda muhimdir.

Oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlari va guruhleri ozuqaviy qiymati, asosan, ularning har biridagi alohida ozuqa moddalarining ustunligi va energiya qiymati bilan belgilanadi.

Ushbu tamoyilga muvofiq, xom ashyo va mahsulotlarning turli guruhleri uchun ushbu sifat koʻrsatkichiga tibbiy-biologik talablarni aks ettiruvchi maxsus jadvallar shakllantirilgan.

Ushbu jadvallarda ozuqaviy qiymat sifati mezonlari keltirilgan (100 g oziq-ovqat tarkibidagi oqsillar, yogʻlar, uglevodlar va osh tuzini – g dagi, baʼzi vitaminlar, makro va mikroelementlarni – mg dagi, energiya qiymati – kkal da hamda qoʻshimcha koʻrsatkichlar)

Shunday qilib, oziq-ovqat mahsulotining ozuqaviy qiymatini tavsiflash uchun quyidagilar zarur:

- oqsillar, yogʻlar, hazm boʻladigan uglevodlar, ozuqaviy tolalar, vitaminlar, makro va mikroelementlar mahsulotining 100 g oziq-ovqatdagi tarkibini aniqlash. ,

- oziq-ovqat mahsulotining energiya qiymatini hisoblash

- kimyoviy tarkibi va energiya qiymatini asosiy oziq moddalar va energiya iste'molining tavsiya etilgan me'yorlari bilan taqqoslash orqali insonning asosiy oziq moddalar va energiyaga bo'lgan fiziologik ehtiyojlarini qondirish darajasini aniqlash.

Oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi analitik tadqiqot usullari asosida yoki xomashyoning kimyoviy tarkibi bo'yicha retsept va ma'lumotlarni hisobga olgan holda hisoblash usuli yordamida aniqlanadi.

Kimyoviy tarkibini hisoblash asosida oziq-ovqat mahsulotining energiya qiymati aniqlanadi, ya'ni inson organizmida ushbu oziq-ovqat mahsulotining ozuqaviy moddalaridan ajralib chiqishi mumkin bo'lgan energiya miqdori hisoblanadi.

Turli guruhlarning oziq-ovqat mahsulotlari sezilarli darajada kimyoviy tarkibi bo'yicha, shuningdek ozuqaviy qiymati ko'ra farqlanadi.

Hayvonot mahsulotlari biologik qimmatli oqsillar, to'yingan yog'lar, B guruhi vitaminlari va yog'da eriydigan vitaminlar, fosfor va o'zlashtiriladigan temirning manbalari hisoblanadi, ammo ularning tarkibida uglevodlar (sut mahsulotlaridan tashqari) va ozuqaviy tolalar deyarli yo'q.

Don va don mahsulotlari dunyo aholisining ko'pchiligining, shu jumladan O'zbekiston aholisining asosiy iste'mol qilinuvchi oziq-ovqatidir. Farqlar faqatgina turli mamlakatlarda tarqalgan don turlarida: y'ani guruch – Xitoy va O'zbekistonda, makkajo'xori - Moldovada, bug'doy - Evropa mamlakatlarida va Rossiyada va boshqalar.

Barcha oziq-ovqat xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlari 10 ta asosiy guruhga bo'lingan bo'lib, ulardan birinchi 9 tasi xom ashyo va oziq-ovqat, oxirgi 10 tasi esa biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalari bo'lib, ular yaqinda keng tarqalgan va aholi tomonidan mustaqil tarkibiy qismlar sifatida foydalanilmoqda.

Non mahsulotining ozuqaviylik qiymati

Inson va umummillat sog'ligi ko'p jihatdan ovqatlanish rasioni bilan belgilanadi. Mamlakatimiz aholisi uchun don va non-bulka mahsulotlari – energiya va ozuqa moddalarining asosiy manbai hisoblanadi. Ushbu mahsulotlar insonning bir kecha-kunduzlik talabini oqsillar bo'yicha qariyb 25-30% ga, uglevodlar bo'yicha – 30-40, vitaminlar (ayniqsa B guruhi), mineral moddalar va ozuqa tolalari bo'yicha – 20-25 % ga qondiradi.

Vitaminlar organizmida kechadigan murakkab metabolic jarayonlarda ishtirok etib, qator muxim biokimyoviy funksiyalarni bajaradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, biokatalizatorlar, fermentlar ishtirokida organizmida kechadigan ko'pgina reaksiyalar uchun ma'lum bo'lgan vitaminlar ishtirokisiz kechmaydi.

Vitaminlar organism uchun unchalik ko'p bo'lmagan miqdorda zarur bo'ladi. Vitaminlarni organism uchun zarur bo'lgan miqdorlari milligrammda, hatto mikrogrammda ifodalanadi.

Nonning ozuqaviylik qiymati birinchi navbatda uning kaloriyasi, hazm bo'lish darajasi va undagi qo'shimcha ozuqa omillari miqdori bilan belgilanadi: vitaminlar, mineral moddalar va almashinmaydigan aminokislotalar. Bulardan tashqari nonni ovqat bilan muntazam iste'mol qilish katta fiziologik ahamiyatga ega, negaki non ovqat hazm qilish traktining yaxshi ishlashiga imkon beruvchi va iste'mol qilinayotgan ovqatga uning oshqozon shirasi bilan to'liq namlanishini ta'minlovchi qulay konsistensiya va tuzilma baxsh etadi. Shunday qilib, non zarur moddalar manbai bo'libgina qolmay, balki u ovqatlanish fiziologiyasida muhim rol ham o'ynaydi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va ovqatlanishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan amaliy ishda oziqaviy, biologik va energetik qiymat kabi tushunchalar mavjud.

Ushbu tushunchalar oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibiga bog'liq holda foydaliligini tavsiflaydi va alohida oziqaviy moddalarning inson organizmidagi metabolik o'zgarishlari xususiyatlariga asoslanadi.

Barcha hayotiy muhim funksiyalarning normal holatini saqlash uchun odam oziq-ovqat bilan doimiy ravishda quyidagi besh asosiy guruh moddalarini olishi kerak:

- Oqsillar, yog'lar va uglevodlar;
- Almashtirilmaydigan aminokislotalar;
- Almashtirilmaydigan yog' kislotalar;
- Vitaminlar;
- Mineral moddalar

Har qanday mahsulotning ozuqaviylik (energetik) qiymati brutto-kaloriyaliligi (xazm bo'luvchanligi hisobga olinmagan) bilan emas, balki uning netto-kaloriyaliligi yoki fiziologik kaloriyaliligi bilan belgilanadi. Ta'kidlash joizki, non inson organizmida to'liq hazm bo'lmaydi. Uning tarkibida xazm bo'lmaydigan moddalar (kletchatka, gemitsellyuloza) va har xil darajada hazm bo'ladigan moddalar (xususan, kraxmal, oqsillar, yog'lar) mavjud. Nonning hazm bo'luvchanligi ko'pgina omillarga, ayniqsa shu non tayyorlangan xomashyoning kimyoviy tarkibiga bog'liq. Buni har xil un turlari va navlaridan tayyorlangan nonlarda o'tkazilgan tajriba natijalari tasdiqlaydi. Tajribalarning ko'rsatishicha, chiqishi kam bo'lgan (oliy nav) bug'doy uni navlaridan tayyorlangan nonlarning quruq moddasi eng yaxshi hazm bo'ladi.

Nonni hazm bo'luvchanligining yana bir muhim omili – uning fizik xossalari, xususan mag'zining g'ovaklilik tuzilmasi. Nonning hajmi qanchalik katta va u qanchalik g'ovak bo'lsa, u hazm qilish shirasi bilan shunchalik yaxshi namlanadi va demakki, organizmda yaxshi hazm bo'ladi.

Quyidagi 10-jadvalda ayrim non-bulka mahsulotlarining ozuqaviy va energetik qiymati keltirilgan.

Ayrim non-bulka mahsulotlarining ozuqaviy va energetik qiymati, 100 g mahsulotda

7-jadval

| Mahsulot nomi | Oqsillar, g | Yog‘lar, g | Uglevodlar, g | Energetik qiymati, kkal |
|---|-------------|------------|---------------|-------------------------|
| Oliy navli undan qolipda pishirilgan bug‘doy noni | 7,6 | 0,8 | 49,2 | 235 |
| Kesma baton | 7,5 | 2,9 | 51,4 | 262 |
| Yog‘li shirin bulochka | 7,9 | 9,4 | 55,5 | 339 |
| Yog‘li shirin teshikkulcha | 8,3 | 8,6 | 60,4 | 348 |
| Sariyog‘li suxari | 8,5 | 10,8 | 66,7 | 399 |

Oziq-ovqat bilan qabul qilingan oqsillar organizmda plastik va energetik funksiyalarni bajaradi. Oqsillar almashtirilmaydigan va almashtiriladigan aminokislotalar manbayi hisoblanib, ular organizmning barcha oqsillarini, shuningdek ko‘pgina boshqa biomolekulalarni biosintez qilishida qurish materialini sifatida foydalaniladi.

Oziq-ovqat bilan kelib tushgan 1 g oqsilning oksidlanishi natijasida (oqsilning o‘rtacha hazm bo‘lishi taxminan 84,5% ekanligi hisobga olinganda) taxminan 4 kkal energiya ajraladi. Inson organizmining oqsillarga bo‘lgan o‘rtacha kunlik ehtiyoji 85-90 g.ni tashkil qiladi.

1 g. uglevodning oksidlanishida oqsillardagi kabi energiya (taxminan 4 kkal) ajralib chiqsa-da, uglevodlarning organizmda parchalanishi energiya asosiy qismini hosil qilishi bilan kichadi.

Non tarkibidagi aminokislotalar

Har qanday mahsulotning, ayniqsa non kabi birinchi darajali muhim bo‘lgan mahsulotlarning ozuqaviylik qiymatini aniqlashda uning tarkibidagi oqsillarning umumiy miqdorini emas, balki uning sifat tarkibi, ya‘ni oqsil tarkibidagi almashinmayigan aminokislotalar miqdorini hisobga olish lozim.

Har xil chiqishga ega bo‘lgan bug‘doy unidan tayyorlangan nonlar tarkibidagi almashinmaydigan aminokislotalar miqdori quyidagi 11-jadvalda keltirilgan.

Bug‘doy nonlari tarkibidagi almashinmaydigan aminokislotalar miqdori

8-jadval

| Aminokislota | 100 g nondagi miqdori, g | 300 g non iste‘mol qilganda katta yoshli inson talabining qoplanishi, % |
|-----------------------|--------------------------|---|
| Izoleysin | 0,291 | 24,9 |
| Leysin | 0,519 | 31,1 |
| Lizin | 0,205 | 15,3 |
| Metionin + sistin | 0,301 | 16,4 |
| Fenilalanin + tirozin | 0,613 | 28,3 |
| Triptofan | 0,089 | 26,7 |
| Treonin | 0,243 | 29,2 |
| Valin | 0,351 | 30,1 |

Almashtirilmaydigan aminokislotalar oqsil molekulalarini hosil bo‘lishida ishtirok etadigan 20 ta tabiiy aminokislotalardan 8 tasi odam organizmida sintez qilinmaydi va almashinmaydi. Bular:

- Lizin, Treonin, Triptofan, Metionin, Fenilalanin, Leysin, Izoleysin, Valin.

Almashtirilmaydigan yog‘ kislotalar hujayra membranalarini qurish uchun zarur. Ulardan eng ma‘lumlari linolat va linoleant kislotalari bo‘lib, ular zig‘ir, soya, chigit va boshqa o‘simlik moylari va ba‘zi fosfolipidlarda uchraydi.

Almashtirilmaydigan yog‘ kislotalarorganizmga o‘simlik asosida oziq-ovqat mahsulotlaridagi yog‘ va yog‘simon moddalar tarkibida kelib tushadi.

1-nav bug‘doy unidan tayyorlangan mahsulotlar oqsili tarkibidagi alohida aminokislotalar miqdorini balanslangan ovqatlanishning aminokislotali formulasi bilan qiyoslash shuni ko‘rsatdiki, ushbu guruh mahsulotlari oqsillarida almashinmaydigan aminokislotalarning keskin disproporsiyasi kuzatiladi. Binobarin, agar valin miqdori mo‘tadildan 1,4 marta, fenilalanin miqdori 2,2 marta yuqori, leysin, izoleysin va treonin miqdori esa me‘yorga yaqin bo‘lsa, u holda triptofan, lizin va metionin miqdori me‘yorga nisbatan mos holda atigi 54,0; 56,5 va 65,0 % ni tashkil etadi.

Lizinga boy sut mahsulotlari, go‘sht va baliq bilan me‘yorda ovqatlanib yurilganda uning nondagi kamligi tashvish uyg‘otmaydi. Biroq, ovqatlanish ratsionida non va boshqa don mahsulotlarining solishtirma vazni ortib ketganda non tarkibidagi lizin miqdori masalasi muhim bo‘lib qoladi.

Energetik qiymat.

Oziq-ovqat mahsulotlarini energetik qiymati – ushbu mahsulot tarkibiga kiruvchi birikmalarni organizmdagi biologic oksidlanish jarayonida ajralib chiqayotgan energiya miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich hisoblanadi.

Energetik qiymat ko‘rsatkichi 100 g mahsulot uchun hisoblanadi va odatda, kilokaloriyalarda ifodalanadi. Inson organizmidagi biologik oksidlanishida, 1 g

oqsildan 4 kkal, 1 g yog‘dan 9 kkal, 1 g uglevoddan 4 kkal energiya ajralib chiqadi.

Mahsulotlar energetik qiymatini hisoblash uchun undagi oqsil, yog‘ va uglevodlar miqdorini tegishli energetik qiymat koeffitsientiga ko‘paytirish kerak.

Mahsulot sifati uning tarkibidagi xom ashyo sifatiga bog‘liq bo‘lib, uning sifatini (o‘zaro biriktirilgan texnik, texnologik va fizik-kimyoviy xususiyatlarini) belgilash iste‘mol qiluvchiga bog‘liq bo‘ladi. Mahsulot sifatini baholash uchun sifat va sonli sifat ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Sifat belgilarga mahsulot rangi, shakli, konsistensiyasi kiritiladi, sonli belgi esa uning geometrik va strukturaviy shaklini ta‘minlaydi. Mahsulotlar sifatini boshqarishda quyidagi sistema ko‘rsatkichlaridan va uning tarkibini xarakterlovchi asosiy ko‘rsatkichlardan, masalan, rangi, ta‘mi, hidi, namligi, konsistensiyasidan foydalaniladi.

Kompleks ko‘rsatkich mahsulotning bir necha oddiy yoki bir murakkab holatini xarakterlaydi (masalan, fizik-kimyoviy, strukturaviy, mexanikaviy va organoleptik holatlari) va uning foydalanishga yaroqliligini ta‘minlaydi. Aniqlovchi ko‘rsatkich mahsulot sifatini baholaydi.

Organoleptik baho aniqlovchi hisoblanadi. Har qaysi ko‘rsatkich 5 balli tizim bilan baholanadi, a‘lo - 5, yaxshi - 4, qoniqarli - 3, yomon - 2, juda yomon - 1. Tahlilga asosan berilgan ko‘rsatkich mahsulot sifatiga, uni iste‘mol qilish va sotish samarasiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari

9-jadval

| Mahsulot tarkibi | O‘lchash koeffitsiyenti | Baholashning o‘rtacha natijasi |
|-------------------------------------|-------------------------|--------------------------------|
| Hidi | 4 | 4,5 |
| Strukturasi (kesimidagi ko‘rinishi) | 3 | 3,0 |
| Rangi | 2 | 4,0 |
| Shakli | 1 | 2,0 |
| Tashqi ko‘rinishi | 2 | 3,7 |

Aniqlovchi ko‘rsatkich quyidagicha topiladi: 4-4, 5-3, 0-2, 4-1-2, 0-2-3, 7-4,5. Integral ko‘rsatkich mahsulotning kimyoviy tarkibini aniqlaydi, estetik ko‘rsatkichlar esa uning ustki qismi ko‘rinishining originalligini baholaydi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarda mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va sotuvga chiqarish uchun sarfiangan mablag‘lar hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich yordamida mahsulotning texnologiyaviyligi va mahsulot sifatini boshqarishni belgilovchi omillar aniqlanadi. Patent huquqi ko‘rsatkichi mahsulotlarni nafaqat respublikamizda sotishga, balki uni boshqa mamlakatlarga eksport qilishga ham yo‘l ochib beradi.

Mahsulotning sifat darajasini qator ko‘rsatkichlar (ba‘zan umumlashtiruvchi birgina ko‘rsatkich) yoki mahsulotni ma‘lum sifat kategoriyasiga kiritish orqali

xarakterlash mumkin. Mahsulot sifatining darajasini baholash zarurati rejalashtirish va yangi mahsulot yaratish variantini tanlash, me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, mahsulot sifatini nazorat qilish, mahsulot sifatini oshirganligi uchun xodimlarni rag'batlantirish, sifatni baholash va axborotlar yig'ishni tashkil etishda vujudga keladi.

Mahsulotning sifat darajasini baholash natijalari unga tegishli turdagi «Sifat belgisi» yoki kategoriya berishga hamda bir variantdagi mahsulotning sifati boshqa variantdagi mahsulot sifatidan yuqori yoki past ekanligi haqida qaror qabul qilishga xizmat qiladi.

Sifat darajasining miqdoriy bahosi mahsulot yaratish va undan foydalanish jarayonlariga ta'sir ko'rsatishning eng yaxshi omillarini belgilaydi. Sifat darajasi ko'rsatkichlarining majmuyi, ularni belgilash va aniqlash uslublariga, mahsulot turiga va baholash maqsadiga bog'liq. Mahsulot sifati darajasini oshirishni rejalashtirish uniuch sifat kategoriyasidan (oliy, birinchi va ikkinchi) biriga kiritish orqali unga baho berish (attestatsiya qilish) yo'li bilan amalga oshiriladi. Oliy va birinchi kategoriyalarning amal qilish muddati bir yildan 3 yilgacha bo'lib, kategoriyalarning amal qilish muddati tugagach, mahsulot qaytadan attestatsiya qilinadi. Oliy kategoriyadagi mahsulotning sifat ko'rsatkichlari respublikamiz va chet ellarda fan-texnikada erishilgan yuksak yutuqlarga mos kelishi yoki ulardan yuqori turishi lozim. Birinchi kategoriyaga sifati amaldagi me'yoriy hujjatlarning (standartlar va texnik shartlarning) hozirgi zamon talablariga javob beruvchi mahsulotlar kiritiladi.

Ikkinchi kategoriyaga sifati hozirgi zamon talablariga mos kelmaydigan va ishlab chiqarishda nolinishi yoki yaxshilanishi lozim bo'lgan mahsulotlar kiritiladi. Bunday mahsulotlarning texnik shartlari qayta ko'rib chiqishga muhtoj. Ikkinchi sifat kategoriyasiga kiritilgan mahsulotlarni almashtirish yoki ishlab chiqarishdan olib tashlash belgilangan muddatlarda o'tkaziladigan sifat attestatsiyasi natijalari asosida amalga oshiriladi. Ikkinchi sifat kategoriyasiga kiruvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'z vaqtida tuzatish masalasi bu mahsulotga bo'lgan mavjud ehtiyojni ancha mukammal mahsulotlar ishlab chiqarish yo'li bilan hal etiladi. Mahsulot sifatini oshirishning muhim sharti brakni qisqartirish yoki uni butunlay tugatishdir. Brak mahsulot bu faqat buzilgan xomashyo emas, balki loyihachilar, muhandis-texnik xodimlar va ishchilar sarfilagan jonli mehnatning yo'qolishi hamdir. Shuning uchun brak faqat mahsulotning past sifatligini emas, balki korxonalar va bevosita tayyorlovchilar ishining sifatini ko'rsatadi. Brak mahsulot miqdorining oz-ko'pligi mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi, xodimlar malakasi va texnologik intizomni aks ettiradi, qoidaga ko'ra, nobudgarchilikning har qanday ko'rsatkichlari singari, brak hajmi ham rejalash tirilmaydi.

Mahsulotning “oziqaviylik qiymati” tushunchasi

Mineral moddalar inson hayot faoliyatining jarayonlarida plastic funksiyani bajaradilar, ayniqsa suyak to'qimasining qurilishida ularning roli (Ca, P) yuqori. Ular

organizmning muhim almashinuv jarayonlarida suvli-tuzli, kislotali-ishqorli, fermentli jarayonlarida ishtirok etadilar.

Ularni asosan ikki guruhga ajratishadi:


- makroelementlar (Ca, P, Mg, Na, K, Cl, S) ularning oziq-ovqat tarkibidagi miqdori nisbatan ko'proq bo'ladi;

- mikroelementlar (Fe, Zn, Cu, I, F va bosh.) ularniki kamroq bo'ladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini mineral moddalar bilan boyitishi kasallikni oldini olishga qaratilgan bo'lib, ayniqsa Ca, I, Fe yetishmovchiligi sezilarli bo'ladi. Shuning uchun shu elementlar bilan boyitilgan qandolat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Bolalar uchun mineral moddalar va C, B₁, B₂, PP – vitaminlari bilan boyitilgan “Ekstra – kichkintoy” pechenelari ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari bolalar nonushtasi uchun boyitilgan biskvit mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. 100 gr mahsulotning kimyoviy tarkibi: (mg. da) kalsiy -33,7, magniy -14,6, fosfor – 95,0, temir – 1,4, B₁ – 0,1, B₂ vitamini – 0,2, B₆ vitamini–0,6, C vitamini – 30,0. Asosiy oziqaviy moddalarining miqdori (%): oqsillar -8,5; yog'lar -16,5; uglevodlar -75,0.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda oziqaviy, biologic va energetic qiymat tushunchalari ajratiladi. Ularning barchasi oziq-ovqat mahsulotlarining kimtoviyligini tavsilaydi va inson organizmida ayrim oziqaviy moddalarni metabolitik aylanish xususiyatlariga asoslanadi.

Mahsulotning “oziqaviylik qiymati” umumiy ishlatiladigan tushuncha bo'lib, u mahsulotdagi nutrientlarning miqdori va nisbatini ko'rsatadi, insonni asosiy oziqaviy moddalarga va energiyaga bo'lgan fiziologik talabini qondirilganlik darajasini qamrab oladi, ya'ni mahsulotning barcha foydali sifatlarini yig'ilishi aks ettiradi. “Biologik va Energetik qiymatlar” terminlari ko'pincha xususiy hollarda ishlatiladi.



18-rasm. Nonning energetik qiymati

“Energetik qiymat” termini organizmni fiziologik ish qobiliyatini ta'minlash uchun oziqaviy moddalardan biologic oksidlanish jarayonida ajralib chiqadigan energiya ulushini tavsiflaydi.

“Biologik qiymat” mahsulotning oqsil komponentlarini sifatini aks ettirib, oqsillarni hazm bo'lishiga va aminokislotalar tarkibini balanslashgan darajasiga

bog‘liq bo‘ladi. Bunda biologic qiymat sezilarli o‘zgarishi mumkin, qachonki oqsil molekulalarini strukturasi o‘zgarishiga olib keladigan keskin texnologik ishlov berishda, oqsillarni boshqa moddalar bilan ta’sirlashishida va uzoq vaqt saqlanganda.

Organoleptik (sensorli) qiymat – bu mahsulotning sezgi a’zolar yordamida aniqlanadigan ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi: tashqi ko‘rinishi, konsistensiyasi, ta’mi va hidi. Sensorli qiymat mahsulotni hazm bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq. Muhim ko‘rsatkichlardan biri ta’m hisoblanadi. Kimyoviy tarkibi jihatdan universal, qimmatli oziqaviy kislotalari va xushbo‘y moddalari mavjud bo‘lgan mahsulotlar yuqori ta’mlilik qiymatiga ega bo‘ladilar. Tarkibida parchalangan organic moddalari bor bo‘lgan mahsulotlar past ta’mlilik xususiyatiga ega.

Fiziologik qiymat – bu mahsulotning tarkibida organizmdagi moddalar almashinuvini amalga oshiruvchi foydali element mavjudligi bilan aniqlanadigan ko‘rsatkichdir. Fiziologik qiymat tushunchasi iste’mol qilingan mahsulotni organizmni asab, yurak-qon-tomir, ovqat hazm qilish va boshqa sistemalariga hamda infeksiyon kasalliklarga qarshilik ta’sir etishini aks ettiradigan tushunchadir. Sutdagi immune tanachalar va asaldagi antimikrob moddalar organizmni infeksiyon kasalliklarga chidamliligini oshiradi. Oziqaviy kislotalar, ayniqsa qattiq mahsulotlaridagi sut kislotasi ichakdagi cherish jarayonlarini to‘xtatadi.

Ayrim mahsulotlarning g‘ovaklik tuzilishi oshqozonni bir tekisda to‘lishiga, hazm qilish a’zolar ishini yaxshilashga va to‘yganlik hissini yuzaga kelishiga yordam beradi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi mahsulot qiymatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Oqsil, yog‘, uglevodlarni nisbatlari formulasi 1:1:4 bo‘lganda, o‘rtacha fiziologik me’yor hisoblanadi. Bu me’yori sutkalik rasiondagi barcha oziqalarni bir butun deb olganimizda mos kelishi kerak, chunki istalgan alohida olingan mahsulot kimyoviy tarkibi jihatidan bu me’yor talablarini qondirmaydi.

Fiziologik, aniqroq esa biologik qiymat deb mahsulot tarkibida singib ketadigan almashinmaydigan aminokislotalar, vitaminlar, mineral elementlar va zarur yog‘ kislotalarining (linolen, linol va araxidon) balanslashgan miqdori mavjudligiga aytiladi. Tabiatda barcha sanab o‘tilgan oziqaviy elementlarni kerakli miqdorda tutib turuvchi mahsulot yo‘q. Bu element bo‘yicha sutkalik oziqaviylik rasioni balanslashgan bo‘lishi kerak.

Nazorat savollari:

- 1.Xom ashyolarning oziqaviy qiymati deganda nima tushuniladi?
- 2.Nonning oziqaviy qiymati deganda nimani tushunasiz?
3. Non tarkibidagi mineral moddalar to‘g‘risida ma’lumot bering.
4. Non tarkibidagi aminokislotalarning roli qanday?
- 5.Non tarkibida qanday vitaminlar uchraydi?

6. Ozuqaviy qiymat bilan energetik qiymatning farqini ayting.

Asosiy adabiyotlar

1. Axrarov U.B., Umidova M.SH., Axrarov SH.U. Ovqatlanish mahsulotlarini tayorlash texnologiyasi. T.: “Yangi nashr” nashriyoti, 2017 y. 520 b.
2. Ламажапова Г.П. Физиология питания. Учебное пособие. – М.: Мир науки, 2016.- 146 стр.
3. O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati: qisqacha tarixi; rivojlanish istiqbollari; muammolari”, Darslik, prof. Turobjonov S.M. tahriri ostida, T.: “Fan va texnologiya”, 2014 y, 460 b.
4. Maksumova M.A., Mo‘minova M.N. Ovqatlanish fiziologiyasi va asoslari, sanitariya va gigiena. O‘quv qo‘llanma., T.: “Voris- nashriyot”, 2012.- 120b.
5. Лебедев В.Г. Физиология питания: Учебное пособие., Ярославль: ЯрГУ,-2009.- 112 стр.
6. Амбросьева Е.Д., Физиология питания. Учебник. Москва: КНОРУС, 2018.-306стр.
7. Kuriyazova S.M. Ovqatlanish gigienasi. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2012. -380 b.
8. Djaxongirova G.Z., Maxmudova D.X. Non va non mahsulotlari ekspertizasi. – Monografiya, T.: Jild-print, 2019.-240b.

5-MA’RUZA: OVQATLANISH ILMIIY ASOSLARI

Reja:

1. Ratsional ovqatlanish va uni tashkil etishning fiziologik asoslari.
2. Kishilarning sutkalik energiya sarflashi.
3. Ratsional ovqatlanish tamoyillari.

Tayanch so‘z va iboralar: *Kilokaloriyalar (kkal), energiya birliklari, kilojoullar (kJ), organik kislotalar, oshlovchi moddalar, to‘qimalar va organlar ish bajaradi, hujayralar ko‘payadi, energiya beruvchi moddalar, organik moddalarning kimyoviy, mexanik, termik, glikogen, dissimilyasiya jarayoni.*

Darsning o‘quv maqsadi: *Ratsional ovqatlanish qonunlari. Ovqatlanish konsepsiyasi. Noan‘anaviy ovqatlanish. Biologik faol qo‘shimchalarni o‘rganish.*

Ratsional ovqatlanish va uni tashkil etishning fiziologik asoslari.

Odam organizmi tashqi muhitdan mudom energiya kelib turishiga muhtoj bo‘ladi. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan birga orginizmga tushadigan oziq moddalar (oqsillar, yog‘lar, uglevodlar) energiya manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari oziq-ovqat mahsulotlarida vitaminlar, mineral moddalar, suv, organik kislotalar,

oshlovchi moddalar va boshqa tarkibiy qismlar bo‘ladi. Bular energiya manbai bo‘lib hisoblanmasa-da, organizmdagi moddalar almashinuvi uchun zarurdir.

Insonning ovqat ratsioni xayvonlardan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlari (go‘sht, sut, baliq, tuxum) va shularni qayta ishlab tayyorlanadigan mahsulotlar (kolbasalar, sariyog‘, pishloq, tvorog va boshqalar) hamda o‘simliklardan olinadigan masalliq: g‘alla o‘simliklardan tayyorlanadigan mahsulotlar (un, non, yormalar, makaron mahsulotlari), sabzavot, rezavor meva. Meva, qo‘ziqorinlardan iborat bo‘ladi.

Aholining ovqatlanish xarakteri iqtisodiy va madaniy darajasiga qarab asta-sekin tarkib topib boradi. Biologiya, ximiya, ovqatlanish fiziologiyasi, vitaminologiyaning ilmiy yutuqlari odamning yoshi, kasb-kori, jinsi, iqlim xususiyatlari va boshqa omillarga qarab fiziologik jihatdan olganda oziq moddalarga nechog‘li ehtiyoj sezishini aniqlab olish hamda ilmiy jihatdan asoslab berishga imkon beradi. Ovqatlanish xarakteri organizmning fiziologik xususiyatlari bilan kasb-koriga aloqador xususiyatlariga hamda tashqi muhit omillari ta‘siriga bog‘liq bo‘lishini aytib o‘tmoq kerak.

Organizmda uglevodlar, yog‘lar va oqsil o‘zgarishlarga uchraganida hosil bo‘ladigan energiya issiqlik energiyasi birliklari – kilokaloriyalar (kkal) bilan yoki energiya birliklari – kilojoullar (kJ) bilan o‘lchanadi. 1 kkal – 4,186 kJ. Organizmda 1 g oqsil yonganida 4 kkal yoki 16,74 kJ, 1 g yog‘ yonganda 9 kkal yoki 37,67 kJ, 1 g uglevodlar yonganda 3,75 kkal yoki 15,7 kJ hosil bo‘ladi.

Inson organizmining energiya sarfi quyidagilardan tarkib topadi:

1) Asosiy almashuv – ichki organlar, sistemalar va to‘qimalar funksiyalarini ta‘minlab beruvchi bioximiyaviy protsesslarga sarflanadigan energiya bo‘lib, bu o‘rta hisobda 1400-1700 kkalni tashkil etadi;

2) ovqatning spetsifik-dinamik ta‘siri – ovqatni hazm qilish va oziq moddalarni o‘zgartirishga sarflanadigan energiyadir, bu asosiy almashinuvining 10-15% ni tashkil etadi;

3) kasbga aloqador ishlarni, uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarishga, aktiv dam olish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, sport faoliyatiga va boshqalarga sarflanadigan energiya.

Shunday qilib, odamning bir kecha-kunduzda sarflab turadigan energiyasi o‘rta hisobda 2700-4500 kkalni tashkil etadi va bundan ortadi.

Balansga keltirilgan ovqat ratsionini tuzish hammadan avval odamning sarflaydigan energiyalari miqdorini hisoblab chiqish zarur. To‘g‘ri ovqatlanishning ilmiy asoslari, odamning jinsi, yoshi, ishining xarakteri, sport bilan shug‘ullanish – shug‘ullanmasligiga, aholi turmushining sharoitlari va iqlimga qarab ratsionda qancha oziq-moddalar bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi tavsiyalar akademik A.A.Pokrovskiy boshchiligida ishlab chiqilgan.

Odam tashqi muhitdan ovqat va suv qabul qilishi, organizmda uning o‘zgarishi,

hazm qilishi, hosil bo'lgan qoldiq moddalarning tashqi muhitga chiqarilishi moddalar almashinuvi deb ataladi. Ovqat tarkibidagi organik moddalarning kimyoviy, mexanik, termik, o'zgarishi natijasida ulardagi potensial energiya issiqlik, mexanik va elektr energiyasiga aylanadi. Hosil bo'lgan energiya hisobiga to'qimalar va organlar ish bajaradi, hujayralar ko'payadi, yosh organizm o'sadi va rivojlanadi, odam tana haroratining doimiyligi ta'minlanadi.

Termik organizmda moddalar va energiya almashinuvi uzluksiz davom etib turadi va bu jarayon tirik organizmning yashash belgisi hisoblanadi.

Modda almashinuvi bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan ikki jarayon ya'ni assimilyasiya va dissimilyasiya orqali o'tadi.

Ovqat tarkibidagi oziq moddalarning hujayralarga o'tishi assimilyasiya deb ataladi. Bu jarayon natijasida hujayralar yangilanadi, ko'payadi. Organizm qancha yosh bo'lsa unda assimilyasiya jarayoni shuncha faol o'tadi.

Oziq moddalarning ma'lum qismi assimilyasiya jarayoni natijasida to'qimalarda zahira hamda saqlanadigan energiya beruvchi moddalar (glikogen, ATF) sintez qilish uchun sarflanadi.

Hujayralar eskirgan tarkibiy qismlarining parchalanishi dissimilyasiya deb ataladi.

Buning natijasida energiya hosil bo'ladi va bu energiya assimilyasiya jarayoni uchun sarflanadi.

Dissimilyasiya jarayoni natijasida hosil bo'lgan qoldiq moddalar ayirish organlari orqali tashqariga chiqariladi. (karbonat angdrid, suv, azot qoldiqlari).

Sog'lom bo'lgan katta yoshli odamlarda bu ikkala jarayon bir-biriga teng muvozanatda bo'ladi.

Yosh organizmda assimilyasiya jarayoni ustinroq bo'lsa, keksa odamlarda dissimilyasiya jarayoni ustunroq bo'ladi. SHuning uchun keksalarning terisi salqi bo'lib, yuzlarida ajin paydo bo'ladi, tana muskullari bo'shanib, ularni hajmi kichrayadi.

Demak assimilyasiya va dissimilyasiya jarayonlari uzluksiz davom etadi. Odam tanasidagi har xil to'qima va hujayralar tarkibiy qismlarining yangilanishi muddati turlicha bo'ladi.

Masalan jigar to'qimasi va qon zardobining oqsillari 20 kun davomida butunlay yangilanadi, tana muskullarining oqsillari 180 kunda yangilanadi. Umuman odam tanasidagi hamma to'qimalar tarkibidagi oqsillarning yarmi har 80 kun davomida yangilanib turadi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, qaysi bir to'qima va organ qanchalik faol ish bajarsa, harakat qilsa, uning tarkibiy qismlari yangilanishi unchalik tez sur'atlarda bo'ladi. Binobarin jismoniy mehnat, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari odam tanasidagi to'qimalarining tez yangilanishi, organizmning yosh, sog'lom va tetik saqlashnishiga olib keladi.

Ma'lumki 1 gr oqsil organizmda kislorod bilan oksidlanib parchalanganda 4,1 kkal, 1 gr yog'-9,3 kkal, 1 gr uglevod-4,1 kkal energiya hosil qiladi. Demak bir sutkalik ovqat tarkibidagi iste'mol qilingan oqsil, yog', uglevodlarning miqdoriga qarab, hosil bo'lgan energiyaning umumiy miqdorini aniqlash mumkin. Bu energiya miqdorini bajarilgan ish turiga qarab sarflangan energiya miqdoriga taqqoslash mumkin. Sog'lom, katta yoshli odamda bir sutkalik ovqatdan hosil bo'ladigan energiya miqdori sarflanadigan energiya miqdoriga teng bo'lishi kerak. Organizmda hosil bo'ladigan energiya miqdori sarflanadigan energiya miqdoriga nisbatan ko'p bo'lsa, odam semiradi. Aksincha, iste'mol qilingan ovqatdan hosil bo'ladigan energiya sarflanadigan energiyaga nisbatan kam bo'lsa, odam tanasidagi yog' parchalanib, energiya hosil qiladi. Bunday jarayon bir necha kun, hafta davom etsa odam ozadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, yoshlarda iste'mol qilingan ovqatdan hosil bo'ladigan energiya miqdori sarflanadigan energiyaga nisbatan ko'proq bo'lishi lozim. chunki ma'lum miqdordagi energiya yosh organizmning o'sishi va rivojlanishi uchun sarflanadi.

Kishilarning sutkalik energiya sarflashi.

Moddalar almashinuvida oqsillar, yog'lar va uglevodlarning kislorod bilan oksidlanib parchalanishi natijasida energiya hosil bo'ladi. Bu energiya organizmda barcha fiziologik jarayonlarning to'xtovsiz davom etishi uchun sarflanadi.

Odam organizmida sutka davomida sarflanadigan energiya uch qismdan iborat:

1. Asosiy moddalar almashinuvini ta'minlash uchun sarflanadigan energiya. Bu energiya nafas olishi, yuragi, buyraklari, jigari va boshqa a'zolarining ishlashini ta'minlash uchun sarflanadi. Bu energiya miqdori odamning 1 kg tana og'irligiga 1 soatda 1 kkal ga teng. Tana og'irligi 70 kg bo'lgan odam uchun bir sutkada moddalar almashinuvini ta'minlashga sarflanadigan energiya miqdori 1680 kkal ga teng. (70 kg tana og'irligi x 24 soat=1680 kkal.)
2. Ovqatning hazm qilishga sarflanadigan energiya. Iste'mol qilingan ovqatni hazm qilish uchun oshqozon, ichaklar, jigar, oshqozon osti bezi kabi a'zolarining ishi kuchayadi va ular energiya sarflaydi. Bu energiyaning miqdori ovqat tarkibiga bog'liq. Aralash ovqatni hazm qilishga sarflangan energiya asosiy moddalar almashinuviga sarflangan energiyaning 10% ini tashkil etadi. Demak bu energiya miqdori katta odamda bir sutkada 168 kkal ga teng.
3. Odam sutkada bajaradigan ishga sarflanadigan energiya. Bu energiyaning miqdori har bir odamning kasbiga, ko'p yoki oz harakatlanishga bog'liq. Aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilar kam energiya sarflaydi. Jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilar ko'p energiya sarflaydi. Masalan odam o'rtacha tezlikda yurgan vaqtda

uning organizmi sarflaydigan energiya miqdori asosiy moddalar almashinuvi uchun sarflanadigan energiya miqdoriga nisbatan ikk marta ko‘payadi ($168 \times 2 = 3360$ kkal). Odam o‘rtacha tezlikda chopgan vaqtda esa energiya sarfi 4 marta ko‘payadi. ($1680 \times 4 = 6720$ kkal). Umuman bajariladigan ishning turiga ko‘ra bir sutkada sarflanadigan energiya miqdori har xil bo‘ladi.

Bajaradigan ishining turiga va sarflanadigan energiya miqdoriga ko‘ra, kishilar to‘rt guruhga bo‘linadi.

Birinchi guruhga aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar kiradi ya’ni korxonalar, tashkilotlarning rahbarlari, tibbiyot xodimlari, pedagoglar, tarbiyachilar, ilmiy xodimlar va hokazo. Ular bir sutkada 2300-2800 kkal energiya sarflaydilar.

Ikkinchi guruhga mexanizatsiyalashgan jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar ya’ni injener-texnik xodimlar, maishiy xizmat xodimlari, aloqa va telegraf ishchilari, tikuvchilar va hokazolar kiradi. Ular bir sutkada 2500-3000 kkal energiya sarflaydilar.

Uchinchi guruhga mexanizatsiyalashmagan jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar, ya’ni temirchilar, slesarlar, ximiklar, to‘qimachilik korxonasi ishchilari, poyafzalchilar, haydovchilar, sotuvchilar, agronomlar, temiryo‘l ishchilari va hokazolar kiradi. Ular bir sutkada 2700-3200 kkal energiya sarflaydilar.

To‘rtinchi guruhga mexanizatsiyalashmagan og‘ir jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar ya’ni quruvchilar, qishloq xo‘jaligi ishchilari, mexanizatorlar, metallurklar, o‘rmon ishchilari va hokazolar kiradi. Ular bir sutkada 2900-3700 kkal energiya sarflaydilar.

Beshinchi guruhga o‘ta og‘ir jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar ya’ni tog‘ ishchilari, er qozuvchilar, beton-tosh ishchilari, yuk tashuvchilar, qurilish mollari ishlab chiqaruvchi ishchilar kiradi. Ular bir sutkada 3900-4300 kkal energiya sarflaydilar.

Kishilarning yoshi, jinsiga qo‘ra oqsil, yog‘, uglevod, energiyaga bo‘lgan sutkalik ehtiyoji.

Jadval-10

| | Guruh, yoshi | Erkaklar | | | | Ayollar | | | |
|----|--------------|----------|--------|-----------|---------------|---------|--------|-----------|---------------|
| | | Oqsil g | Yog‘ g | Uglevod g | Energiya kkal | Oqsil g | Yog‘ g | Uglevod g | Energiya kkal |
| I | 18-29 | 91 | 103 | 378 | 2800 | 78 | 88 | 324 | 2400 |
| | 30-39 | 88 | 99 | 365 | 2700 | 75 | 84 | 310 | 2300 |
| | 40-59 | 83 | 93 | 344 | 2500 | 72 | 81 | 297 | 2200 |
| II | 18-29 | 90 | 110 | 412 | 3000 | 77 | 93 | 351 | 2550 |
| | 30-39 | 87 | 106 | 399 | 2900 | 74 | 90 | 337 | 2450 |
| | 40-59 | 82 | 101 | 378 | 2750 | 70 | 86 | 323 | 2350 |

| | | | | | | | | | |
|-----|-------|-----|-----|-----|------|----|-----|-----|------|
| III | 18-29 | 96 | 117 | 440 | 3200 | 81 | 99 | 371 | 2700 |
| | 30-39 | 93 | 114 | 426 | 3100 | 79 | 95 | 358 | 2600 |
| | 40-59 | 88 | 108 | 406 | 2950 | 75 | 92 | 344 | 2500 |
| IV | 18-29 | 102 | 136 | 518 | 3700 | 87 | 116 | 441 | 3150 |
| | 30-39 | 99 | 132 | 504 | 3600 | 84 | 112 | 427 | 3050 |
| | 40-59 | 95 | 126 | 483 | 3450 | 80 | 106 | 406 | 2900 |
| V | 18-29 | 118 | 158 | 602 | 4300 | - | - | - | - |
| | 30-39 | 113 | 150 | 574 | 4100 | - | - | - | - |
| | 40-59 | 107 | 143 | 546 | 3900 | - | - | - | - |

Ratsional ovqatlanish tamoyillari.

Odamning solom va baquvvat bo‘lishida, yosh organizmning normal o‘sishi va rivojlanishida, ish qobiliyatining yaxshi bo‘lishida ratsional ovqatlanish muhim ahamiyatga ega.

Ratsional ovqatlanish – bu organizmni o‘z vaqtida turli xil oziq ovqat moddalarga boy bo‘lgan to‘yimli va mazali ovqat bilan ta‘minlashni to‘ri tashkil etishdir.

Ratsional ovqatlanish – bu organizmning sutkalik sarflangan energiyasiga mos ravishda to‘qima va organlarning yangilanishini uzluksiz ta‘minlaydigan miqdordagi ozuqa moddalar bilan ta‘minlashdir.

Ratsional ovqatlanish organizmning normal hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan vitaminlar, mikroelementlar va boshqa moddalar bilan o‘z vaqtida ta‘minlashni kafolatlaydi.

Ratsional ovqatlanish - aniq ovqatlanish rejimini talab etadi, ya‘ni kun davomida eyiladigan ovqatni qaysi vaqtda necha marta ovqatlanish va to‘yimlilikini har safar eyiladigan ovqatga to‘ri taqsimlashi talab etiladi.

Ratsional ovqatlanishning 4 ta asosiy tamoyili mavjud:

1. Insonning butun hayoti davomida kerak energiya ovqat bilan organizmgakirishi kerak. Energiyaning organizmda vujudga kelishi va sarflanishi orasida mutanosiblik bo‘lishi lozim.

2. Oziq-ovqat organizmning fiziologik talablarini qondirishi, etarli miqdorda va tegishli mutanosiblikda ozuqa moddalarni o‘zida saqlashi kerak.

3. Ovqatlanish rejimiga rioya qilish uchun, kun davomida tegishli miqdordagi taomni ma‘lum belgilangan vaqtda iste‘mol qilish kerak.

4. Tayyorlangan ovqatning ozuqa xususiyati yo‘qolmasligi uchun pazandalar tomonidan yaxshi ishlov berilishi shart.

Ovqat ishtaha bilan eyilishi va hazm bo‘lishi uchun hamma choralar ko‘rilishi, sanitariya-gigiena qoidalariga amal qilib, mahsulotning ifloslanishiga yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

Yer sharidagi aholi minglab turli xil oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanib

ovqat tayyorlaydi va ular bir-biridan katta farq qiladi. Lekin bu turli xil taom va mahsulotlarning tarkibi oziq moddalar: oqsil, yog‘ uglevodlar, vitaminlar, mineral moddalar va suvdan iborat bo‘ladi.

Sog‘lom odam ovqat ratsionida oqsil, yog‘ va uglevodlarning nisbati 1:1,2:4 bo‘lishi kerak. Bu muvofiqlik organizm yoshi, jinsi va fiziologik holatiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin.

Sutkalik ovqat koloriyasining 12-14% ni ratsionning oqsil bo‘lagi tashkil qilishi kerak. Shu jumladan o‘simlik oqsillari umumiy oqsil miqdorining 50-60% ini tashkil qilishi kerak.

Sutkalik ovqat koloriyasining 30% ini ratsionning yog‘ bo‘lagi tashkil qilish kerak. Shu jumladan hayvon yog‘lari 70-75%, o‘simlik moylari 30-35% ni tashkil qilishi kerak.

Sutkalik ovqat koloriyasining 56-58% ini ratsionning uglevod bo‘lagi tashkil qilishi kerak.

Ovqatlanish rejimi.

Ovqatlanish rejimida 4 ta asosiy qoidaga amal qilinadi:

1. Ovqat kunining ma‘lum bir vaqtida iste‘mol qilish. Chunki ovqat iste‘mol qilishi kerak bo‘lgan aniq vaqtda odam organizmida refleks tarzida me‘da shirasi, so‘lak, oshqozon osti bezidan shira, o‘t suyuqligi ajralib chiqadi, bu esa ovqatni to‘liq hazm bo‘lishini ta‘minlaydi.



19-rasm. Ovqatlanish tartibi

2. Kun davomida necha marta ovqatlanishni to‘g‘ri tashkil etish. Sog‘lom odamlarda asosan uch yoki to‘rt marotaba ovqatlanish rejimi qabul qilinadi. Ya‘ni nonushta, tushlik, kechi ovqat yoki nonushta, ikkinchi nonushta, tushlik, kechki ovqat yoki nonushta, tushlik, yarim tushlik, kechki ovqat.

3. Har galdagi ovqat iste‘mol qilishda ovqatlanish ratsioniga amal qilish. Bunda har galgi ovqatlanish (nonushta, tushlik, kechki ovqat) uchun tanlangan mahsulotlar tarkibida oqsil, yog‘, uglevodlar, mineral moddalar, vitaminlar etarli darajada organizmga tushishini hisobga olish zarur.

4. Kun davomida iste'mol qilinadigan ovqat miqdorini fiziologik talablarga mos ravishda taqsimlash. Bunda uch mahal ovqatlanish rejimida ovqat koloriyaliligi quyidagicha taqsimlanadi:

| | |
|--------------|-----|
| nonushta | 30% |
| tushlik | 45% |
| kechki ovqat | 25% |

4 mahal ovqatlanish rejimida esa

| | |
|---------------|-----|
| nonushta | 25% |
| tushlik | 40% |
| yarim tushlik | 10% |
| kechki ovqat | 25% |

bo'lishi kerak.

Har qanday ovqatlanish rejimida ham ovqatlanishlar orasidagi vaqt 6 soatdan oshmasligi va kechki ovqat yotishdan 2 soat oldin eyilishi kerak.

O'zbekistonning issiq iqlim sharoitida 3 mahal ovqat rejimida yuqori kaloriyali va kuchli ovqat tushlikda emas balki kechki ovqatda eyilishiga odatlanilgan. Bunda

| | |
|--------------|-----|
| nonushta | 25% |
| tushlik | 30% |
| kechki ovqat | 45% |

3 yoki 4 mahal ovqatlanish rejimida fiziologik me'yori bo'yicha oqsil, yog', uglevodlar va ovqat kaloriyaliligini taqsimlashi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Ovqatlanish me'yorlari

11-jadval

| Ovqatlanish rejimi | Me'yori % | Oqsil gr | Yog'lar gr | Uglevod gr | Kaloriyaliligi kkal |
|---------------------|-----------|----------|------------|------------|---------------------|
| 3 mahal ovqatlanish | | | | | |
| nonushta | 25 | 19,2 | 20,7 | 81 | 575 |
| tushlik | 35 | 27,3 | 29 | 114 | 805 |
| kechki ovqat | 40 | 31,2 | 33,3 | 130 | 920 |
| Jami: | | 78 | 83 | 325 | 2300 |
| 4 mahal ovqatlanish | | | | | |

| | | | | | |
|---------------|----|------|------|-------|------|
| nonushta | 20 | 15,6 | 18,6 | 64 | 460 |
| tushlik | 25 | 19,5 | 20,7 | 81,0 | 575 |
| yarim tushlik | 10 | 7,8 | 6,3 | 32,4 | 230 |
| kechki ovqat | 45 | 35,1 | 37,4 | 146,8 | 1035 |
| Jami: | | 78 | 83 | 325 | 2300 |

Hozirgi zamon kishisining ovqatlanishi.

Hozirgi zamon kishisining sog‘lig‘ini saqlash surunkali kasalliklardan saqlash uchun oziq-ovqatning ahamiyatiga ilmiy qarashlar mavjud. Odamlarning jinsiy, yoshi, mehnat характери, jismoniy yuklamasi, fiziologik ahvoli, betobligiga qarab har kim alohida o‘ziga mos ovqat tanlashi kerak. Amml sog‘ bo‘lishi, sog‘liq saqlash uchun ilmiy asosda tavsiya qilingan olimlar fikri bor. Bu umumiy maqsad «Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti» tomonidan 1991 yil ishlab chiqilgan. Shunga ko‘ra ozuqa moddalar iste‘mol qilish uchun tavsiyalarni umumiy tarzda ko‘rib chiqamiz:

1. Yog‘ iste‘molini, ayniqsa hayvon yog‘lari va xolesterinni cheklash. Umumiy yog‘ 30% dan oshmasligi kerak. Bu tavsiya mol yog‘i, margarin solingan xamir pishiriqlari, qovurilgan va boshqa yog‘li ovqatlarni cheklash yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. Yog‘li ovqatlarni kam eyish, ayniqsa hayvonlar yog‘ini, xolesterinni cheklash yurak-tomir, atreosklerozi, prostatit, semirish, gipertoniyaning oldini oladi.

2. Bir kunda 4 marta sabzavot va meva iste‘mol qilish. Sabzavot va mevalarni iste‘mol qilish organizmni vitaminlar, mineral moddalar bilan boyitadi. Sabzavot, meva, dukkakli don mahsulotlari birdan-bir ozuqa manbaidir, ular yurak tomir, ankologik kasalliklarning oldini oladi.

3. Oqsillar iste‘mol qilish. Oqsil – organizm uchun eng zarur ozuqa manbaidir. Oqsillarning ko‘pi organizm uchun zarar. Oqsilga boy mahsulotlar o‘rniga sabzavot, meva mahsulotlarini iste‘mol qilish kerak. Ilmiy meditsinada go‘sht, baliq go‘shtini eyish taqiqlanmaydi, ammo uni yog‘sizroq qilib eyish kerak.

4. Gavda massasini saqlash va uni quvvatlash, paydo bo‘lgan energiya bilan jismonan faol sarflangan energiya orasidagi balansni ta‘minlash. Gavdadagi ortiqcha yuk, semizlik ateroskleroz, gipertoniya, osteoporoz, saraton kasalliklarini keltirib chiqaradi. Sog‘liqni garmonik tarzda saqlash, yaxshilash uchun jismoniy faollik zarur, chunki iste‘mol qilingan kuchli taom hazm bo‘lishi shart.

5. Tuz iste‘mol qilish. Tuzni kuniga 6 grammdan ortiq iste‘mol qilish qon bosimining oshishiga olib keladi. Ko‘p tuzlangan, sho‘r narsalarni iste‘mol qilmaslik kerak. Yoshlikdan bolalarni kam tuzli ovqat eyishga odatlantirish kerak. O‘zbekiston sharoitida yodlangan tuz iste‘mol qilish lozim.

6. Kalsiy miqdori. O‘smirlarning suyagi, tishlari o‘shishi va rivoji uchun kalsiy kerak. Suyaklarning pishiq mustahkam bo‘lishi uchun kalsiy zaxiralari bo‘lishi kerak. Bu moda kam bo‘lsa, suyak tez sinuvchan bo‘ladi. Kalsiy bilan organizmni taminlash

uchun sut mahsulotlari va sabzavotni ko'p iste'mol qilish kerak bo'ladi.

Umumjahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan e'lon qilingan ovqatlanishning maqsadlari kundalik hayotiy savollarga javob bermaydi. Har bir kishiga har kun uchun qanday taomlar iste'mol qilish kerakligi haqida alohida menyu tuzib berish mumkin emas. Ratsional ovqatlanishni targ'ibot qilishning birdan-bir yo'li odamlarni mustaqil ravishda o'z mijoziga to'g'ri keladigan oziq-ovqatlarni tanlashga o'rgatishdir.

To'g'ri ovqatlanishning umumiy qoidasini tanlash quyida ko'rsatiladi.

1. Oziq-ovqat turlarining hammasidan har kuni me'yorida iste'mol qiling.
2. Esda tuting! Butunlay «yaxshi» yoki butunlay «yomon» taom yo'q.
3. Turli mahsulotlarda tayyorlangan taomlarni bir-biriga muvofiq holda iste'mol qiling.
4. Sog'lom gavda massasini saqlang, iste'mol etiladigan ovqat miqdori va jismoniy faollikni o'zgartirib bering.
5. Taomni oz-ozdan yeng.
6. Muntazam ravishda ovqatlanishning, orasida uzoq vaqt o'tmasin.
7. Sabzavot, meva, non, don mahsulotlarining ko'proq iste'mol qiling.
8. Yog' iste'mol qilishni kamaytiring. Yog'i kam ovqatlarni tanlang.
9. Qandni sof holda yemang.
10. Tuzni juda kam iste'mol qiling.
11. Alkogol ichimligidan voz keching.

Nazorat savollari

1. Modda almashinuvi deb nimaga aytiladi?
2. Assimilyasiya jarayoni nima?
3. Dissimilyasiya jarayoni nima?
4. Organizmda energiya qanday hosil bo'ladi?
5. Organizmda hosil bo'ladigan energiya miqdori sarflanadigan energiya miqdoriga qanday nisbatan bo'ladi.
6. Odam organizmida hosil bo'lgan energiya nima uchun sarflanadi?
7. Odamning bir sutkada bajaradigan ish turiga ko'ra sarflaydigan energiyasi qancha?
8. Bajargan ishining turiga va sarflaydigan energiya miqdoriga ko'ra aholi qanday guruhlarga bo'linadi?
9. Kishilarning yoshi, jinsiga ko'ra oziq moddalarga bo'lgan ehtiyoji qanday?
10. Ratsional ovqatlanish deganda nimani tushuniladi?
11. Ratsional ovqatlanishning tamoyillari qanday?
12. Ovqatlanish rejimining asosiy qoidalari qanday?
13. 4 mahal ovqatlanish rejimida ovqat kaloriyaligi qanday taqsimlanadi?

14. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining oziq moddalarni iste‘mol qilish uchun tavsiyalari qanday?

15. To‘g‘ri ovqatlanishning umumiy qoidasi qanday?

16. Gavda massasini qanday saqlash kerak?

17. Keksa kishilarda nima uchun yog‘ iste‘mol qilishni kamaytirish kerak?

18. Fiziologik me‘yor bo‘yicha sutkalik oqsil, yog‘, uglevodlarga bo‘lgan ehtiyoj qanday?

19. Fiziologik me‘yor bo‘yicha sutkalik ovqat kaloriyaliligiga qanday taqsimlanadi?

Asosiy adabiyotlar

1. Axrarov U.B., Umidova M.SH., Axrarov SH.U. Ovqatlanish mahsulotlarini tayorlash texnologiyasi. T.: “Yangi nashr” nashriyoti, 2017 y. 520 b.
2. Ламажапова Г.П. Физиология питания. Учебное пособие. – М.: Мир науки, 2016.- 146 стр.
3. O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati: qisqacha tarixi; rivojlanish istiqbollari; muammolari”, Darslik, prof. Turobjonov S.M. tahriri ostida, T.: “Fan va texnologiya”, 2014 y, 460 b.
4. Maksumova M.A., Mo‘minova M.N. Ovqatlanish fiziologiyasi va asoslari, sanitariya va gigiena. O‘quv qo‘llanma., T.: “Voris- nashriyot”, 2012.- 120b.
5. Лебедев В.Г. Физиология питания: Учебное пособие., Ярославль: ЯрГУ,-2009.- 112 стр.
6. Амбросьева Е.Д., Физиология питания. Учебник. Москва: КНОРУС, 2018.-306стр.
7. Kuriyazova S.M. Ovqatlanish gigienasi. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2012. -380 b.
8. Djaxongirova G.Z., Maxmudova D.X. Non va non mahsulotlari ekspertizasi. – Monografiya, T.: Jild-print, 2019.-240b.

6-MA‘RUZA: AHOLINI OVQATLANISH RATSIONINI OPTIMALLASHTIRISH VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI BOYITISH

Reja:

1. Ovqatlanish tamoyillari.
2. Kundalik ovqat ratsionining tuzilish tamoyillari
3. Bolalar va o‘smirlarning ovqatlanishining me‘yori va o‘ziga xos xususiyatlari

Tayanch so‘z va iboralar: *Biologik faol moddalar, kunlik ozuqa ratsioni, shartli refleks, energetik ehtiyoj, ozuqaviy moddalar, energetik qiymati, tolmachoy, yod, gemotagen, manniy yormasi, guruch yormasi, sharbatlar, kisellar, ferment sistemalari, qalqonsimon bezi.*

Darsning o‘quv maqsadi: *Ovqatlanish ratsionini optimallashtirish. Oziq-ovqat mahsulotlarini boyitish. Boyitilgan oziq-ovqat mahsulotlari turlari. Genetik o‘zgartirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini o‘rganish.*

Ovqatlanish tamoyillari.

Odamning ovqatlanishi ratsional bo‘lishi kerak ya’ni, organizmning fiziologik ehtiyojini, yashash joyining ob-havo sharoitini, yoshini, organizm tuzilishini, jinsini va salomatligini hisobga olgan holda bo‘lishi kerak.

Oqilona va ma’romli ovqatlanishda oziqa miqdori va sifati jihatidan to‘la qiymatli bo‘lishi kerak.

Ovqatlanishning miqdoriy qiymatining to‘liqligi deganda ovqatning energetik qiymati organizmning xarakati jarayonida sarflaydigan quvvati miqdoriga teng bo‘lishi tushuniladi. Bunda moddalar almashinuvi jarayonlarini - kishining yoshini, jinsini, ob-havo sharoitini hisobga olishi kerak, chunki yoshlarda moddalar almashinuvi qariyalarga nisbatan intensivligi bilan farq qiladi, ayollarning fiziologik ehtiyoji erkaklarnikiga nisbatan 15% ga kam, shimoliy xududlarda yashovchi odamlarning ovqatga bo‘lgan ehtiyoji 10-15 % yuqori.

Ovqatlanishning sifat jihatidan to‘la qiymatli bo‘lishi muqobillashganligiga, ya’ni undagi oqsillar, uglevodlar, yog‘lar, mineral moddalar, vitaminlar va boshqa biologik faol moddalarning mutanosibligi bilan belgilanadi. (20 - jadval)

Katta yoshdagi odamlar ovqatining me’yori

12-jadval

| Guruh yoshi | Quvvat <i>k.kal.</i> | Oqsillar, <i>gr</i> | | Yog‘lar, <i>g</i> | Uglevodlar, <i>g</i> |
|----------------------|-------------------------|---------------------|-----------------|----------------------|-------------------------|
| | | jami | sh.j. hayvon | | |
| Erkaklar: 60-74 yosh | 2300 | 69 | 38 | 77 | 333 |
| 75 yoshidan kattalar | 2000 | 60 | 33 | 67 | 290 |
| Ayollar: 60-74 yosh | 2100 | 63 | 35 | 70 | 305 |
| 75 yoshdan kattalar | 1900 | 57 | 31 | 63 | 275 |

Yuqorida keltirilgan me’yorlarga ko‘ra oqsillar, yog‘lar va uglevodlarning ratsionidagi mutanosibligi aholining asosiy guruhlari uchun 1:1,4:4, jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar uchun 1:1,3:5, keksalar uchun 1:1,1:4,8 ni tashkil qilishi kerak. Bunda hayvonlar oqsili, kunlik raionidagi oqsilning 55%-ni tashkil qilishi zarur. Oziqa ratsionidagi yog‘larning muqobil miqdori to‘yingan va chala to‘yingan yog‘ kislotalarining proporsiyalari, ya’ni 30% o‘simlik moyi, 70% hayvon yog‘ini tashkil etishi zarur. Uglevodlarning muqobillashgan tarkibi 75% kraxmal, 20% shakar, 5% pektin moddalari va kletchatkadan iborat bo‘lishi kerak. Mineral moddalarning

muqobil miqdori esa odam organizmining fiziologik ehtiyojlarini qondira oladigan darajada bo'lishi hamda Ca kalsiy, P fosfor va Mg magniy nisbati 1:1,5:0,5 miqdorini tashkil etishi kerak. Vitaminlarning me'yori esa organizmning ehtiyojini tabiiy oziqa moddalar hisobiga qondirishi kerak.

Oziqaning sifat jihatidan to'likligi ularning xarakteri va tabiatiga bog'liq. Odam organizmining kunlik energetik ehtiyojini qondirishda asosiy oziqaviy moddalarning salmog'i quyidagicha bo'lishi kerak: ya'ni oqsillar 11-13%, yog'lar 33%, uglevodlar 56 - 54%.

Ovqatlanish tartibi. Ovqatlanish tartibi ovqatning kaloriyasi va hajmiga ko'ra kun davomida ma'lum vaqtlarga taqsimlanishidir. Qat'iy belgilangan bir vaqtda ovqatlanish organizmda shartli refleksini hosil qiladi va ovqat hazm qilish a'zolaridan ko'p miqdorda hazm shirasi ajralishiga sabab bo'ladi va ovqatning engil va to'liq parchalanishini ta'minlaydi. Kun davomida hazm qilish tizimining zo'riqishlarsiz ishlashini ta'minlaydi va organizmning va organizmning quvvatiga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondiradi.

Kun davomida iste'mol qilinadigan ovqatning umumiy miqdori 2,5 -3 kg.ni tashkil qiladi. Kunlik oziqa ratsioni kishining mehnat faoliyati va kun tartibiga ko'ra qabul qilish uchun alohida taqsimlanadi.

O'rta yoshdagi kishilar uchun ratsional ovqatlanish soni 4 mahal, keksalar uchun 4 - 5 soatdan oralatib 5 mahal ovqatlanish tavsiya etiladi. 3 mahal ovqatlanish ratsional bo'lmasdan ovqat hajmini ortib ketishi va hazm qilish sistemasining zo'riqishiga olib keladi. Kechki ovqatni uyqudan 2 soat oldin iste'mol qilinishi kerak.

Ovqatlanish tartibi

13-jadval

| Ovqat iste'mol qilish turi | ovqatlanish vaqti | 3 mahal ovqatlanish | 4 mahal ovqatlanish | | Keksalar uchun 5 mahal |
|----------------------------|-------------------|---------------------|---------------------|-----------|------------------------|
| | | | 1 variant | 2 variant | |
| 1 nonushta | 7 – 7, 30 | 30 | 20 | 25 | 25 |
| 2 nonushta | 11 - 12 | - | 10 | - | 10 |
| tushlik | 14 - 15 | 45 | 45 | 40 | 35 |
| pehinlik | 17 – 17,30 | - | - | 10 | 10 |
| kechki ovqat | 20 – 20,30 | 25 | 25 | 25 | 25 |

Kundalik ovqat ratsionining tuzilish tamoyillari:

Kunlik ovqatlanish ratsioni quyidagi tamoyillarga ko'ra tuziladi. Ovqatning kimyoviy tarkibi va energetik qiymati inson organizmining oziqaviy moddalarga va energiyaga bo'lgan kunlik fiziologik ehtiyojini to'la qondirishi kerak. Bunda organizmning tegishli miqdorda barcha oziqaviy moddalarga bo'lgan ehtiyoji qondirilishi zarur.

Tarkibida hayvon oqsillarini tutuvchi ovqatlarni iste'mol qilishni kunning 1 - yarmiga, sut va o'simlik mahsulotlaridan tayyorlangan ovqatlarni kunning 2 - yarmiga rejalashtirish kerak. Ovqat ratsioniga yog'da eriydigan vitaminlar va to'yinmagan yog' kislotalariga boy bo'lgan sariyog', o'simlik moylari, qaymoq va sut kabi mahsulotlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Kundalik ovqatlanish ratsionining uglevodlari asosan o'simliklar uglevodi hisobiga ta'minlanishi maqsadga muvofiq bo'lib, bu bilan organizmning suvda eruvchi vitaminlarga bo'lgan ehtiyojini ham qondirish mumkin. O'simlik mahsulotlari ko'p miqdorda ozuqaviy moddalarning so'rilishini qiyinlashtiruvchi kletchatka tutadi, shuning uchun ularning miqdori 40% dan ko'p bo'lmasligi kerak. Ovqat yaxshi hazm bo'lishi uchun u chiroyli bezatilgan, ishtahani ochuvchan bo'lishi kerak.

Nonushtaga go'shtli, baliqli, yormali, sabzavotli, yog'li taomlar tortilishi mumkin. Ularning 1- va 2- nonushtaga bo'lib berilsa ovqatning hajmi kamayadi va uning yaxshi hazm bo'lishi ta'minlanadi. Nonushtada issiq choy, kofe, kakao bo'lsa hazm shirasi ajralishi kuchayadi.

Tushlik ovqatga ishtaha ochuvchi sabzavotli gazaklar, birinchi ovqatga yormali, makaronli suyuq ovqatlar, 2 ovqatga go'shtli, baliqli, sabzavotli ovqatlar tavsiya etiladi. Tushlikni kisel, kompot, muss, jele kabi hazm shirasini kamaytiruvchi va to'qlik sezgisini beruvchi shirin ichimlikliklar bilan yakunlash tavsiya etiladi.

Tolmachoyga engil hazm bo'ladigan sut, o'simlik mahsulotlari, bo'tqalar, salatlar, pudinglar, shirinliklar, ichimliklardan choy, sut, sut-qatiq mahsulotlari tavsiya qilinadi.

Taomnomani tuzishda ovqatlarning xilma-xil bo'lishiga e'tiborni qaratish, hamda yil fasllariga xos bo'lgan yangi sabzavot va mevalardan iborat bo'lgan ovqatlar turini nazarda tutish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar va o'smirlarning ovqatlanishining me'yori va o'ziga xos xususiyatlari

Ularning ovqatlanish tartibiga rioya qilishlari ovqatning yaxshi hazm bo'lishida muhim ahamitga ega bo'lib, maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni kunning 4 mahal qat'iy har 3 soatda ovqatlantirib, kunlik ratsionini quyidagicha taqsimlanadi:

nonushta - 25%,

tushlik - 35%,

peshinlik (tolma choy) - 15%,

kechki ovqat - 25% asosida tashkil qilishni tavsiya etadi.

Maktab yoshidagi bolalarni ham 4 mahal: nonushta - 25%, ikkinchi nonushta - 20%, tushlik - 35%, kechki ovqat - 20% ratsioni asosida ovqatlanishni tavsiya etilishi maqsadga muvofiqdir.



20-rasm. Bolalarning kunlik rasioni

Kasb - hunar kollejlarning o'quvchilarini kunlik quvvat sarfi 3000 k.kal. bo'lib, nonushta va tushlik 60-70% bo'lishi kerak. Kichik sinf o'quvchilari uchun nonushtani 2 tanafusdan so'ng, katta sinf o'quvchilari uchun esa 3 tanaffusdan so'ng tashkil qilish mumkin.

Bolalar va o'smirlar organizmi o'ziga xos alohida xususiyatlarga egadir. Bolalar organizmining 25% ni yog', uglevod, mineral tuzlar va 75% ni suv tashkil qiladi. Ular organizmda moddalar almashinuvi jarayoni kattalarnikiga nisbatan 1,5 - 2 marta tez kechadi. Bolalar organizmdagi assilimilyasiya -ya'ni yaratilishi jarayonini dissimilyasiya jarayonidan ancha ustun turadi. Ular mushagining kuchli xarakati quvvatining ko'p sarf bo'lishga olib keladi. Quyida turli yoshdagi bolalar va katta yoshli kishilar organizmning har bir kg. og'irligiga sarflanuvchi quvvat miqdori (K.kal.) keltirilgan. (14 - jadval)

14-jadval

| | | |
|---|-----------------------|----------------------|
| 1 | 1 yoshgacha - 100 | - |
| 2 | 1- 3 yoshgacha 100-90 | 11 - 13 yosh 70 - 65 |
| 3 | 4 - 6 yosh 90 - 80 | 14 - 17 yosh 65 - 45 |
| 4 | 7 - 10 yosh 80 - 70 | Katta odamlar - 45 |

Bolalar va o'smirlarning me'yorli jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishi uchun ularning yoshlarini hisobga olgan holda plastik qurilish jarayonlarini va energetik harakatlarini ta'minlovchi to'la qiymatli to'yimli ozuqa zarur. Bolalar va o'smirlarning kunlik ozuqa ratsionini energetik qiymati ularning energetik harajatidan 10% ortiq bo'lishi kerak, chunki ortiqcha quvvat organizmni o'sishi va rivojlanishi uchun sarflanadi. Shuning uchun oqsil, yog' va uglevodlarning nisbati 1 : 1 : 4 ni tashkil etishi kerak. Turli yoshdagi bolalarni kunlik ovqatlanish me'yori quyidagi jadvalda keltirilgan.

Turli yoshdagi bolalarning kunlik ovqatlanish me'yorlari

15-jadval

| Yosh | Oqsillar, gr | | Yog'lar, g | | Uglevodlar, g | Ratsionning energetik qiymati |
|------------|--------------|---------------|------------|-----------------|---------------|-------------------------------|
| | jami | sh. j. hayvon | jami | sh. j. o'simlik | | |
| 1 – 3 yosh | 53 | 37 | 53 | 5 | 212 | 1540 |
| 4 – 6 yosh | 68 | 44 | 68 | 10 | 272 | 1970 |
| 7-10 yosh | 79 | 47 | | | | |

Bolalarning oziqaviy moddalarga bo'lgan ehtiyoji ularning yoshiga nisbatan teskari proporsiyalanganidir, ya'ni bola qancha yosh bo'lsa uning quvvat sarfi shuncha ko'p bo'ladi, chunki bolalar umrining dastlabki yillarda tez o'sib ulg'ayadi.

Bolalar ovqatlanishida oqsillardagi aminokislotalarning tarkibiga alohida e'tibor qaratish kerak, chunki ular yangi hujayra va to'qimalarning hosil bo'lishida asosiy plastik material bo'lib xizmat qiladi.

Bolalarning oqsilga bo'lgan ehtiyoji bevosita ularning yoshiga bog'liqdir. Bolaning 1 kg. tana og'irligining ushbu moddaga bo'lgan kunlik ehtiyoji quyidagichadir:

1 - 3 yoshgacha 4 gr, 4 - 6 yoshgacha 4 -3,5 gr, 7 - 10 yoshgacha 3 gr., 11 - 13 yoshgacha 2 -2,5gr., 14 - 17 yoshgacha 2 - 1.5 gr.

Kichik yoshdagi bolalarning kunlik ovqat me'yorida hayvonlar oqsili 65-70 % ni, maktab yoshidagi bolalar ovqatida 60 %ni tashkil etish kerak. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarning ovqat ratsionida almashinmaydigan aminokislotalarga boy bo'lgan sut mahsulotlari 600 ml., maktab yoshidagi bolalar uchun esa 500 ml. tavsiya etiladi. Shuningdek ularning ovqatlar-ida turli aminokislotalarga boy bo'lgan go'sht, tuxum, kraxmallarning bo'lishi ham zarur.

Yog'lar bolalar rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular organizmni plastik energetik material sifatida va A, D, E vitaminlar, fasilatlar, chala to'yingan yog' kislotalari bilan ta'minlovchi asosiy moddalar sifatida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa qaymoq, sariyog', o'simlik moyi (um. yog'ni 5 - 10% gacha) tavsiya etiladi. Organizmning yog'larga bo'lgan kunlik ehtiyoji oqsillarniki kabidir. Yog'larning energetik salmog'i kunlik ovqat sarfini 30% ni tashkil etishi kerak. Bolalar ovqatida yog'larning kamayishi ularni kasalliklarga chidamliligini pasaytiradi va o'sishdan orqada qolishlariga sabab bo'ladi.

Yosh bolalar serxarakat bo'lib, bu ularda kattalarga nisbatan uglevodlarga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'ladi va ularning 1 kg. tana og'irligiga nisbatan uglevodlarning sarfi 10 - 15 g. ni tashkil qiladi. Bolalar oziqlanishida engil hazm bo'ladigan, ya'ni mevalar, er mevalar, sharbatlar, sut, shakar, pechene, konfet, murabbolarning uglevodlari muhim ahamiyatga ega. Umuman uglevodlar

salmog'idagi shakarning miqdori 25% dan kam bo'lmashligi kerak. Ammo ularni keragidan ortiqcha bo'lishi bolalarni semirib ketishiga, yuqumli kasalliklarga nisbatan chidamliligini pasayishiga sabab bo'ladi. (16-jadval)

Bolalar va o'smirlarning vitaminlarga bo'lgan ehtiyoji

16-jadval

| Yoshi | C ₁ mg | B ₂ mg | B ₆ mg | B ₁₂ mkg | B ₉ mkg | PP mg | S mg | A mkg | E mg | D mg |
|--------------|----------------------|----------------------|----------------------|------------------------|-----------------------|----------|---------|----------|---------|---------|
| 0-29 kunlik | 03 | 04 | 04 | 03 | 40 | 4 | 30 | 400 | 5 | 400 |
| 1-3 oy | 03 | 04 | 04 | 03 | 40 | 5 | 30 | 400 | 5 | 400 |
| 4-6 oy | 04 | 05 | 05 | 04 | 40 | 6 | 35 | 400 | 5 | 400 |
| 7-12 oy | 05 | 06 | 06 | 05 | 60 | 7 | 40 | 400 | 6 | 400 |
| 1-3 yosh | 08 | 09 | 09 | 1 | 100 | 10 | 45 | 450 | 7 | 400 |
| 4-6 yosh | 1 | 1,3 | 1,3 | 1,5 | 200 | 12 | 50 | 500 | 10 | 110 |
| 7-10 yosh | 1,4 | 1,6 | 1,6 | 2 | 200 | 15 | 60 | 700 | 10 | 100 |
| 11-13 o'g'il | 1,6 | 1,9 | 1,9 | 3 | 200 | 18 | 70 | 1000 | 12 | 100 |
| 11-13 qiz | 1,5 | 1,7 | 1,7 | 3 | 200 | 16 | 60 | 1000 | 15 | 100 |
| 14-17 o'g'il | 1,7 | 2,0 | 2,0 | 3 | 200 | 19 | 75 | 1000 | 15 | 100 |
| 14-17 qiz | 1,6 | 1,8 | 1,8 | 3 | 200 | 17 | 65 | 1000 | 12 | 100 |

Bolalar va o'smirlarning o'sishida A va D vitaminlarining ahamiyati katta. Sut, go'sht, tuxum, baliq yog'ida va sabzi, pomidor, o'rikda A vitamini ko'p bo'ladi. C vitamini B guruh vitaminlari bilan birga o'sishga yordam beradi, organizmni yuqumli kasalliklarga bo'lgan qarshiligini oshiradi. Mineral moddalar bolalarda to'qimalar, suyak va asab sistemasi, miya, tish, mushaklarni o'sishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa kalsiy va fosforning ahamiyati katta bo'lib, ularning kunlik sarfi Ca - 0,5 - 1,2, R - 0,4-1,8 gr. ni tashkil etadi. Ushbu mineral moddalar sut mahsulotlarida, go'sht, baliq, tuxum, suli yormasida ko'p bo'ladi. Temir tuzlari qon hosil bo'lishida ishtirok etib, ular etishmasa gemotagen eyish tavsiya qilinadi. Magniy, uglevod va fosfor almashinuvida, ferment sistemalarining hosil bo'lishida ishtirok etadi, natriy va kaliy esa suv almashinuvini, yod esa qalqonsimon bezlarni me'yorli ishlashini, ftor - tishlarni tuzilishini ta'minlaydi.

Bolalar va o'smirlarni suvga bo'lgan ehtiyoji kattalarnikidan keskin farq qiladi va ularning 1 kg. tana og'irligiga quyidagi miqdorda sarflanadi. 1 - 3 yosh 100 ml., 4 - 6 yosh 60 ml., 7 - 17 yosh 5 ml.(katta yoshdagi - 40 ml) ni tashkil etadi.

Xom ashyolar va taomlarning kulinariya ishlovining o'ziga xos xususiyatlari. Bolalar va o'smirlar ovqatining turiga alohida e'tibor berish kerak. Ularni ovqat ratsionida sut va sut mahsulotlari, mol go'shti, tovuq, jigar, baliq, tuxum, ikra, kartoshka, sabzavotlar, mevalar, suli, grechka (marjumak), manniy yormasi,

guruch yormasi, makaron mahsulotlari bo'lishi tavsiya etiladi. Yosh bolalarga berish man etiladigan va katta yoshdagi odamlar ovqatida ratsionni chegaralanuvchi mahsulotlarga qo'y, cho'chqa, o'rdak go'shti, xren, turp, konserva va dudlangan mahsulotlar kiradi.

Bolalar ovqatining ta'mi va mazasiga alohida e'tibor berish kerak. Bolani yoshiga qarab taomlarga quyidagicha pazandalik ishlov berish tavsiya qilinadi. 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalarga ovqat mahsulotlarini qirg'ichdan o'tkazib va qiymalab, bug'da yoki suvda pishirib berish kerak.

Bolalarning yoshiga qarab ovqatlarga beriladigan pazandalik ishlovi o'zgarib boradi va 16 - 17 yoshlarga borganda kattalar ovqatiga to'g'ri keladi. Bolalarni suyuqliklarga bo'lgan ehtiyojini hisobga olib ularga choy, kofe, kakao, sharbatlar, sut, qatiq, kisellar berish tavsiya etiladi.

Nazorat savollari

1. Oqilona va ma'romli ovqatlanishning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
2. Katta yoshdagi insonlar ovqatining me'yorini ta'riflang.
3. Kunlik energetik ehtiyojida asosiy oziqaviy moddalarning nisbatini keltiring.
4. Ovqatlanish tartibiga ta'rif bering.
5. Kunlik ovqatlanish ratsioni qanday tamoyillarga ko'ra tuziladi?
6. Maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni kuniga necha mahal ovqatlantiriladi?
7. Bolalar va o'smirlar organizmi o'ziga xos xususiyatlari deganda nimaga e'tibor berish kerak?
8. Turli yoshdagi bolalarning kunlik ovqatlanish me'yori qanday?
9. Bolalarning oziqaviy moddalarga (oqsil, yog', uglevod) bo'lgan ehtiyoji qanday?
10. Bolalar va o'smirlarning vitaminlarga bo'lgan ehtiyoji qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. Axrarov U.B., Umidova M.SH., Axrarov SH.U. Ovqatlanish mahsulotlarini tayorlash texnologiyasi. T.: "Yangi nashr" nashriyoti, 2017 y. 520 b.
2. Ламажапова Г.П. Физиология питания. Учебное пособие. – М.: Мир науки, 2016.- 146 стр.
3. O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati: qisqacha tarixi; rivojlanish istiqbollari; muammolari", Darslik, prof. Turobjonov S.M. tahriri ostida, T.: "Fan va texnologiya", 2014 y, 460 b.
4. Maksumova M.A., Mo'minova M.N. Ovqatlanish fiziologiyasi va asoslari, sanitariya va gigiena. O'quv qo'llanma., T.: "Voris- nashriyot", 2012.- 120b.
5. Лебедев В.Г. Физиология питания: Учебное пособие., Ярославль: ЯрГУ,-2009.- 112 стр.
6. Амбросьева Е.Д., Физиология питания. Учебник. Москва: КНОРУС, 2018.-306стр.

7. Kuriyazova S.M. Ovqatlanish gigienasi. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2012. -380 b.
8. Djaxongirova G.Z., Maxmudova D.X. Non va non mahsulotlari ekspertizasi. – Monografiya, T.: Jild-print, 2019.-240b.

7-MA'RUZA: AHOLINING ALOHIDA GURUHLARINI OVQATLANISHINI FIZIOLOGIK ASOSLARI

Reja:

1. Ovqatlanish fiziologiyasi alohida guruhlanishi
2. Turli xil aholi guruhlarining tabaqalashtirilgan ovqatlanishi
3. Parhez guruhlarining tavsifi.

Tayanch soʻz va iboralar: *Davolovchi taomlar, medikamentlar, jarrohlik, fizioterapiya, achchiq, nordon taʼm beruvchi, shovul, qoʻziqorinli ovqatlar, laktatsiya metabolizm, adaptiv (moslashuvchan), kompensatsion, motor funktsiyasi, lipotropik orientatsiya, antisklerotik fokus, gerontologiya, geriatriya, gerodietetika.*

Darsning oʻquv maqsadi: *Bolalar va oʻsmirlar uchun ovqatlanish tartibi. Aqliy mehnat uchun ovqatlanish tartibi. Qariyalar va keksalar uchun ovqatlanish tartibi. Homilador ayollar uchun ovqatlanish tartibini oʻrganish.*

Ovqatlanish fiziologiyasi alohida guruhlanishi

Ovqatlanish fiziologiyasi alohida guruhlarining oziq-ovqat moddalar va energiya ehtiyojlarini aks ettiradi. Belgilangan normalarda ratsional ovqatlanishni tashkil etish uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Katta yoshdagi aholi uchun ovqatlanish standartlari quyidagicha boʻlinadi:

- a) jinsi;
- b) yoshi;
- v) mehnat ishi;
- g) iqlim;
- e) tananing fiziologik holati (homilador va emizikli ayollar).

Bemordagi biror kasallikni davolash maqsadida tavsiya etiladigan taomlar – davolovchi taomlar deyiladi. Bundan koʻzlanadigan asosiy maqsad davolashning boshqa turlari bilan birga kasallikni keltirib chiqaruvchi omillarga taʼsir etib bemorni tezroq sogʻligʻini tiklashdir.

Davolovchi ovqatlanish inson organizmiga turlicha taʼsir qiladi. Ayrim meʼda-ichak, buyrak kasalliklarida moddalar almashinuvi jarayonlarini buzilishda bu usul asosiy davolash usuli boʻlib hisoblanadi. Yurak – qon tomir, asab sistemasi, teri va boshqa kasalliklarda davolovchi ovqatlanishni boshqa turdagi usullari (medikamentlar,

jarrohlik, fizioterapiya) bilan birgalikda buyuriladi. Davolovchi ovqatlanish profilaktik maqsadlarda organizmni himoya kuchini oshirishda va ishlab chiqarishda inson organizmiga tashqaridan tushgan zararli moddalarni zararsizlantirish maqsadida ham buyurilishi mumkin.

Davolovchi ovqatlanish parhezi kasallikning turli bosqichida uning shakliga bog‘liq holda davolovchi shifokorlar tomonidan belgilanadi.

Turli xil aholi guruhlarining tabaqalashtirilgan ovqatlanishi

Bolalar va o‘smirlar ovqatlanishi. Ovqatlanish bolaning normal rivojlanishi va salomatligining asosiy omilidir. Bolalarning ovqatlanishini tashkil etish o‘sayotgan organizmning anatomik va fiziologik xususiyatlariga asoslanadi. Bolalarda assimilyatsiya jarayonlari dissimilyatsiyadan ustun turadi, mushak to‘qimalarining ko‘payishi, skelet, boshqa to‘qimalar va organlarning shakllanishi, fermentativ to‘plam takomillashishi nazorat qilinadi, immunitet yaxshilanadi, aql rivojlanadi va hokazolar. O‘smirlik davrida barcha a‘zo va tizimlarga hamda birinchi navbatda markaziy asab tizimiga funktsional yukning ortishi kuzatiladi, organizmda yurak-qon tomir, gormonal o‘zgarishlar kuzatiladi, jins farqlari shakllanadi. Akseleratsiya jarayoni, ya'ni tezlashtirilgan jismoniy rivojlanish, shuningdek, doimiy ravishda o‘sib borayotgan axborot yuki hajmi bolaning tanasida muhim rol o‘ynaydi. Bolalarning ovqatlanishini yoshga qarab, 11 yoshdan boshlab esa jinsga qarab ajratish kerak.

Aqliy mehnatda ovqatlanish. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va bozor sharoiti aholining salmoqli qismining mehnat faoliyati xarakterini o‘zgartirib, aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar sonining ko‘payishiga olib keldi (iqtisodchilar, huquqshunolar, menejerlar, dasturchilar, marketologlar, bank xodimlari va boshqalar). Aqliy mehnat kam xarakterli faollik bilan tavsiflanadi, bu mushaklarning zaiflashuviga olib keladi - gipodinamiya (gipokineziya). Ma'lumki, faol ishlaydigan mushak tizimi tananing barcha a'zolari va tizimlarining, asosan, yurak-qon tomir va asab tizimlarining ishini ta'minlovchi omil hisoblanadi. Bundan tashqari, nisbatan yuqori kaloriyalik ovqatlanish sharoitida mushaklarning yetarli darajada ishlamasligi tana vaznining oshishiga, keyinchalik semirish va boshqa kasalliklarga olib keladi.



21-rasm. Kalsiy mineral moddasi bor oziq-ovqat magsulotlari.

Aqliy mehnat yuqori darajadagi neyropsixik stress, markaziy asab tizimiga, yurak-qon tomir tizimiga og'ir yuk, adrenalin, kortikosteroidlarning ko'payishi, qonda xolesterin, triglitseridlar, glyukoza va boshqalarning ko'payishi bilan birga keladi. Bunday sharoitda ortiqcha ovqatlanish, ortiqcha vazn, organizmda erta aterosklerotik o'zgarishlar rivojlanishi, neyropsikiyatrik kasalliklar, bosh og'rig'i, gipertoniya, ich qotishi, gemoroy va boshqalarning shakllanishiga to'g'ridan-to'g'ri xavf tug'diradi. Aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan odamlar uchun ovqatlanishning eng muhim tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- iste'mol qilinadigan oziq-ovqatning kaloriya miqdorini ishlab chiqarilgan energiya xarajatlari darajasiga kamaytirish;

- ovqatlanishni o'rtacha cheklash (u uzoq muddatli, ba'zan umrbod foydalanish uchun mo'ljallangan);

- organizmning makro va mikronutriyentlarga bo'lgan fiziologik ehtiyojlarini to'liq qondirish

- antisklerotik fokus;

- stressga qarshi yo'nalish;

- lipotropik orientatsiya;

- ichakning xarakat (motor) funksiyasini oshirish;

- mahsulotlarning maksimal xilma-xilligi;

- Kuniga 4 va 5 marta ovqatlanish.



22-rasm. A va D vitamlari bor oziq-ovqat mahsulotlari.

Keksalik va qarilikda ovqatlanish. Gerontologlar kongressi tomonidan tasdiqlangan yosh tasnifiga ko'ra, 60 yoshdan oshgan aholi uch yosh guruhiga bo'linadi: keksalar (60-74 yosh), qarilar (75-90 yosh) va uzoq umr ko'radiganlar (90 yoshdan yuqori).

Gerontologiya - inson organizmidagi qarish hodisalarini o'rganadigan fan.

Geriatriya - keksa yoshdagi kasalliklarni o'rganish va davolash bilan shug'ullanadigan tibbiyot sohasi.

Gerodietetika - qarilikda ilmiy asoslangan ratsional ovqatlanish.

Keksalik - bu irsiy dasturlashtirilgan hodisa bo'lib, unda butun organizmning barcha darajalarida yoshga bog'liq o'zgarishlarning sekin to'planishi jarayoni mavjud.

Qarishning eng muhim omillaridan biri bu hujayra protoplazmasining o'z-o'zini yangilanishining pasayishi bo'lib, u nukleoproteidlarni, nuklein kislotalarni va yangilanish qobiliyati yuqori bo'lgan boshqa komponentlarni yo'qotadi. Qarishda dissimilyatsiya jarayonlari assimilyatsiya jarayonlaridan ustun keladi, asab va gormonal tizimlarda siljishlar sodir bo'ladi, hujayralar chiqindilarining to'planishi bilan bog'liq genetik o'zgarishlar qayd etiladi, bir qator fermentlarning faolligi o'zgaradi, o'z-o'zini boshqarish tizimi va axborot uzatish tizimi buziladi, organizmda immunologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Barcha holatlarda qarish oxir-oqibat hujayra o'limiga olib keladi.

Ovqat hazm qilish tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. Yosh o'tishi bilan ovqat hazm qilish fermentlarining biosintezi va faolligi pasayadi, oziqa moddalarining assimilyatsiya qilish va singdirish jarayonlari pasayadi, oshqozon-ichak traktining motor funksiyasi zaiflashadi, asosan ichakda chirish mikroflorasining rivojlanishi kuzatiladi.

Shunday qilib, qarish jarayoni ko'p sababli va shuning uchun hayotni uzaytiruvchi vositalar ko'p qo'llanilishi kerak. Ushbu vositalar keksalar va qariyalar uchun ratsional ovqatlanishni o'z ichiga oladi. Oziqlanishning tabiatini o'zgartirish orqali organizmning metabolizm, adaptiv (moslashuvchan) va kompensatsion qobiliyatlariga ta'sir qilish va shu bilan qarish jarayonlarining tezligi va yo'nalishiga ta'sir qilish mumkinligi aniqlandi. To'g'ri tashkil etilgan ovqatlanish insonning umrini o'rtacha 25-40 % ga uzaytirishi mumkin.

Keksalar va qariyalar uchun ovqatlanishning asosiy tamoyillari:

- oziq-ovqat ratsionidagi energiya tarkibining haqiqiy energiya sarfiga mos kelishi;

- ateroskleroz, yurak-qon tomir kasalliklari, arterial gipertenziya, qandli diabet, xolelitiyoz, osteoporoz, onkologik kasalliklar va keksa yoshdagi boshqa patologiyalarning rivojlanishini oldini olish va sekinlashtirish uchun ovqatlanishning profilaktik yo'nalishi;

- dietaning kimyoviy tarkibining yoshga bog'liq metabolizm va organlar va tizimlar funksiyalaridagi o'zgarishlarga muvofiqligi;

- oson hazm bo'ladigan ovqatdan foydalanish;

- ovqat hazm qilish tizimining sekretor va motor funksiyasini o'rtacha darajada oshiradigan mahsulotlarni kiritish;

- ichak mikroflorasining tarkibini normallashtiradigan mahsulotlardan foydalanish;

- turli xil oziq-ovqat mahsulotlari;

- kuniga 4-5 marta ovqatlanish;

- ma'lum bir odamning metabolizmining xususiyatlarini, uning sog'lig'i holatini, ovqatlanish odatlarini hisobga olgan holda ovqatlanishni individuallashtirish.

Homilador ayollar ovqatlanishi. Homiladorlik va laktatsiya - bu ayollarda organlar va tana tizimlarining funktsiyalari va tuzilishini qayta qurishga olib keladigan murakkab fiziologik jarayon.

Ratsional ovqatlanish homiladorlik va tug'ishning qulay kechishi va natijasi, homila va yangi tug'ilgan chaqaloqning normal rivojlanishi uchun muhim shartdir. Shuning uchun homilador ayollar va emizikli onalar uchun dietaning ozuqaviy tarkibidagi zarur o'zgarishlar, agar iloji bo'lsa, ushbu toifadagi ayollarning fiziologik ehtiyojlaridan minimal va qisqa muddatli og'ishlar bilan qat'iy asoslanishi kerak.

Sog'lom homilador ayollarning ovqatlanishi homiladorlik vaqti, bo'yi, tana vazni, ishning tabiati va boshqa omillarga bog'liq. Homiladorlik davrida homilaning, yo'ldoshning va ayolning tegishli to'qimalarining o'sishini ta'minlash uchun, shuningdek, bazal metabolizmning kuchayishi bilan bog'liq holda energiyaga bo'lgan ehtiyoj ortadi. Homiladorlik davrida tana vaznining ortishi o'rtacha 11,2-13,5 kg ni tashkil qiladi. 13,5-15,8 kg dan ortiq vazn ortishi ortiqcha deb hisoblanadi, ko'pincha bu ona va homilaning semirib ketishi bilan bog'liq, kam hollarda - shish bilan bog'liq; har ikkala holatda ham tana vaznining dietasini tuzatish talab qilinadi. Shu bilan birga, vaznning yetarli darajada oshmasligi ham noqulay belgidir - 4,5-6 kg dan kam bo'lsa, bu noto'g'ri ovqatlanishni ko'rsatadi.

Emizikli onalar uchun ovqatlanish. Emizikli onalarning ovqatlanishi laktatsiya va sut tarkibi, shuningdek chaqaloqning salomatligi uchun katta ahamiyatga ega.

Laktatsiya davrida qo'shimcha energiya manbalari ajratilgan sutning energiya tarkibini va uni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan energiya miqdorini o'z ichiga oladi. Sut sekretsiyasining o'rtacha hajmi laktatsiya davrining birinchi 6 oyida 750-850 ml/sutka, keyingi 6 oyda 600 ml / sutka ni tashkil qiladi.

JSSST ekspertlarining tavsiyalariga ko'ra, laktatsiya davrida qo'shimcha energiya talabi o'rtacha 500 kkal/sutka. Qo'shimcha to'liq oqsillarga ehtiyoj o'rtacha 17,5 g / sutka - birinchi 6 oyda va 13 g / sutka - emizishning 6 oyidan keyin.

Parhezli ovqatlanish - bemorning davolovchi ovqatlanish ratsionidir. Davolovchi ovqatlanish maxsus ovqatlanish ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan ishlab chiqilib, bir xil parhezli ovqatlanuvchi bemorlarni ovqatlanish guruhlariga birlashtirilgandir. Bu tizim 15 ta asosiy parhez stolidan iborat. Ayrim asosiy guruhlar bemorning davolanish va sog'ayish daraajasiga qarab kichik guruhchaga taqsimlanadi: 1a, 1b, 1v, 5a, № 1, 2, 5, 9, 10, 15 raqamli parhez taomlar to'yimligi va kimyoviy tarkibi organizmning oziqaviy moddalarga bo'lgan ehtiyojiga qarab muqobillangan bo'lib, bemorlar tomonidan uzoq vaqt iste'mol qilinishi mumkin. № 4, 5a, 8 va boshqalar ham muqobillashgan ratsionli bo'lib, uzoq bo'lmagan muddatga belgilanadi.

Davolovchi ovqatlanish organizmning ayrim joylariga (ovqat hazm qilish a'zolari) va umumiy (barcha a'zolar va sistemalarga) ta'sir qiladi.

Davolovchi ovqatlanish samaradorligi bemor a'zolarini mexanik, kimyoviy va termik jihatdan ehtiyotlashni parhez taomlarining optimal to'la qiymatliligini miqdoriy va sifat jihatidan birligini ta'minlashga bevosita bog'liqdir.

Bemorlarning shira ajratuvchi faoliyatini kuchaytiruvchi kimyoviy moddalardan ehtiyot qilish uchun achchiq, nordon ta'm beruvchi, achchiq, suyuq qaynatmalar, nordon va tuzlangan mahsulotlar, qovirilgan taomlarni iste'mol qilish man etiladi. Bunday hollarda bemorlarga qaynatilgan, bug'da yoki sutda pishirilgan va vegeterianlar uchun mo'ljallangan taomlar tavsiya etiladi. Haroratning zararli ta'siridan ehtiyot qilish uchun bemorning ovqatlanish ratsionidan sovuq va issiq, ovqat hazm qilish tizimini achishtiruvchi ovqatlarni chiqarib tashlanadi. Bunda taomlarni optimal harorati 15 – 65 °C bo'lishi kerak. Davolovchi ovqatlanishni tashkil qilishda ovqatlanish vaqti muhim bo'lib, bunda ovqat hajmi butun kun davomida to'g'ri taqsimlanishi katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik parhezlar uchun 4 soatdan ortiq bo'lmagan vaqt oralig'ida kun davomida 5 va 6 mahal ovqatlanish tavsiya qilinadi. Davolovchi ovqatlanishda tayyorlangan barcha taomlar shirin, e'tiboni jalb qiluvchi, bemorlarga faqatgina foydali bo'lib qolmasdan, balki rohat berishi kerak.

Parhez guruhlarining tavsifi.

№1 Parhez - oshqozon yoki o'n ikki barmoq ichak yarasi, meda shirasi ko'p ajralishi oqibatida yuzaga keluvchi gastritda buyuriladi.

Bundan maqsad meda va o'n ikki barmoqli ichak shilliq quvvatlarini mexanik, kimyoviy va harorat ta'siridan himoya qilishdir. Ovqatdagi tuz miqdorini kamaytirish tavsiya etiladi. Barcha ovqatlar qaynatib, ezilgan holda tayyorlanadi.

Qovurilgan, go'shtli, baliqli, qo'ziqorinli ovqatlar, o'tkir gazaklar, marinadlangan, dudlangan mahsulotlar, kolbasa mahsulotlari, javdar noni, konservalar, karam, sholg'om, rediska, turup, shovul kabilarni iste'mol qilish ma'n etiladi.

Quyidagilar tavsiya qilinadi: bir kun ilgari oliy navli bug'doy undan yopilgan non, sut mahsulotlaridan – sut, qaymoq, qatiq, ezilgan tvorog, mol go'shti, tovuq go'shtlaridan - bug'da pishirilgan kotlet, go'sht pyurelari, yog'siz baliq go'shti (bug'da pishirilgan holda), parhez tuxumlaridan bug'da pishirilgan omlet, ilitilgan tuxum, sabzavotlardan – kartoshka, sabzi, lavlagi, gulkaram (pyure holda), mevalar - er mevalarining shirin navlaridan pyurelar, kisel, sharbatlar, yorma va makaron mahsulotlari, manniy, sulili, guruchli bo'tqalar, pudinglar, yog'lardan - sariyog', souslarni iste'mol qilinadi.

№2 Parhez - surunkali kolit, medadan shira ajralishi etishmasligi oqibatida kelib chiquvchi surunkali gastritlarda buyuriladi. Bundan maqsad medaning shira ajratish faoliyatini yaxshilab ichak yo'lidagi bezlarni ovqatning mexanik harorati ta'siridan,

kimyoviy qo'zg'atuv-chilardan saqlash.

Energetik qiymati va kimyoviy tarkibi jihatidan parhez taomlari to'la qiymatli bo'ladi. Ovqatlanish tartibi 4 - 5 mahal. Osh tuzining miqdori 12 gr. Barcha ovqatlar qaynatib, bug'da va dimlab pishiriladi.

Qovurilgan, dag'al ovqatlarni, dag'al kletchatkali sabzavotlarni, dudlangan, konservalangan mahsulotlarni, javdari non, yangi sut kabilarni iste'mol qilish man etiladi. Quyidagi taomlarni iste'mol qilish ruxsat etiladi: oshirilmay, bug'doy unidan 1 kun ilgari pishirilgan non, pechen'e, sut mahsulotlaridan - sutli choy, qatiq, tvorog mahsulotlari, tovuq go'shti, yog'siz mol go'shti, buzoq go'shti (qiymalangan, bug'da pishirilgan, dimlangan holda). Baliq - yog'siz turlari (qaynatilgan, qiymalangan holda), ilitilgan tuxum, omlet, sabzavotli pyurelar, pudinglar, sabzavot kotletlari, , shirin mevalar va er mevalari – pyure, kisel, kompot, yorma va makaron mahsulotlari – turli xil bo'tqalar, yog'lardan – sariyog', kungaboqar yog'i, zaytun yog'i, gazaklar – chuchuk pishloq, yog'siz kolbasa, suyuq ovqatlar – yog'siz go'shtli va baliqli sho'rva, ichimliklar – sutli choy, kakao, sutli kofelar, namatak qaynatmasi, meva va er meva sharbatlari.

№4 Parhez – o'tkir va surunkali ichak kasalliklari qo'zg'algan paytda (ich surilishi) buyuriladi. Maqsadi ichakdagi shamollash jarayonini yo'qotish uchun ovqat tarkibidagi mexanik va kimyoviy qo'zg'atuvchilar tasirini chegaralash.

Energetik qiymati va kimyoviy tarkibi jihatidan parhez taomlari to'liq bo'lmay ovqat tarkibidagi yog' va uglevodlar miqdori chegaralanadi. Ovqatlanish tartibi kuniga 5 - 6 mahal, tuz miqdori 8gr. Barcha ovqatlar eziltirib pishirilgan va qiymalan -gan holda bo'lishi kerak.

Quyidagilarni iste'mol qilish man qilinadi: sabzavot, mevalar, sut va ulardan tayyorlangan taomlar, qovurilgan ovqatlar va o'tkir bul'onlar, souslar va gazaklar.

